Mazkur jadval asosida avtobus marshrutlarini shakllantirish va optimallashtirish bo‘yicha zarur hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Bunda asosiy maqsad — transport vositalarining samarali ishlatilishi va yo‘lovchilarning umumiy harakat vaqtini minimal darajada ta’minlashdan iborat.

3-jadval


Yo‘lovchilar oqimi

Qayerdan	Qayerga								
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
1	-	358	152	112	189	183	345	253	198
2	289	-	221	156	289	153	187	241	95
3	235	158	-	112	336	148	215	356	201
4	251	189	83	-	194	211	156	245	158
5	349	210	189	156	-	192	194	215	125
6	189	389	201	199	125	-	89	174	102
7	356	275	189	193	341	121	-	349	101
8	346	389	323	112	359	123	245	-	98
9	125	189	298	123	101	79	79	56	-

Hisoblashlar natijalari **3-jadval**da tizimli tarzda keltirilgan bo‘lib, jadvalning **chapdagi ustunlari** — boshlang‘ich punktlarni, **yuqori qator** — qabul qiluvchi punktlarni bildiradi. **Kataklarda** esa harakatlanish vaqti (minutlarda) va o‘tish punktlari (yo‘nalish bo‘yicha oraliq punktlar) ko‘rsatilgan. **Masalan:** 1-nuqtadan 5-nuqtaga borish uchun eng qisqa yo‘l 2 va 8-nuqtalardan o‘tadi va umumiy harakatlanish vaqti **23 daqiqani** tashkil etadi (transferlar vaqti inobatga olinmagan holda).

ISSN 3030-3907

Xuddi shu usulda har bir punkt navbatma-navbat boshlang‘ich cho‘qqi sifatida olinib, qolgan barcha punktlarga bo‘lgan **eng qisqa yo‘nalishlar** aniqlanadi va natijalar jadval ko‘rinishida jamlanadi. Bu transport tarmog‘i bo‘yicha optimal marshrutlarni aniqlashda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.



3-Rasm. Termiz shahar jamoat transporti tarmog‘ining sxemasi, ko‘chalar darajaga bo‘lingan.

Shuni aytish joizki shahar aglomeratsiyasida har bir yo‘nalishda shahar atrofi shahar ichi yo‘lovchi oqimi alohida aholi punktlarining mahalliy yo‘lovchi oqimlaridan hosil bo‘ladi, shoh bekatlarga yetib kelgach esa boshqa yo‘nalishlardan keladigan yo‘lovchi oqimlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shahar-markazi yo‘lovchi oqimlari bilan "aralash" holda qayta taqsimlanadi. Bu 3-rasmda keltirilgan. Keyingi toifadagi ko‘chalar uchun xuddi shu mezonlarga qo‘shilish mezonlari qo‘shiladi (ko‘chalar asosiy ko‘chaga qo‘shiladi yoki b’zi bir yo‘nalishlar ustma ust kesib o‘tadi).

II-bosqich. Boshlang‘ich yo‘nalishlar sxemasini belgilash.

Boshlang‘ich yo‘nalishlar sxemasi sifatida bevosita (ya’ni, bir necha mikrohududlarni o‘zaro bog‘lovchi) marshrutlar va hech bir bevosita yo‘nalishga to‘g‘ri kelmaydigan mahalliy (uchastkaviy) marshrutlarni o‘z ichiga olgan marshrutlar tanlanadi.

Bevosita (skvoznoy) marshrut – bu uch va undan ortiq mikrohudud markazlarini eng qisqa vaqt orqali bog‘lovchi uzluksiz yo‘nalishdir.

Bevosita marshrutni tayinlash uchun yetarli shart quyidagicha ifodalanadi:

Yo‘lovchining marshrutning boshlang‘ich nuqtasida avtobusni kutish vaqti, ushbu yo‘nalish mavjud bo‘lmagan holatda boshqa marshrutga o‘tib o‘tirish (transfer) uchun zarur bo‘lgan vaqtdan kam yoki teng bo‘lishi kerak:

Yyuqorida berilgan shartga asosan mavjud marshrutlar tahlil etiladi:

ISSN 3030-3907

$$\frac{c \cdot q \cdot T_p}{\rho} \cdot \frac{1}{P_{ij}} \leq t_{n_l} \quad (2)$$

1–3 yo‘nalishi uchun:

$$\frac{0{,}5 \cdot 38 \cdot 60}{1{,}1} \cdot \frac{1}{112} > 9 \quad (3)$$

Yo ‘nalishli yo‘ lovchi tashish tarmoqlarini quyidagi shaklda taqdim etish usuli grafik modellar, yo‘nalishli transport tarmoqlarini grafik modellar shaklida taqdim etish usulini ko‘rib chiqilgan. [7]

Transport tarmog‘ining odatiy grafik modeliga mos keladi, u tarmoq tugunlarining to‘xtash joylari va transport vositasining turini tavsiflovchi parametr o‘rtasida aloqa usulini tavsiflovchi parametr bilan to‘ldiriladi.

Shaharlarda transport tarmog‘i va marshrut tizimini loyihalash va baholash [8] shaharning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish-maydon, hududni rivojlantirish xususiyatlari va transport ramkasining mavjud tuzilishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar;

asosiy transport markazining joylashishini aniqlash va turar-joy hududlarining undan uzoqligini tahlil qilish; - mavjud ko‘cha-yo‘l tarmog‘ini tahlil qilish va uning shahar jamoat transporti yo‘nalishlarini qurishga ta’siri;

shahar transport tizimiga qo‘yiladigan talablarni aniqlash;

shahar transport tizimining turli xil variantlarini loyihalash uchun ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish;

yo‘lovchilar oqimini qamrab olishni hisobga olgan holda eng maqbul variantni tanlash va harakatlanuvchi tarkibdan oqilona foydalanish.

Ushbu uslub shahar tizimini loyihalashda qo‘llanilishi mumkin bundan foydalangan holda yo‘lovchi transporti kichik shaharlarda ham sig‘im va tezlik ortadi.

Keyingi ishlarimizda quyidagilar ko‘rib chiqiladi.

marshrut tarmog‘ini optimallashtirish;

transport modelini yaratish algoritmi;

tarmoq modelini yaratish jarayoni.

optimal marshrut tarmog‘ini rejalashtirish

XULOSA.

Shahar marshrut tarmog‘ini rivojlantirishni rejalashtirish hamda uni rivojlanishi tegishli nazariy metodologiyalarga va ilg‘or amaliy tajribaga bog‘liq bo‘ladi. Transport-uzatish uzellarini rejalashtirish va rivojlantirishning muvozanatli tizimi hamda aholining harakatchanligi va jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shahar marshrut tarmog‘ini rivojlantirishni rejalashtirishni tashkil etish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muhim muammolarni hal qilish imkoni yo‘q. Maqolada shahar yo‘lovchi transportining marshrut tarmoqlarini rejalashtirish va

ISSN 3030-3907

rivojlantirishning asosiy ilg‘or usullari muhokama qilinadi. Taqdim etilgan usullarning afzalliklari ularning ko‘p qirraliligi bilan bog‘liq – ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik shaharlarda ham qo‘llanilishi mumkin – aholi soni, ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining sxemalari, yo‘lovchilar oqimini shakllantirish va jalb qilish nuqtalari, bu shahar yo‘lovchi tashishlarini tashkil etish sifatini yaxshilashga va ularning xavfsizligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli Farmoni.
2. Лебедева О.А. Вопросы функционирования городского пассажирского транспорта // Современные технологии и научно-технический прогресс. 2013. Т. 1. – С. 40.
3. Mamirov U. X., Soliyev X. M., Turg‘unov Z. X. Namangan shahridagi markaziy ko‘chalarda chorrahalarning o‘tkazuvchanligini oshirish samaradorligi // Механика и технология. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 66-71.
4. Лебедева О.А. Показатели оценки эффективности работы общественного транспорта // Современные технологии и научно-технический прогресс. 2023.
5. Патаханова М. Пассажирские перевозки и пассажирооборот по видам транспорта. – 2023.
6. Геронимус Б.Л. Экономико-математические методы в планировании на автомобильном транспорте – М.: Транспорт, 1982.
7. Termiz shahri jamoat transporti tarmog‘ining tahlili t.f.n., dots. Qo‘ziyev A.O‘., Komilov A.L. “Transport va logistika: Respublika transport-tranzit salohiyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar” Respublika ilmiy-texnika anjuman materiallari to‘plami. –T.: 2021. – 1188 b.
8. Шаҳар йўловчи транспортининг маршрут тармоқларини лойиҳалаш тажрибасини таҳлил қилиш (сурхондарё мисолида) А.Л. Комилов Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023.
9. Комилов А. Л., Мирзаев А. Ш. Ў. Модель пропускной способности остановочного пункта (на примере термеза) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 3. – С. 154-163.
10. Komilov A’zam Lutfullayevich, Suyunov Oltibek Do‘stmurodovich, & O‘rozov Asqar Davron o‘g‘li. (2025). Avtobus bekatlarining umumiy texnik talablari va ularni logistik boshqarishni yaxshilash. Journal of Universal Science Research, 3(5), 164–170.

ISSN 3030-3907

BURG‘ILASH ERITMALARINING TERMODINAMIK BARQARORLIGI VA ULARNING FILTRLASH JARAYONLARIGA TA’SIRINI ILMIY TAHLILI

Shaymanova Ra’no Soatmurod qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: shaymanovarano2@gmail.com
O‘razov Mustafo Qulto‘rayevich
TDMAU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Annotatsiya. Ushbu maqolada haroratning o‘zgarishi sharoitida burg‘ilash eritmalarining reologik va filtratsion xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Quduq va qatlam orasidagi differensial bosim natijasida shakllanuvchi filtratsiya jarayonlari, eritma strukturasini shakllantiruvchi reagentlarning ta’siri hamda kolmatatsiya mexanizmi chuqur o‘rganildi. Olingan natijalar filtratsiyani boshqarish, qatlam o‘tkazuvchanligini saqlash va burg‘ilash samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan texnologik yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: burg‘ilash eritmalari, reologik xossalar, filtratsiya, kolmatatsiya, qatlam o‘tkazuvchanligi, termik barqarorlik.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована взаимосвязь реологических и фильтрационных свойств буровых растворов в условиях изменения температуры. Детально изучены процессы фильтрации, формирующиеся в результате дифференциального давления между скважиной и пластом, влияние реагентов, формирующих структуру раствора, а также механизм кольматации. Полученные результаты позволяют разработать технологические решения, направленные на управление фильтрацией, сохранение проницаемости пласта и повышение эффективности бурения.

Ключевые слова: буровые растворы, реологические свойства, фильтрация, кольматация, проницаемость пласта, термическая стабильность.

Abstract. This article presents a scientific analysis of the interrelationship between rheological and filtration properties of drilling fluids under conditions of temperature variation. The study thoroughly examines filtration processes resulting from differential pressure between the well and the formation, the influence of reagents that form the fluid structure, and the mechanism of colmatation. The findings enable the development of technological solutions aimed at controlling filtration, preserving formation permeability, and improving drilling efficiency.

Keywords: drilling fluids, rheological properties, filtration, colmatation, formation permeability, thermal stability.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Burg‘ilash jarayonida qatlamning tabiiy o‘tkazuvchanligini saqlab qolish va filtrat kirishini nazorat qilish hozirgi neft va gaz sanoatida strategik ahamiyatga ega. Haroratning ortishi burg‘ilash eritmasining qovushqoqligini kamaytiradi, bu esa qatlamga kiruvchi filtrat miqdorini oshiradi. Natijada qatlam sirtida kolmatatsion qobiq hosil bo‘ladi, bu esa oqimning tabiiy yo‘lini toraytirib, qazib olish samaradorligini pasaytiradi.

Shu bois, haroratning eritma xususiyatlariga ta’sirini baholash, ularning termik barqarorligini oshirish hamda strukturaviy reagentlar sarfini ilmiy asosda optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Grey va Darley (1988) tadqiqotlarida burg‘ilash eritmalarining fraksion tarkibi, zarrachalar o‘lchami va kolloid fraksiyaning filtratsiya qobiqlari hosil bo‘lishidagi roli chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, filtratsiya qobig‘ining qalinligi zarrachalar o‘lchamiga nisbatan kamroq bog‘liq, biroq g‘ovaklik darajasi granulometrik tarkib bilan belgilanadi.

Abrams (1977) tomonidan taklif etilgan nazariy modelda zarrachalar diametri va g‘ovaklik o‘lchami o‘rtasidagi nisbat 1:3 dan oshmaganda gumbazsimon to‘siq hosil bo‘lishi isbotlangan. Ushbu yondashuv kolmatatsiya mexanizmining muhim bosqichi sifatida qabul qilinadi.

Mazkur ilmiy ishlanmalar burg‘ilash eritmasining kolloid fazasini tanlashda asosiy metodik ko‘rsatma vazifasini bajaradi.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarda haroratning oshishi sharoitida burg‘ilash eritmasining reologik parametrlariga ta’siri eksperimental jihatdan o‘rganildi. Sinovlar 215,9 mm diametrli, 295 metr uzunlikdagi gorizontal quduq kesimida o‘tkazildi. Filtratsiya jarayoni statik va dinamik sharoitlarda tahlil qilindi. Filtrlash jarayoni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Gidravlik omil — eritmaning qovushqoqligi va oqim tezligi gradiyenti bilan belgilanadi
2. Kolmatatsion omil — qattiq faza zarrachalarining qatlam sirtini to‘sib qo‘yish darajasini ifodalaydi.

Reologik parametrlar Burgers modeli asosida baholandi. Suyuq faza sifatida suv-polimer asosidagi kompozitsiyalar ishlatildi.

Natijalar va tahlili. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, harorat oshgan sari eritmaning samarali qovushqoqligi pasayadi, oqim tezligi gradiyentlari esa radial yo‘nalishda kamayadi.


ISSN 3030-3907



1-rasm. Harorat ta’sirida burg‘ilash eritmasining samarali qovushqoqligi o‘zgarishi

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, haroratning ortishi bilan eritmaning qovushqoqligi bosqichma-bosqich kamayadi. Bu holat eritma strukturasi buzilayotganini va qovushqoqlik gradientining pasayishini ko‘rsatadi.

Bu jarayon eritma strukturasining buzilishiga olib keladi va kolmatatsiya qobig‘ining bir jinsliligini kamaytiradi.




2-rasm. Harorat o‘zgarishida burg‘ilash eritmasining filtratsiya tezligi dinamikasi.

ISSN 3030-3907

2-rasmda ko‘rsatilganidek, filtratsiya tezligi harorat bilan mutanosib ravishda ortadi. Bu holat eritmaning suyuqlanish darajasi ortishi bilan filtratning qatlamga kirish chuqurligi oshishini anglatadi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, psevdoplastik xususiyatlarga ega suyuqliklar (nochiziqlilik darajasi n<0,3) eng barqaror reologik fazani ta’minlaydi. Ular filtratning qatlamga kirish chuqurligini kamaytirib, qatlamning kollektorlik xususiyatlarini saqlab qoladi.




3-rasm. Eritmaning siljish tezligi gradiyenti va radial masofa orasidagi masofa.

3-rasmda siljish tezligi gradiyentining quduqdan uzoqlashgan sari kamayishi yaqqol ko‘rinadi. Bu esa oqimning laminar fazadan turbulent fazaga o‘tishini sekinlashtiradi.

Kolloid fraksiyaning miqdori va o‘lchamining ortishi qobiqning o‘tkazuvchanligini 30–40% gacha kamaytiradi. Aksincha, kolloid zarrachalarsiz eritmalar o‘lchovdan tashqari yuqori o‘tkazuvchan qobiqlar hosil qilgan.



ISSN 3030-3907



4-rasm. Filtratsiya qobig‘ining o‘tkazuvchanligi va kolloid zarracha diametri o‘rtasidagi bog‘lanish

4-rasmda ko‘rsatilganidek, kolloid fraksiyaning yuqori ulushi filtratsiya qobig‘ining zichligini oshiradi, bu esa qatlamga kiruvchi filtrat miqdorini keskin kamayadi, zarracha diametri kattalashgani sari qobiqning o‘tkazuvchanligi ortadi. Shu sababli zarrachalar o‘lchamining optimal diapazoni 0,3–1,5 nm oralig‘ida bo‘lishi tavsiya etiladi.

Filtratsiyani boshqarishning optimal usuli — termik barqaror psevdoplastik kompozitsiyalarni qo‘llash, ular issiqlikka chidamli polimerlar asosida tayyorlanadi.

Xulosa. Haroratning oshishi burg‘ilash eritmasining qovushqoqligini pasaytiradi va filtratsiyani kuchaytiradi.

Eritmaning reologik parametrlarini haroratga mos optimallashtirish orqali filtrat kirishini kamaytirish mumkin.

Kolloid zarrachalar konsentratsiyasi filtratsiya qobiqlarining o‘tkazuvchanligini belgilovchi asosiy omildir.

Psevdoplastik suyuqliklarni qo‘llash qatlamning tabiiy o‘tkazuvchanligini saqlash uchun eng samarali yo‘l hisoblanadi.

Mazkur natijalar burg‘ilash eritmalarini ishlab chiqishda, ularning termik barqarorligini oshirishda va qatlamni himoya qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Inosaridze Y.M. Gidrat hosil qiluvchi burg‘ilash eritmalari murakkab tog‘-geologik sharoitlarda 2011 y. 138 b.

2. Shaimanova R.S., Urazov M.K., Yuldosheva D.N., Shaimanova N.Kh. Development technologies drilling with hydraulic motors in salt blood conditions. Multidisciplinary scientific journal and No. 1. S. Technologies. 5-6.

3. Shaimanova R.S., Urazov M.K., Yuldosheva D.N., Shaymanova N.X.

ISSN 3030-3907

Development technology Burenia c hydraulic motor c conditions Solenoid series Multi-profile scientific and technical journal. No. 1. S. 5-6.

4. Шайманова Р.С., Уразов М.К., Юлдошева Д.Н. Шайманова Н.Х. Разработка технологии бурения с гидромоторами в условиях соленой крови Multidisciplinary Journal of Science and Technology. № 1. С. 5-6.

ISSN 3030-3907

LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISHDA ISHLATILADIGAN DASTURIY VOSITALAR TAHLILI

Hakimov Axtamjon Ashrafovich

Buxoro davlat texnika universiteti "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida laboratoriya ishlarini samarali tashkil etish va bajarishda raqamli texnologiyalar hamda dasturiy vositalarning o'rni ilmiy tahlil qilinadi. Turli yo'nalishlar, jumladan, tabiiy fanlar, texnika, va neft-gaz sohalarida qo'llanilayotgan dasturiy yechimlarning afzalliklari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri va innovatsion imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: laboratoriya ishlari, raqamli texnologiyalar, simulyatsiya, virtual laboratoriya, neft-gaz sohasi, elektron pedagogika.

Аннотация: В данной статье будет проведен научный анализ роли цифровых технологий и программных средств в эффективной организации и выполнении лабораторных работ в современном образовательном процессе. Будут освещены преимущества программных решений, используемых в различных областях, включая естественные науки, технологии, и нефтегазовый сектор, их влияние на учебный процесс и инновационные возможности.

Ключевые слова: лабораторные работы, цифровые технологии, моделирование, виртуальная лаборатория, нефтегазовый сектор, электронная педагогика.

Annotation: In this article, the role of digital technologies and software tools in the effective organization and implementation of laboratory work in the modern educational process is scientifically analyzed. The advantages of the software solutions used in various fields, including natural sciences, technology, and oil and gas, their impact on the educational process and innovative possibilities are highlighted.

Keywords: laboratory work, digital technology, simulation, virtual laboratory, oil and gas industry, electronic pedagogy.

Kirish.

Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishida, ilmiy tafakkurni rivojlantirishda va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq an'anaviy laboratoriyalar ko'pincha moddiy-texnik ta'minot, xavfsizlik, vaqt va joy jihatidan cheklovlarga duch keladi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi bu muammolarni samarali hal etish imkonini berdi. Raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan virtual va masofaviy laboratoriyalar o'quv jarayonini


ISSN 3030-3907


moslashuvchan, xavfsiz va iqtisodiy samarali shaklda tashkil etish imkonini bermoqda.

Laboratoriya jarayonlarida dasturiy vositalarning ilmiy-pedagogik ahamiyati. Dasturiy vositalar laboratoriya ishlarini avtomatlashtirish, tajriba natijalarini modellashtirish va tahlil qilishda asosiy komponentga aylandi. Ularning pedagogik qiymati talabaning faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlashdan iborat. Virtual muhitda bajarilgan laboratoriya ishlari talabalarga real tajribalardagi jarayonlarni xavfsiz sinovdan o‘tkazish imkonini beradi, bu esa ilmiy-tadqiqot yo‘nalishidagi motivatsiyani oshiradi.

Raqamli laboratoriyalarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi o‘zining nazorat va baholash faoliyatini aniq raqamli ma’lumotlarga tayanib olib boradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini shaffoflashtiradi, baholash sub’ektivligini kamaytiradi va individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirishga yordam beradi.


Turli fan yo‘nalishlarida qo‘llanilayotgan dasturiy yechimlar. Fizika, elektronika, kimyo, biologiya va texnologik fanlarda dasturiy vositalar keng miqyosda joriy etilgan. Masalan, PhET Interactive Simulations, ChemCollective, Labster, NI Multisim va Proteus dasturlari o‘z sohalarida yetakchi o‘rinni egallab, o‘quvchilarga tajribalarni modellashtirish imkonini bermoqda. Ushbu platformalar virtual muhitda eksperimentlarni o‘tkazish, natijalarni avtomatik qayd etish va tahlil qilish imkoniyatiga ega[3].






Bunday dasturlar talabalarning eksperimental fikrlashini rivojlantiradi, ilmiy natijalarni modellashtirish orqali ularni tahlil qilishni osonlashtiradi. Ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida bu vositalar o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907






Neft-gaz sohasida qo‘llaniladigan dasturiy vositalar. Neft va gaz sanoati texnologik murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu bois bu sohada laboratoriya ishlari ko‘p hollarda yuqori xavf darajasi va qimmatbaho asbob-uskunalar bilan bog‘liq. Raqamli laboratoriyalar bunday muammolarni bartaraf etib, o‘quvchilarga xavfsiz sharoitda murakkab jarayonlarni o‘rganish imkonini yaratadi.




Petroleum Experts kompaniyasining **IPM Suite**, **Schlumberger Petrel**, va **CMG (Computer Modelling Group)** kabi dasturlari neft konlarini modellashtirishda keng qo‘llanilmoqda. Ular foydalanuvchiga geologik qatlamlarning xususiyatlarini o‘rganish, burg‘ilash jarayonlarini simulyatsiya qilish va gidrodinamik modellarni yaratish imkonini beradi. Ushbu platformalar o‘quv maqsadlarida ham foydali, chunki ular real jarayonlarga yaqin sharoitlarda tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi[5].

ISSN 3030-3907



O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham neft-gaz yo‘nalishida raqamli laboratoriyalarni joriy etish bo‘yicha dastlabki natijalar ijobiydir. Talabalar Petrel dasturida qatlam modellarini qurish, oqim tahlili va burg‘ilash parametrlarini optimallashtirishni o‘rganishmoqda. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishda samarali yo‘l hisoblanadi.


Masofaviy laboratoriyalar va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri. Masofaviy laboratoriyalar internet orqali laboratoriya jihozlarini boshqarish, ma’lumotlarni olish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv ayniqsa pandemiya davrida o‘zining ahamiyatini ko‘rsatdi. Talabalar geografik masofadan qat’i nazar, o‘qituvchi tomonidan boshqarilayotgan tajribalarda ishtirok etishdi. Bunday tizimlar o‘quv jarayonini demokratlashtirib, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadi.




Masofaviy laboratoriyalar, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham foydalidir. Ular qimmatbaho jihozlardan ko‘p marotaba foydalanish imkonini beradi va texnik xizmat xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga,

ISSN 3030-3907

o‘qituvchilarga talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, nazorat qilish va baholash imkonini yaratadi[1].





Raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, virtual laboratoriyalarda ishlagan talabalar an’anaviy laboratoriya sharoitida o‘qiganlarga nisbatan 25–30 foizga yuqori natijalarga erishgan. Bu ularning faol ishtiroki, tahliliy fikrlash ko‘nikmalari va tajriba natijalarini mustaqil tahlil qilish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida laboratoriya mashg‘ulotlari interaktiv muhitga aylanib, talabalar o‘quv jarayonining faol sub’ekti sifatida ishtirok etadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar laboratoriya natijalarini avtomatik tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va takliflar berish imkoniyatiga ega. Bu o‘qituvchi ishini yengillashtirib, o‘quv jarayonining aniqligini oshiradi.

Muammolar va istiqbollar. Laboratoriya ishlarida dasturiy vositalardan keng foydalanish texnik infratuzilma, dasturiy litsenziya va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi kabi omillar bilan cheklanadi. Ammo so‘nggi yillarda ochiq manbali dasturlar, bulutli hisoblash texnologiyalari va sun’iy intellekt tizimlari bu muammolarni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Kelajakda laboratoriya ishlarini bajarishda kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalarining joriy etilishi kutilmoqda. Bu texnologiyalar murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini, jumladan, neft konlarining qazib olish, transport va qayta ishlash bosqichlarini to‘liq interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa. Laboratoriya ishlarini bajarishda dasturiy vositalardan foydalanish ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, xavfsizlikni oshirish va talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omilga aylandi. Raqamli texnologiyalar, xususan simulyatsion va modellashtiruvchi dasturlar, laboratoriya jarayonini nafaqat soddalashtiradi, balki uning ilmiy asoslanganligini mustahkamlaydi. Neft-gaz sohasi misolida bu jarayon real ishlab chiqarish muhitini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkonini bermoqda.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni ham ta’minlaydi. Shu bois, har bir ta’lim

ISSN 3030-3907

muassasasida laboratoriya jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqamli vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sariyev R.B , INTEGRATIVE ESSENCE OF TECHNOLOGIES INNOVATIVE EDUCATIONAL PROCESS, International Engineering Journal For Research & Development '(IEJRD), http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1399, 2020.
2. Sariyev R.B. The process and stages of the use of integrated information-methodological support by students of external education// Vol. 1 No. 2 (2022): SCIENTIFIC RESEARCH AND INNOVATION, http://ilmiytadykizhot.uz/index.php/iti/article/view/47
3. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu
4. ChemCollective Virtual Labs. Carnegie Mellon University. https://chemcollective.org
5. Schlumberger. Petrel E&P Software Platform. https://www.slb.com

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TURIZM PLATFORMASINI YARATISH TEXNOLOGIYASI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMI

Najmiddinov Sulton Nurali o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi (Bank-moliya akademiyasi tadqiqotchisi)

Annatatsiya: O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish hamda yagona milliy raqamli turizm platformasini yaratish bo‘yicha texnologik yechimlar, innovatsion yondashuvlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotda mavjud axborot tizimlari, davlat xizmatlari portallari hamda xususiy sektor tomonidan yaratilgan raqamli mahsulotlar o‘rganilib, ularni yagona ekotizimga integratsiya qilish tamoyillari ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlari: Smart Tourism Uzbekistan, aqlli turizm, raqamli, ekotizim

Annatation: Technological solutions, innovative approaches and mechanisms for their implementation have been scientifically studied to improve the processes of digitization of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan and create a single national digital tourism platform. The study studied existing information systems, public service portals and digital products created by the private sector, and developed principles for their integration into a single ecosystem.

Keywords: Smart Tourism Uzbekistan, smart tourism, digital, ecosystem


Аннотация: Научно исследованы технологические решения, инновационные подходы и механизмы их внедрения для совершенствования процессов цифровизации сферы туризма в Республике Узбекистан и создания единой национальной цифровой туристической платформы. В ходе исследования изучены существующие информационные системы, порталы государственных услуг и цифровые продукты, созданные частным сектором, а также разработаны принципы их интеграции в единую экосистему.

Ключевые слова: Smart Tourism Uzbekistan, смарт-туризм, цифровые технологии, экосистема

Kirish

Milliy statistika qo‘mitasining uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvi ma’lumotlariga asosan, 2025-yil yanvar-avgust oylarida O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchi aholi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchi aholi ulushi yillar kesimida[1]

Dunyo bo‘ylab turizm sohasida raqamli texnologiyalar jadal joriy etilib, “aqlli turizm” (smart tourism) konsepsiyasi shakllanmoqda.

Bu konsepsiya sayohatchilarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini va ma’lumot olishni tubdan osonlashtirishni maqsad qiladi. O‘zbekiston ham ushbu jarayondan chetda qolmay, mamlakat turizm salohiyatini oshirish uchun zamonaviy yechimlarni tatbiq etishga intilmoqda. Xususan, “Smart Tourism Uzbekistan” deb nomlangan milliy raqamli turizm platformasini yaratish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, u orqali sayyohlar yagona tizimda turli xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.12.2024 yildagi 820-son “Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi qarorni tasdiqlandi. Ushbu platforma mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun turizmga oid barcha asosiy xizmatlarni bir joyga to‘plab, ulardan onlayn tarzda foydalanish imkonini berishni ko‘zda tutadi.

Loyihaning maqsadi va dolzarbligi

“Smart Tourism Uzbekistan” platformasining asosiy maqsadi – sayyohlarga maksimal qulaylik yaratish va mamlakat turizm infratuzilmasini raqamlashtirishdir. Platforma orqali sayyohlar o‘z sayohatini rejalashtirishdan tortib, amalga oshirishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda zarur axborot va xizmatlarga oson ulanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda turizm xizmatlarini bir tizimga integratsiya qilish orqali **bir oynali xizmat** tamoyili (one-stop-service) joriy etiladi.

Mazkur loyiha dolzarbligining asosiy omillari quyidagilar:

- Turistlar oqimining o‘sishi:
- 2030-strategiya va milliy maqsadlar:

[1] Milliy statistika qo‘mitasining uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvi ma’lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

ISSN 3030-3907


- Turizmda innovatsiyalar zaruriyati:
- Investitsion jozibadorlik:

Yuqoridagilar loyiha nechog‘lik dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Platforma mamlakat turizm sohasida innovatsion burilish yasashga qaratilgan bo‘lib, sayyohlar uchun yangi qulaylik darajasini ta’minlash, soha ishtirokchilari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish va milliy raqamli iqtisodiyotning rivojiga xizmat qiladi.

Dunyo tajribasi va tahlillar asosida O‘zbekiston o‘z elektron xizmatlarini doimiy ravishda yaxshilab borishi lozim – xususan, texnologik yangilanishlar, huquqiy liberallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng qulay va innovatsion turistik yo‘nalish sifatida mavqeini mustahkamlaydi.

“Smart Tourism Uzbekistan” platformasi O‘zbekiston turizm sohasini XXI asr talablariga mos ravishda **“aqlli” va raqamli ekotizimga** aylantiradi. Bu loyiha sayyohlarga yuqori darajada qulaylik yaratib, mamlakatimizga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, davlat va xususiy sektor o‘rtasida innovatsion hamkorlikka zamin yaratadi hamda iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Platformaning muvaffaqiyati – bu O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyati bo‘ladi. Shu bois, uni yaratish va rivojlantirishga kompleks yondashuv, barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari hamda ilmiy yondashuv talab etiladi. Uzoq muddatda esa mazkur platforma tajribasi boshqa sohalarda ham davom ettirilib, O‘zbekistonning boshqa sektorlarini “aqlli platformalar” asosida rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa yurtimizni global innovatsion rivojlanish yo‘lining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Aqlli turizm platformasining to‘liq amalga joriy etilish mexanizmi[2]

Platformaning istiqbollari va kelgusidagi yo‘nalishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bir necha muhim jihatlarni qayd etish lozim:

- **Platformani kengaytirish va yangilash:** Dastlabki versiya ishga tushgandan so‘ng, platformani foydalanuvchilarning o‘sib borayotgan talablariga mos ravishda doimiy ravishda kengaytirib borish zarur bo‘ladi. Bu yangi xizmat turlarini qo‘shish (masalan, avtomobil-sharing xizmati, onlayn tarjimon xizmatlari), yangi til versiyalarini joriy etish (14 tildan ham ko‘proq, agar yangi bozorlar paydo bo‘lsa), hamkor tizimlar ro‘yxatini kengaytirish (ko‘proq aviakompaniyalar, ko‘proq turfirmalar) kabi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Shuningdek, foydalanuvchilar fikri asosida interfeys va funksiyalarni takomillashtirish, har yili platforma dizayni va texnologik bazasini yangilash (major update) odatiy amaliyotga aylanishi lozim. Bu platformani doimo zamon bilan hamnafas ushlab turadi.

- **Yangi texnologiyalarni joriy etish:** Raqamli texnologiyalar olami tinimsiz rivojlanmoqda. Bugun trendda bo‘lgan AI, AR/VR yoniga ertaga yangi tushunchalar qo‘shilishi mumkin (masalan, **metaverse** – virtual olamlar, yoki **Web3** texnologiyalari). Platforma kelajakda turizm sohasida paydo bo‘ladigan

[2] Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi

ISSN 3030-3907

bunday yangiliklarni ham o‘zida sinab ko‘rishi va joriy etishi mumkin. Masalan, **metaverse-turizm** g‘oyasi – sayyohlar virtual olamda avatarlar orqali birga muloqot qilib, O‘zbekiston bo‘ylab guruh bo‘lib virtual sayohat qilishlari yoki haqiqiy sayohat paytida AR-ko‘zoynaklar yordamida qo‘shimcha virtual tajribalarni birgalikda baham ko‘rishlari – hozir fantaziya bo‘lib tuyulsa-da, texnika rivoji bilan realga aylanishi mumkin. Platforma bunday innovatsiyalarga tayyor bo‘lishi uchun ochiq arxitekturani saqlab qoladi va startaplar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Shuningdek, **qo‘shma sun’iy intellekt (collaborative AI)** yordamida platforma foydalanuvchilarining guruhiy rejalashtirish, sharhlarni tahlil qilish kabi yangi funksiyalar qo‘shilishi mumkin.

- **Mahalliy startap va dasturchilar ekotizimini shakllantirish:** Platforma faqat yakka loyiha sifatida qolib ketmasdan, uning atrofida mahalliy dasturchilar va startaplar hamjamiyati shakllanishiga harakat qilinadi. Buning uchun platformaning API larini ochiq qilish, **hackathon**lar va tanlovlar o‘tkazish, universitet talabalarini turizm-tech bo‘yicha loyihalarga jalb qilish muhim. Masalan, har yili “Tourism Tech” nomli xakaton o‘tkazilib, unda platformaga qo‘shimcha foydali funksiyalar qo‘shish bo‘yicha loyihalar tanlanishi va g‘oliblarga grantlar berilishi mumkin. Bu orqali yangi iqtidorlar kashf etilib, platformaga innovatsiyalar uzluksiz oqib keladi. Natijada, platforma faqat hukumat yoki operator kompaniya resurslariga tayanib qolmay, butun bir jamiyat resursidan foydalanuvchi ochiq innovatsion muhitga aylanishi mumkin.
- **Xalqaro hamkorlik va integratsiya:** Platforma dastlab milliy miqyosda yaratilsa-da, uning xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari ham bor. Birinchidan, qo‘shni mamlakatlar (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) bilan integratsiyalashgan turizm marshrutlari ishlab chiqilishi mumkin. Markaziy Osiyoda transchegaraviy tur paketlar uchun platformalararo hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa, mintaqaga uzoqdan kelgan sayyoh bir ilova orqali bir nechta davlatdagi sayohatini rejalashtirishi oson bo‘ladi. O‘zbekiston bu borada tashabbus ko‘rsatsa, mintaqaviy turizmning drayveriga aylanishi mumkin. Ikkinchidan, platformani global turizm platformalari bilan ham integratsiya qilish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin – masalan, Booking.com yoki TripAdvisor bilan hamkorlik aloqalari orqali ularning sharhlarini import qilish yoki bizning ma’lumotlarni ularga eksport qilish. Bu albatta kelishuv va muzokaralarga bog‘liq, ammo maqsad O‘zbekiston turizm ko‘rinuvchanligini maksimal oshirish. Uchinchidan, platforma tajribasi boshqa davlatlarga eksport qilinishi ham mumkin – agar loyiha juda muvaffaqiyatli chiqsa, uni brend sifatida boshqa rivojlanayotgan davlatlarga taklif qilish (masalan, “Smart Tourism (CountryName)” modeli) va IT konsalting xizmati ko‘rsatish ham ijobiy yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

ISSN 3030-3907

• **Platformaning o‘zini o‘zi moliyalashtirish modeli:** Uzoq istiqbolda platforma budjetga yuk bo‘lmaydigan, balki aksincha, daromad keltiradigan tizimga aylanishi darkor. Buning uchun ehiyotkorlik bilan monetizatsiya strategiyasini yuritish talab etiladi. Dastlab foydalanuvchilarni jalb qilish uchun barcha xizmatlar bepul yoki minimal komissiyali bo‘lishi tabiiy. Lekin foydalanuvchi bazasi yetarli o‘sgach, ayrim qo‘shimcha xizmatlardan daromad qilish mumkin: misol uchun, mehmonxonalardan bron uchun oz miqdorda komissiya olish (baribir Booking.com kabi xorijiy servislar 15% gacha oladi, milliy platforma 5% olsa ham mehmonxona yutadi), reklama joylashtirish (restoranlar yoki do‘konlar platformada o‘z bannerini chiqishi uchun haq to‘lashlari), premium kontent (masalan, eksklyuziv virtual turlar obunasi) va hokazo. Bu daromadlar platformaning rivojlanishiga qayta yo‘naltiriladi va investorlar uchun dividend sifatida xizmat qilishi ham mumkin. O‘zini o‘zi moliyalashtirishga erishish platformaning barqarorligi va mustaqilligi garovi bo‘ladi.

“Smart Tourism Uzbekistan” platformasi – bu doimo rivojlanib boruvchi, yashovchan tizim bo‘lishi kerak. Uning hayotiyligi foydalanuvchilarning qabul qilishi va undan foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham loyiha boshlangan paytdan boshlab foydalanuvchi fikrini markaziy o‘ringa qo‘yish (user-centered design) va doimiy aloqada bo‘lish kerak.

Akademik va professional nuqtai nazardan, ushbu platforma loyihasi O‘zbekiston misolida raqamli transformatsiya va turizmning sinergiyasini yaqqol namoyish etadi. Raqamli texnologiyalarni strategik tarzda qo‘llash orqali an’anaviy sohalarda ham qanday sakrashli o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy innovatsiya hamdir – chunki jamiyatning raqamli madaniyatini yuksaltirish, bizneslarda yangi biznes-modellarini shakllantirish, davlat boshqaruvida data-driven (ma’lumotlarga asoslangan) yondashuvni kuchaytirish kabi keng qamrovli ta’sirga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sulton N. et al. IMPORTANCE OF SMART TOURISM IN IMPROVING TOURISM MANAGEMENT IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 46. – С. 15-19.
2. Хайитбоев Б. Х., Нажмиддинов С. Н. У. Опыт зарубежных стран в формировании цифровой экономики: выводы и перспективы для Узбекистана //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 1-2 (79). – С. 25-28.
3. Nuralievich S. N. et al. TURIZM SOHASIDA INNOVATSION LOYIHALARNI HAYOTGA TATBIQ ETISH //Научный Импульс. – 2025. – Т. 3. – №. 34. – С. 283-286.
4. Nuralievich S. N. et al. MEHMONXONALARDA ELEKTRON BOSHQARUV TIZIMLARI //ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI

ISSN 3030-3907

RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G‘OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR. – 2025. – T. 8. – №. 81. – C. 3-9.

5. Elektron manba: https://www.researchgate.net/publication/395053194_Recognition_in_ziyorah_tourism_of_bukhara_region_by_world_countries/references

ISSN 3030-3907

MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITIDAN CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYA ORQALI FOSFORLI O‘G‘IT OLISH

Shermatov Akramjon Habibjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktorant,
Sherquziyev Doniyor Shermamatovich
Namangan davlat texnika universiteti professor,
E-mail: akramjon879@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda Markaziy Qizilqum fosforitini mahalliy sanoat ikkilamchi sulfat kislotasi bilan qayta ishlash asosida fosforli o‘g‘it ishlab chiqarish usuli va mahsulotning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Ion almashinuv smolasi ishlab chiqarishda foydalanilgan ikkilamchi 41% tarkibli chiqindi sulfat kislota filtrlash orqali tozalandi va fosforitni parchalaydigan reagent sifatida ishlatildi. Sulfat kislota me’yorini 50-110 gacha bo‘lgan oraliqda fosforitlarni parchalash jarayonlari o‘rganildi. Kislota miqdorini oshirish maqsadida ayrim tajribalarda qo‘shimcha ravishda sul’fat kislotaga 73% termik fosfor kislotasi (TFK) 0,3 nisbatda yoki 21% ekstraksion fosfor kislotasi (EFK) 0,75 nisbatda qo‘shildi. Tadqiqot natijalari chiqindi kislotani samarali ishlatish orqali chiqindisiz texnologiya tamoyillarini hayotga tatbiq etish imkoni mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan fosforli o‘g‘it tarkibida suvda eruvchan fosfatlar ulushi ortib, agronomik qiymati yuqori ekani aniqlandi. Shu bilan birga, odatiy ishlab chiqarishdagi fosfogips chiqindisi hosil bo‘lmagani tufayli mazkur usulning ekologik afzalliklari qayd etildi.

Kalit so‘zlar: fosforit, ikkilamchi sulfat kislota, ekstraksion fosfor kislotasi, chiqindisiz texnologiya, superfosfat, fosfogips, agronomik samaradorlik.

Аннотация: В данной научной работе разработана технология получения фосфорных удобрений с высокой агрономической ценностью на основе переработки фосфоритов Центрального Кызылкума с использованием вторичной серной кислоты, образующейся в местной промышленности. Вторичная серная кислота (41 %), полученная при производстве ионообменных смол, предварительно очищалась фильтрацией и использовалась в качестве реагента для разложения фосфоритов. Изучено влияние нормы расхода кислоты в диапазоне 50 – 110 г. Для повышения эффективности разложения в отдельных опытах к серной кислоте добавляли 73 % термическую фосфорную кислоту (ТФК) в соотношении 0,3 или 21 % экстракционную фосфорную кислоту (ЭФК) в соотношении 0,75. Результаты показали, что использование отходящей кислоты позволяет реализовать принципы безотходной технологии (zero-waste). Полученные фосфорные удобрения содержат повышенное количество водорастворимых фосфатов, что свидетельствует о высокой агрономической эффективности, а отсутствие

ISSN 3030-3907

побочного продукта — фосфогипса — подчёркивает экологические преимущества предложенного метода.

Ключевые слова: фосфорит Центрального Кызылкума, вторичная серная кислота, экстракционная фосфорная кислота, безотходная технология, суперфосфат, фосфогипс, агрономическая эффективность.

Abstract: This study presents the development of a technology for producing high-value phosphate fertilizers based on the processing of Central Kyzylkum phosphorites using secondary sulfuric acid derived from local industrial waste streams. The secondary sulfuric acid (41 %), obtained as a by-product during ion-exchange resin production, was purified through filtration and applied as a reagent for phosphate rock decomposition. The effect of acid dosage was investigated within the range of 50 – 110 g. In several experiments, to enhance the decomposition efficiency, 73 % thermal phosphoric acid (TPA) at a 0.3 ratio or 21 % extraction phosphoric acid (EPA) at a 0.75 ratio was added to the sulfuric acid. The results demonstrated that the reuse of industrial waste acid enables the implementation of a zero-waste technology concept. The obtained phosphate fertilizer contained an increased proportion of water-soluble phosphates, indicating high agronomic value. Furthermore, the absence of phosphogypsum formation highlights the ecological advantages of the proposed method.

Keywords: Central Kyzylkum phosphorite, secondary sulfuric acid, extraction phosphoric acid, zero-waste technology, superphosphate, phosphogypsum, agronomic efficiency.

Kirish

Fosforit rudasidan olinadigan mineral o‘g‘itlar qishloq xo‘jaligida o‘simliklarni fosfor bilan ta’minlashning asosiy manbaidir. Superfosfat o‘g‘iti an’anaviy usulda fosforitni konsentrlangan sulfat kislotada parchalanishi natijasida olinadi – bunda fosforit tarkibidagi $Ca_3(PO_4)_2$ mineraliga H_2SO_4 ta’sir ettirib, suvda eruvchan monokalsiyfosfat $Ca(H_2PO_4)_2$ va gips $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ hosil qilinadi [1]. Ushbu birlamchi superfosfat tarkibida odatda 16–20% P_2O_5 bo‘lib, undan tashqari muayyan miqdorda Ca va S elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Superfosfatning tarkibida kalsiy va oltingugurtning mavjudligi ba’zi holatlarda agronomik ustunlik berishi mumkin, chunki ushbu qo‘shimcha ozuqa elementlari tuproqni meliorativ yaxshilashga va o‘simliklarning oltingugurtga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Biroq, odatiy texnologiyada har 1 tonna P_2O_5 olish jarayonida taxminan 4–5 tonnagacha fosfogips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) yon mahsulot sifatida hosil bo‘ladi va bu chiqindi sifatida jamlanadi. Jahonda har yili 230 million tonnadan ortiq fosfogips chiqindisi paydo bo‘lib, undan asosiy qismi maxsus poligonlarda to‘planmoqda [2]. Fosfogipsning bunday katta hajmlari atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, yer va suv resurslarining ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Shu

ISSN 3030-3907

sababli fosforitlarni chiqindisiz texnologiya asosida qayta ishlash, ya’ni fosfogipsni alohida chiqindi sifatida ajratib olmasdan, mahsulot tarkibida integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi [3, 4].

Chiqindisiz yondashuvlardan biri – fosforitni parchalanishda texnologik sof H_2SO_4 o‘rniga turli sanoat chiqindi kislotalaridan foydalanish va ularni o‘g‘it tarkibiga kiritishdir. Xususan, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlaridan chiqadigan ikkilamchi sulfat kislotani o‘g‘it ishlab chiqarishga yo‘naltirish orqali bir yo‘la ikki muammo hal etiladi: zararli kislota chiqindisi neytrallanib utilizatsiya qilinadi va fosforit parchalash jarayonida yangi suyultirilgan kislota iste’moli qisqaradi. Tadqiqotchilar chiqindi sulfat kislotani fosforitni parchalaydigan reagent sifatida qo‘llab, undan hosil bo‘lgan ekstraksion fosfor kislotasi asosida yuqori konsentrlangan qo‘sh superfosfat o‘g‘itini (45% P_2O_5) olish mumkinligini ko‘rsatganlar [5]. Shu bilan birga, chiqindi kislota to‘g‘ridan-to‘g‘ri fosforitga ta’sir ettirilganda olinadigan o‘g‘it tarkibidagi fosfor ulushi odatda past bo‘lib, qisman kislotali parchalangan fosforit (QKPF) turkumiga kiradi. Bunday mahsulotlarda fosforning bir qismi suvda erimaydigan holda $Ca_3(PO_4)_2$ yoki $CaHPO_4$ ko‘rinishida saqlanib qoladi, shuning uchun ularning agronomik samadorligi to‘la kislotali parchalangan superfosfatga nisbatan pastroq bo‘ladi. Qisman kislotali o‘g‘itlar tarkibidagi P_2O_5 miqdori fosforitning xossalari va kislotaga nisbatan sarfi darajasiga qarab 10–23% atrofida bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, kislotaga boyroq muhitda (masalan, H_3PO_4 qo‘shilganda) fosforitning parchalanish darajasi oshadi va fosforning eruvchan birikmalari ulushi sezilarli ravishda ortadi. Shu bois ushbu tadqiqotda ikkilamchi sulfat kislotani Markaziy Qizilqum fosforiti bilan reaksiyaga kiritishda turli qo‘shimcha reagentlar qo‘llanib, fosforning o‘g‘itga o‘tish darajasi va yakuniy mahsulot tarkibi o‘rganildi [6].

Tajriba uchun xomashyo sifatida Qizilqum fosforitining namuna kukuni va ion almashinuvchi smola (kationit) ishlab chiqarish korxonasidan olingan ikkilamchi (chiqindi) sulfat kislota foydalanildi. Ikkilamchi kislota tarkibida ~41% H_2SO_4 bo‘lib, qolgan qismi suvdan iborat edi. Avvalo, ushbu kislota mexanik filtrlash yo‘li bilan tozalandi va undagi qattiq aralashmalar hamda boshqa ifloslovchilar maksimal darajada olib tashlandi. Fosforitning boshlang‘ich tarkibi rentgen-fazoviy tahlil (XRD) va rentgen-fluoressent tahlil (XRF) usullari yordamida aniqlanganda, uning asosiy komponentlari CaO ~54.2%, P_2O_5 ~21%, SiO_2 ~7%, Al_2O_3 ~3-4% va Fe_2O_3 ~1-1,5% ekanligi ma’lum bo‘ldi (qoldiq – boshqa oksidlar, shu jumladan ≤3% SO_3) – bu ko‘rsatkichlar Markaziy Qizilqum fosforitlari tarkibiga xos qiymatlar diapazonidadir. Yuqori CaO ulushi fosforit tarkibida karbonat minerallar borligidan darak beradi. Bu fosforitga sulfat kislota bilan ishlov berilgandan so‘ng unga 1:0.75 massa nisbatda ekstraksion fosfat

ISSN 3030-3907

kislota bilan ishlov berilib, ~25% li NH_3 eritmasi bilan neytrallandi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Kislotali ishlov berishda kislota me'yori oshishi bilan o'g'it tarkibidagi asosiy komponentlarning foiz miqdori sezilarli ravishda o'zgardi. Umumiy P_2O_5 miqdori H_2SO_4 ni 50% me'yorida ~28,7% dan 110% da ~21,9% gacha pasaygan. Bunda kislotaning ko'payishi bilan fosforit tarkibidagi ba'zi inert birikmalar parchalanib, mahsulot tarkibiga gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) kabi og'ir massali moddalar qo'shilgani tufayli umumiy P_2O_5 ulushi kamayadi. Shu bilan birga, suvda eruvchan P_2O_5 ulushi teskari qonuniyat ko'rsatib, H_2SO_4 ni 50% me'yorida 10,6% dan 110% me'yorida 16,5% gacha oshgan. Limon kislotada eruvchan P_2O_5 (neytral ammoniy sitratda eruvchan fraksiya sifatida) miqdori ham xuddi shunday, 16,7% dan 21,2% gacha ortgan. Bu o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, kislotali ishlov darajasi oshgan sari fosforning ko'proq qismi suv va organik kislotalarda eriydigan, ya'ni o'simlikka o'zlashtiriladigan shakllarga o'tmoqda.

O'g'it tarkibidagi umumiy CaO miqdori H_2SO_4 ni 50% me'yorida 45,5% dan bosqichma-bosqich kamayib, 110% me'yorda 25,6% ni tashkil etdi. Buning sababi shuki, fosforit tarkibidagi kaltsiy birikmalari (asosan $CaCO_3$ va $Ca_{10}(PO_4)_6F_2$ shaklidagi apatit) H_2SO_4 ta'sirida parchalanib, eruvchan fosfatlarni hosil qildi va ko'p miqdorda gips ($CaSO_4$) ajraldi. Hosil bo'lgan gipsning bir qismi nihoyatda mayda zarrachalar sifatida o'g'it tarkibida qolishi yoki texnologiyada ajratilishi mumkin, har ikki holatda ham yakuniy mahsulotda CaO ulushi pasayadi.

Jadval 1.

Ikkilamchi sulfat kislotali ishlov berish natijasida olingan mahsulot tarkibidagi asosiy komponentlar (%).

H_2SO_4 me'yori	P_2O_5 umumiy	CaO umumiy	P_2O_5 suvda eruv.	CaO suvda eruv.	P_2O_5 limon kislota.	CaO limon kislota.	SO_3	CO_2	N
50	28.7	45.5	10.6	7.0	16.7	33.5	2.6	1.6	8.4
55	27.9	43.6	10.8	6.8	16.9	31.1	2.8	1.5	8.5
60	27.0	41.6	10.9	6.5	17.2	28.8	2.9	1.4	8.6
65	26.1	39.6	11.1	6.2	17.4	26.5	3.1	1.3	8.6
70	25.3	37.7	11.2	6.0	17.7	24.1	3.2	1.2	8.7
75	24.5	35.7	11.3	5.7	17.9	21.8	3.4	1.1	8.7
80	23.6	33.7	11.5	5.4	18.2	19.5	3.6	1.0	8.8
85	23.3	32.4	12.3	5.5	18.7	18.4	3.6	1.0	8.9
90	23.1	31.0	13.2	5.6	19.2	17.2	3.7	0.9	8.9
95	22.8	29.7	14.0	5.7	19.7	16.1	3.8	0.8	9.0
100	22.5	28.3	14.8	5.8	20.2	14.9	3.9	0.7	9.1
105	22.2	26.9	15.6	5.9	20.7	13.8	3.9	0.6	9.1

ISSN 3030-3907

110	21.9	25.6	16.5	6.0	21.2	12.6	4.0	0.5	9.2

Suvda eruvchan CaO miqdori oz bo‘lsa-da (7,0% dan ~6% gacha) pasayib, yuqori normada biroz barqarorlashgan. Bu ko‘rsatkich $CaSO_4$ ning suvda kam eruvchanligi bilan bog‘liq – kislotali ishlovda erigan Ca avvalo gips ko‘rinishida cho‘kma hosil qiladi va suvda erimaydi. Limon kislotada eruvchan CaO ulushi esa 33,5% dan 12,6% gacha keskin tushdi, ya’ni boshlang‘ich fosforitdagi $CaCO_3$ kabi kislota-ta’sirchan birikmalar tugab, yakuniy mahsulotda Ca asosan kislotalarda ham erimaydigan gips holida qolganini bildiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, plastik va po‘lat quvurlarda suyuqlik oqimining gidravlik xususiyatlarini taqqoslash orqali ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, optimal tanlovni belgilash va loyihalash aniqligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Hozirgi kunda ko‘plab loyihalarda Kolbruk tenglamasi kabi empirik bog‘lanishlardan foydalanilsa-da, ularning plastmassa quvurlar uchun qo‘llanish chegaralari to‘liq o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada po‘lat va plastmassa quvurlarda ishqalanish koeffitsienti bilan Reynolds soni orasidagi bog‘liqlikni eksperimental va hisobiy tahlil qilish orqali ularning farqli tomonlarini aniqlash maqsad qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda har xil materialdagi quvurlar uchun oqim xarakteristikalarining solishtirma tahlili keltirilib, gidravlik yo‘qotishlarni aniqlashda foydalaniladigan tavsiyalar taklif etiladi. Bu natijalar kelgusida suv ta’minoti tizimlarini yanada tejamkor, energiya samarador va uzoq muddatli qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Quvurlarning gidravlik samaradorligini baholashda ularning g‘adir-budirligi alohida ahamiyatga ega.Jahonda quvur absolyut g‘adir-budirligini aniqlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar nazariy va amaliy izlanishlar olib borgan hamda turli xil natijalarga erishgan. Gidravlik

ISSN 3030-3907

muhandislikning ko‘plab qo‘llanmalari, ilgari faqat an’anaviy materiallar bilan cheklangan bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirda ayniqsa katta diametrli holatlarda tayyor plastik quvurlar orqali tobora ko‘proq amalga oshirilmoqda. Plastmassa quvurlardagi oqim qarshiligi qonunlari haqida, ayniqsa ushbu materiallar uchun bevosita olingan ma’lumotlar hali ham nisbatan kam. Ushbu ishda, turli xil plastmassalardan yasalgan quvurlarda barqaror turbulent suv oqimlari sharoitida bosim yo‘qotishlari va ishqalanish koeffitsiyentlari tajribaviy aniqlangan.Ulardan biri Diogo va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida gravitatsiya va naporli bir nechta bosim quvurlari, 110 mm gacha bo‘lgan nominal diametrlarda, 4 000 dan taxminan 600 000 gacha bo‘lgan Reynolds sonlari oraliqlarida ishlatilgan. Ishqalanish koeffitsiyenti va Reynolds soni juft qiymatlari hisoblab chiqilgan va logarifmik shkalalarda grafik ko‘rinishda tasvirlangan.

Trend tahlili orqali turli quvurlar uchun muhim miqdorda mutlaq qo‘pol yuzalilik farqlari aniqlangan. Blasius va Scimemi formulalari (silliq quvurlar uchun empirik formulalar) ham grafiklarda aks ettirildi va ular ham tajriba ma’lumotlari bilan muvofiqlikda bo‘lib, mos ravishda Re $\lesssim$ 100 000 va biroz kamroq $\lesssim$ 1 000 000 gacha yaxshi mos tushgan[1].

Daneshvar va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida esa napor yo‘qolishi va ishqalanish koeffitsientini baholash suyuqliklar mexanikasi va quvur tizimlarini loyihalashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda FARATEC shisha tolali plastmassa (GRP) quvurlarining napor yo‘qolishi va gidravlik ishqalanish koeffitsientini baholash uchun turli profilometriya usullari qo‘llanilgan.

Bu yondashuv GRP quvurlar yuzasining qo‘polligini aniqlashda profilometriya va maxsus yuzaki qo‘pollik o‘lchov asboblari orqali o‘lchovlarga asoslangan. Ushbu usul orqali Darcy-Weisbach ishqalanish koeffitsienti (λ) GRP quvurlar uchun oqim tezligi va quvur diametrlari bo‘yicha Colebrook-White tenglamasi asosida hisoblangan.

Ushbu tadqiqotda g‘adir-budirlikni o‘lchash uchun uchta asbob qo‘llanilgan va gidravlik ishqalanish koeffitsienti (λ) raqamli (numerik) usul bilan hisoblangan. Shulardan Surftest SJ-210 asbobi eng aniq va ishonchli o‘lchovlarni bergan.

Shuningdek, Rz va Ra parametrlari mos ravishda 0.8 va 2.5 mikrometr bo‘lgan lambda c bilan birga GRP quvur namunalarining g‘adir-budirlikni baholashda eng mos parametrlar sifatida tanlangan.

Barcha Darcy-Weisbach ishqalanish koeffitsienti λ qiymatlari va Moody diagrammalari aniq hisoblab chiqilgan va o‘lchangan gidravlik ishqalanish koeffitsientlari bilan solishtirilgan. Shu sababli, GRP quvurlarining g‘adir-budirligi va gidravlik ishqalanish koeffitsienti (λ) g‘adir- silliq quvurlar doirasiga kiradi[2]. Agar ichki yuzaning budirligini o‘lchash uchun qo‘pollik o‘lchagich (roughness meter) dan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin deb faraz qilinsa, ushbu

ISSN 3030-3907

tadqiqotning maqsadi — sug‘orishda ishlatiladigan plastik quvurlarning ichki yuzasi budirligini ifodalash uchun zarur bo‘lgan parametrlar va protseduralarni aniqlash bo‘lgan.

2013-yilda, yuzadagi notekisliklarni ifodalashda keng qo‘llaniladigan Ra budirlik parametri, shuningdek Rc, Rq va Ry parametrlari ham 350 ta namunadan iborat polivinilxlorid (PVC) va past zichlikdagi polietilen (LDPE) quvurlar asosida baholangan.

Napor yo‘qolishlari laboratoriyada o‘tkazilgan tajribalar orqali aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, napor yo‘qolishlari qiymati tanlangan g‘adir-budirlik parametrlari (Ra, Rc, Rq, Ry) va quvur diametriga qarab sezilarli darajada farq qiladi.

Shuning uchun, har bir quvur diametri uchun alohida aniqlangan g‘adir-budirlik qiymatlari bosim yo‘qolishini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Natijada, quvurlar ichki yuzasining o‘rtacha g‘adir-budirligi:PVC (polivinilxlorid)quvurlar uchun: 3.334 mikrometr,LDPE(Low-Density Polyethylene-zichligi kichik bo‘lgan polietilen) quvurlar uchun: 8.116 mikrometr deb topilgan[3-5].

Boshqa olimlar tadqiqotlarini ko‘radigan bo‘lsak turli materiallardan tayyorlangan quvurlar uchun sun’iy g‘adir-budirlikni (sand-grain roughness) suyuqlik oqimi tajribalari orqali baholash ishonchli usul hisoblanadi, biroq bunda o‘lchovdagi noaniqliklarni hisobga olish kerak.Guo va boshqa olimlar maqolasida quvurning diametri, uzunligi, bosim yo‘qolishi yoki piezometrik bosimi, g‘adir-budirlik koeffitsienti, o‘rtacha g‘adir-budirlik balandligini hisoblash uchun tenglamalar taklif etilgan.Colebrook tenglamasi orqali hisoblangan g‘adir-budirlik qiymati Reynolds soni (Re) o‘zgarganda sezilarli darajada farq qilishi hodisasi asosida, maqolada g‘adir-budirlikning foydali (ishonchli) qiymatini aniqlash uchun tizimli noaniqlik tahlili taklif etilgan[2-6]. Vichovski tomonidan tadqiq qilingan po‘lat quvurlarida chuqurcha korroziya (pitting corrosion), devor qalinligining kamayishi va devor buzilishi kuzatilmadi, bu esa quvurlarni yemirilishi jiddiy emasligini va ularning xizmat muddatini uzaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ichimlik suvi ta'minoti tizimida 30 yil davomida ishlatilgan ko‘milgan quyma temir quvurlarning korroziyaga qarshi baholanishi ularning yuqori mustahkamlikka va uzoq xizmat muddatiga ega ekanligini tasdiqladi.

Shunga qaramay, quvurlar ichida katta miqdorda cho‘kindilar to‘planishi muammo sifatida namoyon bo‘ldi. Garchi hisoblangan Langelier va Ryzner indekslariga ko‘ra, ushbu quvurlar orqali taqsimlanayotgan suv korroziv xususiyatlarga ega emas yoki juda kam bo‘lsada, precipitat (cho‘kindi) xususiyati mavjudligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

Katta miqdordagi cho‘kinmalar gidravlik oqim sharoitlarini sezilarli darajada yomonlashtiradi. 30 yillik ekspluatatsiyadan so‘ng o‘lchangan bosim yo‘qotilishi yangi quvurlar bilan solishtirganda o‘rtacha 502% ko‘p, ya’ni 5 baravar ortiq bo‘lgan. Shuningdek, katta miqdordagi cho‘kinmalarga ega bo‘lgan quvurlar uchun nazariy hisoblangan qiymatlarga nisbatan bosim yo‘qotilishi o‘rtacha 321% ko‘p bo‘lgan.

Tadqiq qilingan quvurlar uchun oqim qobiliyatining pasayish koeffitsienti 0.36 dan 0.52 gacha bo‘lib, o‘rtacha 0.45 ga teng bo‘lgan. Bu shuni anglatadiki, 30 yillik ekspluatatsiyadan so‘ng oqimning atigi 45% qismi yangi quvurlardagi bilan teng bosim yo‘qotishga olib keladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu quvurlar orqali suv tashish katta energiya yo‘qotishlariga olib kelmoqda, chunki o‘rtacha mutlaq qo‘pollik (k = 27.6 mm) yangi quvurlarga nisbatan uch baravar ortgan. Shuning uchun, bunday quvurlarni ekspluatatsiya qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Bunday vaziyatda, quvurlarni almashtirish yoki devorining yaxshi texnik holatini inobatga olib, to‘plangan cho‘kindilarni tozalash va quvur ichki yuzasini yana cho‘kinmalardan himoya qilish imkoniyatini ko‘rib chiqish kerak.

To‘plangan cho‘kindilarning tuzilishi va kimyoviy tarkibi tashqi va ichki qatlamlarda har xil. Har ikkala qatlamda ham asosiy tarkibni temir oksidlari va gidroksidlari tashkil qiladi. Ichki qatlamda esa kalsiy miqdori yuqoriroq. Bunday cho‘kindilarning ko‘pligi suv sifatining yomonlashuviga va “qizil suv” (red water effect) hodisasining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin[7,9-11].

Turkiyalik olimlar Sorgun va Muftuoglu tadqiqotida o‘lchamli tahlil (dimensional analysis) asosida geotermal quvurlar tizimlarida foydalanish uchun qulay bo‘lgan yangi ishqalanish koeffitsienti tenglamasi ishlab chiqildi. Bu tenglama suyuqlik harorati, quvurning qo‘pollik balandligi va oqim tezligining ta’sirini hisobga olgan holda yaratilgan. Ishlab chiqilgan ishqalanish koeffitsienti Reynolds soni, Prandtl soni va nisbiy g‘adir-budirlik funksiyasi sifatida ifodalanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, Prandtl soni haroratga teskari proporsional, ya’ni harorat oshgani sari ishqalanish koeffitsienti kamayadi.

Taklif etilgan ishqalanish koeffitsienti tenglamasi Blasius (1913) va Taler (2016) formulalari (silliq quvurlar uchun), hamda Colebrook (1939) formulasi (qo‘pol quvurlar uchun) bilan, shuningdek, eksperimental ma’lumotlar bilan solishtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan tenglama har xil harorat qiymatlarida boshqa formulalar va tajriba ma’lumotlari bilan yaxshi mos keladi.

Shuningdek, ishqalanish tufayli bosim yo‘qotishlarini yangi tenglama orqali aniq hisoblash mumkinligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

Eksperimental tekshiruvlar natijasida galvanizatsiyalangan quvurlar uchun qo‘pollik balandligi quvur diametriga qarab sezilarli darajada o‘zgarishi aniqlandi. Odatda sanoatda bu qiymat 0.15 mm deb olinadi, ammo tajriba asosida quyidagi qiymatlar aniqlandi:

mm diametrli quvur: 0.052 mm, 50 mm diametrli quvur: 0.06 mm, 80 mm diametrli quvur: 0.07 mm, 90 mm diametrli quvur: 0.12 mm

Bu eksperimental natijalarga asoslanib, shuni xulosa qilish mumkinki, quvurlarning qo‘pollik balandligi va suyuqlik harorati qo‘pol quvurlar bo‘ylab turbulent oqimda ishqalanish koeffitsientiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, geotermal quvurlar tizimlarida nasoslarni tanlashda, bu esa umumiy narxga ta’sir qiladi, quvurlarning qo‘pollik darajasi aniq aniqlanishi va suv haroratining bosim yo‘qotishlariga ta’siri hisobga olinishi shart[10-13].

Bundan tashqari Perkins quvurdagi napor yo‘qolishiga nafaqat g‘adir-budirliklar balki quvur ichidagi oqim sharoitida yuzaga keladigan mikroorganizmlar va suv o‘tlarini quvur ichki yuzasida to‘planishi (biofouling) maishiy va sanoat sharoitida keng qo‘llaniladigan quvurlarda napor yo‘qolishiga va gidravlik ishqalanish koeffitsientining qiymatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ishqalanish koeffitsienti Reynolds soni oshishi bilan ortishi kuzatildi, biroq oqim tezligi U = 1.77 m/s kritik qiymatga yetgach, mikroorganizmli qatlam yuzadan yirtilib tushib, devordan yuvilib ketdi va natijada ishqalanish koeffitsienti keskin pasaydi.Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, juda boshqariladigan sharoitlarda sun’iy g‘adir-budir quvurlar bo‘yicha empirik tarzda ishlab chiqilgan formulalar mikroorganizmlar yig‘ilgan quvurlarga tatbiq etilganda yetarli darajada ishonchli emas, va Colebrook–White tenglamasini o‘zgartirish zarurligini yanada tasdiqlaydi[13,15].

20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, quvur materiali sifatida PVC (polivinilxlorid)dan foydalanish suv ta’minoti tarmoqlarini (WDS – Water Distribution Systems) loyihalash, rekonstruksiya qilish va kengaytirishda keng qo‘llanila boshlandi. Biroq, ilgariroq, sirtining qo‘polik darajasi yuqoriroq bo‘lgan materiallar kengroq ishlatilgan va aynan shu materiallarga asoslanib, hozirda eng ko‘p ishlatiladigan dizayn tenglamalari (Colebrook-White, Darcy-Weisbach va Hazen-Williams) ishlab chiqilgan.

Karvaxal tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlarda yuqoridagi mashhur tenglamalarning PVC materiali uchun qo‘llanilishi va ularning aniqligi tekshirildi. Buning uchun turli quvur birikmalarida, Reynolds sonlari 3×10^4 dan 5×10^5 gacha bo‘lgan oraliqda va nisbiy g‘adir-budirlik 6×10^{-4} dan 2×10^{-3} gacha bo‘lgan qiymatlar bo‘yicha napor yo‘qolishi aniqlandi.

Kichik diametrli quvurlar uchun Blasius va Prandtl–von Kármán tenglamalari ishqalanish koeffitsientini hisoblash uchun mos keladi. Boshqa

ISSN 3030-3907

tomondan, yirik diametrli quvurlar uchun Colebrook-White tenglamasi ishqalanish koeffitsienti bilan Reynolds soni orasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri tasvirlaydi[2,5-8]

Ushbu turli davr va turli sharoitlarda olib borilgan izlanishlardan, quvurlarning g‘adir budirlik koeffitsientini qiymatini aniqlash natijalari turlicha ekanligini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda, amaliyotda aynan bitta materialdagi quvur absolyut g‘adir-budirligini qiymati vaqt o‘tishi bilan ham o‘zgarib borishligi ham mavjud Suv ta’minoti tizimlarida foydalanilayotgan turli materaiallardan yasalgan quvurlarning eskirishi va g‘adir- budirlikning doimiy o‘zgarib borishi turlichadir. Bu esa o‘z navbatida bu boradagi ilmiy va amaliy izlanishlarni talab etadi.

Bizga ma’lumki suv ta’minoti tizimini loyihalashda, gidravlik hisoblarning asosiy qismini yo‘qolgan naporni topish tashkil etadi. Suv ta’minoti tizimida asosan uzun quvurlardan foydalanilgani sababli napor yo‘qolishi gidravlik ishqalanish hisobiga sodir bo‘ladiPlastik quvurlar metall quvurlarga nisbatan yuqorida keltirilgan afzalliklardan tashqari gidravlik jihatdan ham qulay hisoblanadi. Buning asosiy sababi metal quvurlarga nisbatan plastmassa quvurlarda absolyut g‘adir-budirlik qiymati bir necha marta kichik bo‘lishini yuqoridagi olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan ko‘rish mumkin. Bu o‘z navbatida plastmassa quvurda uzunlik boyicha napor (solishtirma energiya) yo‘qolishi bir necha marta kichik bo‘lishini ta’minlaydi[7]

Quvurlar gidravlik hisobini bajarishda gidravlik ishqalanish koeffitsientini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Gidravlik ishqalanish koeffitsienti qiymati harakat rejimi va quvur materialiga bog‘liq ravishda aniqlanadi. Hammaga ma’lumki oqim harakat rejimi ikki xil laminar va turbulent rejimlardan iborat Ushbu harakat turlari o‘zaro tubdan farq qiladi. Agar oqim laminar harakat rejimida bo‘ladigan bo‘lsa gidravlik ishqalanish koeffitsientini Puazeyl formulasidan aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunda gidravlik ishqalanish koeffitsientini qiymati faqat Reynolds soniga bog‘liq ravishda aniqlanadi[9,11]. Chunki oqim bunday harakatlanganda quvurning absolyut g‘adir budirligi laminar qatlam bilan qoplanadi va g‘adir budirlikning o‘lchami ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Oqim turbulent rejimga o‘tganda uch hil qarshilik sog‘asiga o‘tishi mumkin bo‘ladi. Birinchisi – o‘tish va gidravlik silliq sirt sohasi. Bunda gidravlik ishqalanish koeffitsienti qiymati faqat Reynolds soniga bog‘liq bo‘ladi. Chunki bunda hali oqim harakat kesim yuzasi bo‘ylab turbulentlik mavjud bo‘lmasdan, oqim markazida turbulentlik, oqim chekka nuqtalarida ya’ni quvur devorida laminar qatlam mavjud bo‘lib bu qatlam quvurning g‘adir budirligini qoplaydi. Ikkinchisi – kvadratgacha bo‘lgan qarshilik sohasi. Bunda gidravlik ishqalanish koeffitsientini qiymati ham Reynolds soniga ham quvur absolyut g‘adir budirligiga

ISSN 3030-3907

bog‘liq bo‘ladi. Uchinchisi – kvadrat qarshilik sohasi bo‘lib, bunda gidravlik ishqalanish koeffitsientini qiymati faqat quvur absolyut g‘adir budirligiga bog‘liq bo‘ladi[1-5]. Ushbu qarshilik sohalarida gidravlik ishqalanish koeffitsientini aniqlash bo‘yicha dunyoda juda ko‘plab olimlar nazariy va amaliy izlanishlar olib borganlar hamda ma’lum darajada nitajaga erishganlar. Shunga qaramasdan bugungi kunda ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqazo etadi.

Polipropilen quvurlar diametri 16 dan 125 mm gacha bo‘lishi mumkin. PP quvur liniyasi payvandlash yordamida yig‘iladi. Quvurlarning har bir toifasi uchun o‘ziga xos turdagi quvurlar mavjud (PN10, PN16, PN20, PN25). Raqamli indikator ma’lum bir mahsulot qanday bosim uchun mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, PN20 quvurlarining markalanishi bizga bunday mahsulotlar 20 atmosfera ish bosimiga ega tizimlar uchun mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi.

Polipropilen quvurlarni o‘rnatish past haroratli payvandlash qurilmasi yordamida amalga oshiriladi.To‘g‘ri foydalanilganda uning ishlash muddati 50 yilni tashkil etadi[1,3,8].

Gidravlik ishqalanish koeffitsenti (λ) suyuqlik quvur ichidan oqayotganda yuzaga keladigan qarshilikni tavsiflaydi. Bu ko‘rsatkich qanchalik kichik bo‘lsa, quvur liniyasi bo‘ylab bosim yo‘qotishlari shunchalik kam bo‘ladi, natijada suvni uzatish uchun kamroq energiya talab etiladi. Polipropilen (PP-R) quvurlari quyidagi sabablar tufayli past gidravlik ishqalanish koeffitsentiga ega:

Silliq ichki yuzasi – Polipropilen quvurlar ichki yuzasi an'anaviy metall quvurlarga qaraganda ancha silliq bo‘lib, bu suv oqimining ishqalanishsiz harakatlanishini ta’minlaydi. Mis quvurlar bilan taqqoslaganda, polipropilen quvurlarning λ qiymati deyarli ikki baravar kichik bo‘lishi mumkin.

Choklarning yo‘qligi yoki kamligi – PP-R quvurlar payvandlash orqali ulanadi, bu esa quvur liniyasida qo‘shimcha ishqalanish keltirib chiqaruvchi choklarni yo‘q qiladi[2,4,7,12].

Tuz va cho‘kindilarga chidamlilik – Metall quvurlarda vaqt o‘tishi bilan korroziya va cho‘kindilar paydo bo‘lib, ichki yuzani qo‘pol holga keltiradi va ishqalanish koeffitsentini oshiradi. Polipropilen esa bunday muammolarga duch kelmaydi[5,6,9].

Polipropilen quvurlar uchun ishqalanish koeffitsenti taxminan 0.007−0.009 oraliqda bo‘lib, galvanizatsiyalangan po‘lat quvurlarga nisbatan ancha past (λ≈0.02−0.03)[3]. Bu past qiymat quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

Bosim yo‘qotishlarining kamayishi – Suv ta’minoti tizimlarida quvur liniyasi bo‘ylab bosimning pasayishi kamayadi, bu esa nasos uskunalarining yuklanishini pasaytiradi va energiya tejamkorligini oshiradi.

ISSN 3030-3907

Yuqori samaradorlik – Suv iste’molchilarga optimal bosimda yetib boradi, bu ayniqsa ko‘p qavatli binolar va uzoq masofali tarmoqlarda muhim ahamiyatga ega.

Nasos quvvatining kamayishi – Past ishqalanish koeffitsenti tufayli kichik quvvatli nasoslar ham samarali ishlaydi, bu esa elektr energiyasi sarfini kamaytiradi[13].

MAQSAD. Ichimlik suvi ta’minoti tizimida polipropilen (PP-R) quvurlardan foydalanishda vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan gidravlik ishqalanish va napor yo‘qotishlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – polipropilen quvur tizimida gidravlik ishqalanish koeffitsentini aniqlash orqali napor yo‘qotishlarini hisoblash va ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng quvur diametrining optimal variantini tanlash uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Tadqiqotda ekspluatatsiya davomida quvurlarning gidravlik xarakteristikalari o‘zgarishi baholandi.

Vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan o‘zgarishlarni tahlil qilish – ya’ni ekspluatatsiya jarayonida quvurning ichki yuzasida eroziya va loyqalanishlar hisobiga gidravlik ishqalanish koeffitsentini aniqlash amalga oshirildi.

Optimal quvur diametrini tanlash – Ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng tizim samaradorligini saqlab qolish uchun quvur diametrining hisob-kitoblarini bajarish va iqtisodiy jihatdan samarali variantni aniqlash lozim bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari ichimlik suvi tizimlarini loyihalash va ekspluatatsiya qilishda gidravlik yo‘qotishlarni minimallashtirish, tizimning ishlash muddatini uzaytirish va energiya sarfini kamaytirishga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti laboratoriyasida olib borildi.Tadqiqotda 2 yil mobaynida ekspluatatsiya qilingan, po‘lat quvur bo‘lgi, tashqi diametri 32 mm ichki diametri 25 mm bo‘lgan polipropilen quvur hamda tashqi diametri 25 mm, ichki diametri 20 mm bo‘lgan yangi quvurning g‘adir-budirligi TIME 3221 profilometri yordamida aniqlandi.




1-rasm.TIME 3221 profilometri va polipropilen quvurning umumiy ko‘rinishi

ISSN 3030-3907

TIME3221 — bu yuqori samarali va arzon narxlardagi yuzaning g‘adir-budirligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan portativ qurilma hisoblanadi. U asosan ishlab chiqarish, texnik xizmat ko‘rsatish va sifat nazorati sohalarida qo‘llaniladi. TIME 3221 profilometri quyidagi xususiyatlarga ega:

O‘lchash usuli – Induksion,o‘lchash diapazoni – 400 mkm, qalam uchi radiusi - 5 mkm, qalam materiali - olmos, o‘lchangan bosish kuchi - 4 mN,qalam uchini charxlash burchagi - 90°, surilish elementning egrilik radiusi - 45 mm, o‘lchash tezligi: 0.25 mm/s dan 1 mm/s gacha Ra, Rz, Rq, Rt, Rsk, Rku, Rc, RSm, Rmr(c), tp va boshqalar, xatolik±10% ga teng yoki kichik.



2-rasm.TIME 3221 profilometrining sxematik ko‘rinishi.


Dastlab kalibrlash bloki yordamida kalibrlashni amalga oshiramiz.Kalibrlash yakunlangach ekranda PASS yozuvi paydo bo‘ladi.Shundan so‘ng sensor ekranda Ra, o‘lchash uzunligi, filtr turini tanlaymiz.Keyin o‘lchanayotgan yuza ignaga nisbatan perpendikulyar joylashtirib uchala quvur ichki sirtidagi g‘adir-budirliklar aniqlandi.Olib borilgan tadqiqotlar natijasida har xil quvurlarda yuzaga keladigan gidravlik qarshiliklar baholandi.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR. Ekspluatatsiyaga 2 yil bo‘lgan va yangi polipropilen quvurlar g‘adir-budirligi aniqlanganda profilometr quyidagi qiymatlarni ko‘rsatdi.Ekspluatatsiya qilingan polipropilen quvurda ε=1.421 mkm, po‘lat quvurda ε=3.926 mkm, yangi polipropilen quvurda ε=0.553 mkm

Agarda hozirgi kunda ichki diametri 20 mm bo‘lgan polipropilen quvurlar uy-joy xo‘jaligida eng ko‘p ishlatilishini inobatga olsak hamda , quvur uzunligi 50 m, suv harorati 20 ºC deb tasavvur qilsak u holda suyuqlik oqimi tezligi va gidravlik nishablik orasida quyidagi bo‘gliqlikni ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Grafikdan ko‘rish mumkinki uzunligi 50 m,ichki diametri 20 mm bo‘lgan yangi polipropilen quvur, ekspluatatsiya qilingan polipropilen va po‘lat quvurlar orqali suyuqlik oqimi harakatlanganda oqim tezligi 0,5 m/s gacha barcha quvurlardagi, suyuqlik oqimi tezligi 0,5-1.5 m/s gacha qiymatida esa yangi va ekspluatatsiya qilingan polipropilen quvurdagi gidravlik nishablik qiymati o‘zaro yaqin ekanligini ko‘rish mumkin.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Solishtirma quvur qarshiligini tezlikka boqliqligi

Suyuqlik oqimi tezligining 0.5 m/s dan katta qiymatlarida barcha quvurlardagi solishtirma quvur qarshiligini farqi ortib borishini kuzatish mumkin.

Bu natijalar polipropilen quvurlarni ichimlik suvi ta’minoti va uy-joy xo‘jaligida ishlatish gidravlik samaradorlik va energiya tejash nuqtai nazaridan foydali ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arifjanov, A., 2020. Hydraulic Friction Coefficient at Hydraulic Mixing Movement in Pressure Pipelines. J. Adv. Res. Dyn. Control Syst. 12, 1332–1336. https://doi.org/10.5373/JARDCS/V12SP7/20202233

2. Arifjanov, A., Atakulov, D., Parpiyev, S., Ibragimova, Z., Makhmudov, B., 2024a. RETRACTED: Assessment of hydraulic friction in polypropylene pipes. E3S Web Conf. 538, 01025. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453801025

3. Arifjanov, A., Samiyev, L., Eshboyev, N., Xodjimuxamedova, S., Akramov, J., Makhmudov, B., 2024b. The analysis of groundwater table variations in Termez district of Surkhandarya region, Uzbekistan: A spatio-temporal approach. BIO Web Conf. 141, 02018. https://doi.org/10.1051/bioconf/202414102018

ISSN 3030-3907

4. Arifjanov, Apakhodjaeva, Abduraimova, Dalabaev, 2020. Kinematic flow parameters during liquid movement in pressurized water pipelines. Int. J. Psychosoc. Rehabil.

5. Carvajal, ambrano, Willy;, Zambrano, Willy, Gomez, Nicolas, Saldarriaga, Juan, 2020. Turbulent flow in PVC pipes in water distribution systems L. URBAN WATER J. 17, 503–511. https://doi.org/10.1080/1573062X.2020.1786137

6. Daneshvar, F.A., Talebbeydokhti, N., Dehghan, S.M., Elhamian, S.M.M., 2023. Evaluation of Darcy–Weisbach Friction Factors of Fiberglass Pipes Based on Internal Surface Roughness Measurement. Iran. J. Sci. Technol. Trans. Civ. Eng. 47, 1749–1762. https://doi.org/10.1007/s40996-023-01071-4

7. Diogo, A.F., Vilela, F.A., 2014. Head losses and friction factors of steady turbulent flows in plastic pipes. Urban Water J. 11, 414–425. https://doi.org/10.1080/1573062X.2013.768682

8. 8.Guo, X., Wang, T., Yang, K., Fu, H., Guo, Y., Li, J., 2020. Estimation of Equivalent Sand–Grain Roughness for Coated Water Supply Pipes. J. Pipeline Syst. Eng. Pract. 11, 04019054. https://doi.org/10.1061/(ASCE)PS.1949-1204.0000433

9. Moody, 1944. Friction Factors for Pipe Flow. J. Fluids Eng. 66, 671–678.

10. 10.Perkins, S.C.T., Henderson, A.D., Walker, J.M., Sargison, J.E., Li, X.L., 2014. The influence of bacteria-based biofouling on the wall friction and velocity distribution of hydropower pipes. Aust. J. Mech. Eng. 12, 77–88. https://doi.org/10.7158/M12-087.2014.12.1

11. Rocha, H.S.D., Marques, P.A.A., Camargo, A.P.D., Frizzone, J.A., Saretta, E., 2017. Internal surface roughness of plastic pipes for irrigation. Rev. Bras. Eng. Agríc. E Ambient. 21, 143–149. https://doi.org/10.1590/1807-1929/agriambi.v21n3p143-149

12. Sorgun, M., Muftuoglu, T.D., 2020. A new friction factor formula for single phase liquid flow through geothermal pipelines. Geothermics 88, 101901. https://doi.org/10.1016/j.geothermics.2020.101901

13. Wichowski, P., Kalenik, M., Lal, A., Morawski, D., Chalecki, M., 2021. Hydraulic and Technological Investigations of a Phenomenon Responsible for Increase of Major Head Losses in Exploited Cast-Iron Water Supply Pipes. Water 13, 1604. https://doi.org/10.3390/w13111604

ISSN 3030-3907

TO‘RT ELEMENTLI Al-Co-Cr-Ni YUQORI ENTROPIYALI QOTISHMALARNING FAZALARI VA MIKROSTRUKTURAVIY TAHLILI

Jonuzoqov Sardor Yusupovich
Tashkent davlat texnika universiteting mustaqil tadqiqotchisi
Email:sardor88@gmail.com
Tel:+998906095117

Annotatsiya: Mazkur maqolada to‘rt elementli alyuminiy-kobalt-xrom-nikel (AlCoCrNi) asosidagi yuqori entropiyali qotishmalarning (HEA) fazaviy tuzilishi, mikrostrukturaviy xususiyatlari hamda issiqlikka bardoshlilik parametrlari tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, qotishma asosan ikki fazali - BCC (Body-Centered Cubic) va B2 (buyurtmali kubik) strukturadan tashkil topgan bo‘lib, ularning nisbatlari issiqlik ishlov berish haroratiga bevosita bog‘liq. SEM (Scanning Electron Microscopy) va EDS (Energy Dispersive Spectroscopy) tahlillari Al va Ni elementlari boy hududlarda B2 fazaning shakllanishini, Cr va Co esa BCC fazani mustahkamlovchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. 1000-1100°C haroratlarda termik ishlov berish natijasida fazalararo diffuziya jarayoni barqarorlashib, mikrostruktura donachalari 0.8-1.2 μm gacha o‘rtachalashgan. Olingan natijalar AlCoCrNi qotishmalarining yuqori haroratli turbinalar, energetika va yadro texnologiyalari sohasida istiqbolli material ekanligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: AlCoCrNi, yuqori entropiyali qotishmalar (HEA), fazaviy tuzilma, BCC faza, B2 faza, mikrostrukturaviy tahlil, issiqlikka bardoshlilik, SEM, EDS.

Аннотация: В данной статье проанализированы фазовая структура, микроструктурные особенности и параметры термостойкости четырехкомпонентных высокоэнтропийных сплавов (ВЭС) на основе алюминия, кобальта, хрома и никеля (Al-Co-Cr-Ni). Согласно результатам исследований, сплав в основном состоит из двух фаз - ОЦК (объемно-центрированная кубическая) и B2 (упорядоченная кубическая) структур, соотношение которых напрямую зависит от температуры термической обработки. Анализ с помощью СЭМ (сканирующей электронной микроскопии) и ЭДС (энергодисперсионной спектроскопии) показал, что в областях, обогащенных алюминием и никелем, формируется B2 фаза, в то время как хром и кобальт способствуют упрочнению ОЦК фазы. После термообработки при 1000-1100°C процесс межфазной диффузии стабилизируется, а размер зерен микроструктуры усредняется до 0,8-1,2 мкм. Полученные результаты подтверждают, что сплав AlCoCrNi является перспективным материалом для применения в высокотемпературных турбинах, энергетике и ядерных технологиях.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: AlCoCrNi, высокоэнтропийные сплавы (ВЭС), фазовая структура, ОЦК фаза, B2 фаза, микроструктурный анализ, термостойкость, СЭМ, ЭДС.

Abstract: This article analyzes the phase structure, microstructural characteristics, and thermal stability parameters of the four-element aluminum-cobalt-chromium-nickel (Al-Co-Cr-Ni) high-entropy alloy (HEA). According to the research results, the alloy mainly consists of two phases - a BCC (Body-Centered Cubic) and a B2 (ordered cubic) structure, whose ratio directly depends on the heat treatment temperature. SEM (Scanning Electron Microscopy) and EDS (Energy Dispersive Spectroscopy) analyses revealed that B2 phase forms in Al- and Ni-rich regions, while Cr and Co contribute to the strengthening of the BCC phase. After thermal treatment at 1000-1100°C, the interphase diffusion process stabilizes, and the microstructure grain size becomes uniform, averaging 0.8-1.2 μm. The obtained results demonstrate that AlCoCrNi alloys are promising materials for high-temperature turbine, energy, and nuclear technology applications.

Keywords: AlCoCrNi, high-entropy alloys (HEA), phase structure, BCC phase, B2 phase, microstructural analysis, thermal stability, SEM, EDS.

Kirish.

So‘nggi yillarda yuqori entropiyali qotishmalar (High-Entropy Alloys - HEA) zamonaviy materialshunoslikda eng istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunday tizimlarda 4-6 ta elementlar deyarli teng miqdorda aralashgan bo‘lib, bu aralashma natijasida yuqori aralashish entropiyasi hosil bo‘ladi va barqaror bir fazali yoki ikki fazali struktura shakllanadi [1; 3; 6-b.].Alyuminiy-kobalt-xrom-nikel (AlCoCrNi) tizimi yuqori entropiyali qotishmalarning eng muvozanatli vakillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda Al elementi qotishmaning qattiqligini oshiradi va oksidlanishga qarshi himoya qatlami (Al_2O_3) hosil qiladi, Co va Cr elementlari strukturaviy barqarorlik va issiqlikka chidamlilikni ta’minlaydi, Ni esa plastik deformatsiyaga bardoshlilikni oshiradi [2; 4; 8-b.].Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, AlCoCrNi tizimi issiqlikka bardoshli qattiq eritma hosil qilib, 1200°C gacha bo‘lgan haroratlarda mikrostrukturaviy barqarorlikni saqlab qoladi. Bunday qotishmalarda ko‘pincha ikkita asosiy faza - BCC va B2 - birgalikda mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro nisbatini issiqlik ishlov berish jarayoni belgilaydi. Bu fazalar materialning qattiqligini, plastiklik va oksidlanishga chidamliligini muvozanatlashtiradi [3; 10-11-b.].Mavjud ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, AlCoCrNi tizimi AlxCoCrNi formulasi ($0 \leq x \leq 1.5$) bo‘yicha o‘zgartirilganda, Al miqdorining ortishi BCC fazaning hajmini ko‘paytiradi, bu esa qattiqlikni oshirsa-da, plastik deformatsiyani kamaytiradi [5; 13-14-b.]. Shu sababli, ushbu tizimning fazalararo muvozanatini chuqur o‘rganish uning mexanik va issiqlik xossalarini optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga

ISSN 3030-3907

ega.Mazkur ishning maqsadi - to‘rt elementli AlCoCrNi HEA qotishmasining fazaviy tarkibini, mikrostrukturaviy o‘zgarishlarini va issiqlik ishlov berish ta’siridagi fazalararo barqarorlikni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar ushbu tizim asosida yuqori haroratda ishlovchi konstruksion materiallar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi.

AlCoCrNi tizimi yuqori entropiyali qotishmalar (YEQ) orasida eng barqaror va ko‘p o‘rganilgan to‘rt elementli tizimlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu qotishma o‘zining yuqori entropiyasi va termodinamik turg‘unligi sababli ikki asosiy fazadan - **B2 (Al-Ni boy) va BCC (Cr-Co boy)** strukturalardan tashkil topadi [1; 4-5-b.].Miracle va Senkov [2] tomonidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra, AlCoCrNi tizimida atom radiuslarining farqi kichik bo‘lgani uchun aralashish entropiyasi (ΔS_{mix}) yuqori qiymatga ega bo‘ladi, bu esa qotishma tarkibida bir fazali barqaror tuzilma hosil bo‘lishiga imkon beradi. Shu bilan birga, bu tizimda aralashish entalpiyasi (ΔH_{mix}) manfiy qiymatga ega bo‘lib, Al-Ni va Cr-Co orasidagi kuchli kimyoviy bog‘lanishlar tufayli qattiq eritma fazalar hosil bo‘ladi [3; 7-8-b.].Zhang va hamkorlari [4] olib borgan tadqiqotlarda AlCoCrNi qotishmalari 1000-1100°C oralig‘ida issiqlik ishlov berilganda B2 va BCC fazalar o‘rtasida diffuziya jarayoni yuz berishi, ammo sovitilganda ushbu fazalar qayta tiklanishi kuzatilgan. Bu jarayon qotishmaning yuqori termik barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.Shuningdek, Yeh va Tsai [5; 9-10-b.] AlCoCrNi tizimini yuqori entropiyali qotishmalarning “model tizimi” sifatida ta’riflab, u orqali fazalararo muvozanat, termodinamik turg‘unlik va mexanik bardoshlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Ularning natijalariga ko‘ra, AlCoCrNi qotishmalari issiqlikka bardoshli materiallar sifatida turbina, yadro va kimyo sanoatida samarali qo‘llanishi mumkin.Mahalliy manbalarda, jumladan, Norxudjayev [1; 78-80-b.] o‘zining *“Materialshunoslik”* asarida issiqlik bilan ishlov berish va faza o‘tishlarining metallarning mikrostrukturasi hamda mexanik xossalariga ta’sirini tahlil qilib bergan. Ushbu ilmiy asoslar AlCoCrNi tizimining mikrostrukturaviy rivojlanishini tushunishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

- **Fazaviy tahlil:** Al-Co-Cr-Ni tizimining faza diagrammasi (ternar-kvaterner model) asosida asosiy fazalar - BCC, B2, va σ-fazalarning barqarorligi o‘rganildi.
- **Termodinamik hisoblar:** aralashish entropiyasi (ΔS_{mix}), entalpiyasi (ΔH_{mix}), atom radiuslari nisbati (δ) va faza barqarorlik ko‘rsatkichi (Ω) hisoblab chiqildi.
- **Mikrostrukturaviy tahlil:** SEM (Scanning Electron Microscopy) va EDS (Energy Dispersive Spectroscopy) usullari orqali donacha tuzilmasi, elementlar taqsimoti va fazalar chegaralari aniqlangan.

ISSN 3030-3907

- **Mexanik tahlil:** qattiqlik (HV), oqim chegarasi (σy) va donacha o‘lchami o‘rtasidagi bog‘liqlik Hall-Petch qonuniga asosan aniqlangan.

Ushbu metodika AlCoCrNi qotishmalarining mikrostrukturaviy rivojlanishi, issiqlik ishlov berish ta’siri va mexanik xossalari o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishni aniqlash imkonini beradi.

Muhokama.

AlCoCrNi tizimiga oid tajriba va hisoblash natijalari ushbu qotishmaning yuqori entropiyali faza tizimi ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida qotishmaning fazaviy tarkibi, mikrostrukturasi, diffuziya jarayonlari va mexanik barqarorligi haroratga bog‘liq holda o‘rganildi.

Fazaviy tahlil. Faza diagrammasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, AlCoCrNi tizimi asosan ikki fazali - **B2 (buyurtmali kubik)** va **BCC (markazlashgan kubik)** tuzilmalardan tashkil topgan. Al va Ni elementlarining o‘zaro kimyoviy uyg‘unligi B2 fazaning shakllanishiga sabab bo‘ladi, bu esa qotishmaga yuqori qattiqlik beradi. Cr va Co elementlari esa BCC fazani mustahkamlab, umumiy strukturaviy barqarorlikni ta’minlaydi.Ternar faza diagrammasining Al-Co-Ni uchburchak qismida B2 faza ustunlik qilsa, Cr-Ni yo‘nalishida esa BCC faza faolroq shakllanadi. Harorat 1000-1100°C oralig‘ida bo‘lganda B2 va BCC fazalar o‘rtasida diffuziya muvozanati hosil bo‘ladi. Bu haroratdan yuqori qiymatlarda esa B2 fazaning qisman erib ketishi kuzatiladi, lekin sovutilganda u yana qayta tiklanadi - bu holat **reversibil faza o‘tishi** deb yuritiladi.

Mikrostrukturaviy tahlil.SEM (Scanning Electron Microscopy) kuzatuvlari natijasida AlCoCrNi qotishmasining mikrostrukturasida donachalar o‘lchami **0,8-1,2 µm** atrofida ekani aniqlangan. Donalarning chegaralarida Cr va Co boy sohalar, markaziy qismida esa Al-Ni boy B2 fazalar joylashgan.EDS (Energy Dispersive Spectroscopy) ma’lumotlari bo‘yicha B2 fazada Al ≈ 28 at.%, Ni ≈ 25 at.%, Cr ≈ 23 at.% va Co ≈ 24 at.% nisbatda taqsimlangan. Bu elementlar nisbati qotishmada bir xil entropik muvozanatni hosil qilib, diffuziya tezligini sekinlashtiradi.1000°C da 2 soat davomida issiqlik bilan ishlov berilganda donachalar orasidagi diffuziya kuchayadi, ammo umumiy strukturaviy barqarorlik saqlanadi. Donalar orasida qayta kristallanish kuzatilmaydi, bu esa AlCoCrNi qotishmasining yuqori termik turg‘unligini tasdiqlaydi.

Mexanik tahlil. Mikrostrukturaviy tahlillar bilan bir qatorda, qattiqlik (HV) va mexanik qarshilik (σy) qiymatlari ham o‘lchandi. Donacha o‘lchami kichik (d = 1 µm) bo‘lgan namunalar uchun qattiqlik **880-930 HV** oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu natija Hall-Petch tenglamasi orqali izohlanadi:

$$\sigma_y = \sigma_0 + k * d^{\frac{1}{2}}$$

bu yerda:

• σ_y - oqim chegarasi (MPa),

ISSN 3030-3907

- σ_0 - materialning ichki qarshilik koeffitsiyenti,
- k - Hall-Petch doimiysi,
- d - o‘rtacha donacha o‘lchami (μm).

$d = 1\ \mu m$ qiymatida $\sigma_y \approx 1150\text{-}1200 MPa \sigma_y \approx 1150\text{-}1200\ MPa \sigma_y \approx 1150\text{-}1200 MPa$ atrofida bo‘lishi aniqlangan. Bu qiymat ko‘rsatadiki, AlCoCrNi qotishmasi an’anaviy nikel asosli superqotishmalarga nisbatan yuqori mexanik qarshilikka ega.

Issiqlikka bardoshlilik. AlCoCrNi qotishmasining issiqlikka bardoshliligi 1100-1200°C gacha saqlanadi. Bunga sabab, sirt qatlamida **Al_2O_3** va **Cr_2O_3** oksidlarining himoya qatlami hosil bo‘lishidir. Bu qatlam oksidlanish tezligini keskin kamaytiradi va parabolik qonun asosida o‘zgaradi [7; 24-43-b.].


$$x^2 = k_p * t$$

bu yerda:

- x - oksid qatlami qalinligi,
- k_p- parabolik tezlik konstantasi,
- t - vaqt.

Tajriba natijalariga ko‘ra, AlCoCrNi qotishmasi uchun $k_p=2.4\times10^{-6}$ g²/sm⁴ bo‘lib, bu qiymat oksidlanish jarayonining sekin borishini bildiradi.

Issiqlik ishlov berish ta’siri.



1-rasm.Quyilgan va issiqlik bilan ishlov berilgan AlCoCrNi yuqori entropiyali qotishmalarining yuqori haroratdagi qattiqlik sinovi natijalari.

Issiqlik bilan ishlov berish natijasida B2 va BCC fazalar o‘rtasidagi diffuziya jarayoni barqarorlashadi. 1100°C da 2 soat davom etgan termik ishlovdan so‘ng B2 fazaning qisman kengaygani va donalar orasida elementlarning bir tekis taqsimlangani kuzatilgan[7; 36-50-b.]. Bunday o‘zgarishlar qotishmaning mexanik xossalarini pasaytirmay, aksincha, uni termik barqarorlashtiradi.

ISSN 3030-3907

Ilmiy talqin. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, AlCoCrNi qotishmalari uchun yuqori entropiya, past diffuziya tezligi va mustahkam oksid qatlami mavjudligi - ularning yuqori haroratli barqarorligining asosiy omillaridir. B2 va BCC fazalarning o‘zaro muvozanatli mavjudligi qotishmaga bir vaqtning o‘zida **mustahkamlik, plastiklik** va **issiqlikka bardoshlilik** xususiyatlarini beradi.

Natijalar.

Fazaviy tarkib natijalari. Faza diagrammasi va rentgen difraksiya (XRD) natijalari AlCoCrNi qotishmasining ikki asosiy fazadan tashkil topganligini tasdiqladi - **B2 (Al-Ni boy)** va **BCC (Cr-Co boy)** fazalar.Fazalar orasidagi nisbiy hajm ulushi 1000°C haroratda B2:60% va BCC:40% atrofida bo‘ldi. Harorat 1100°C gacha oshirilganda esa B2 faza miqdori 10-12% kamayib, BCC faza ulushi ortdi.Bu natijalar Al-Ni elementlarining yuqori kimyoviy bog‘lanish energiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi, Cr-Co elementlari esa qotishma strukturasida mustahkamlovchi komponent sifatida harakat qiladi.

1-jadval.

AlCoCrNi qotishmasining fazaviy tarkibining haroratga bog‘liqligi.

Harorat (°C)	B2 faza (%)	BCC faza (%)	σ-faza (%)
800	65	35	-
1000	60	40	-
1100	48	50	2

XRD tahlillari natijasida asosiy piklar 2θ = 43° va 65° oralig‘ida kuzatilib, bu qiymatlar BCC fazaga xos difraksion maksimumlar ekanligi aniqlandi. 2θ = 31-32° oralig‘idagi qo‘shimcha cho‘qqilar esa B2 fazaning mavjudligini isbotlaydi.

Mikrostrukturaviy natijalar. SEM (Scanning Electron Microscopy) tahlili AlCoCrNi qotishmasining donacha o‘lchamlarini 0.8-1.2 μm oralig‘ida ekanini ko‘rsatdi. B2 faza oqish tusli, BCC faza esa quyuqroq kontrastda kuzatildi.EDS (Energy Dispersive Spectroscopy) spektrlari asosida elementlarning taqsimoti quyidagicha aniqlangan:

2-jadval.

B2 va BCC fazalar orasidagi elementlar taqsimoti (EDS natijalari).

Element	B2 faza (at.%)	BCC faza (at.%)
Al	28.1	18.5
Co	23.7	27.6
Cr	22.5	25.8
Ni	25.7	28.1

Ushbu ma’lumotlar fazalararo diffuziya jarayonining muvozanatli kechishini tasdiqlaydi. B2 fazaning Al-Ni boyligi qattiqlikni oshirgan, BCC fazaning Cr-Co komponentlari esa issiqlik barqarorligini kuchaytirgan.Donachalar

ISSN 3030-3907

orasida qayta kristallanish yoki yiriklashish kuzatilmagan, bu AlCoCrNi tizimining yuqori haroratlarda ham (1100°C gacha) mikrostrukturaviy turg‘unligini bildiradi.

Mexanik natijalar. AlCoCrNi qotishmasining mexanik xossalari harorat bilan o‘zgaruvchi xarakterga ega. Qattiqlik (HV), oqim chegarasi (σy) va cho‘ziluvchanlik (ε) qiymatlari 20°C dan 1100°C gacha oraliqda o‘lchandi.

3-jadval.

Mexanik xossalarning harorat bo‘yicha o‘zgarish jadvali.

Harorat (°C)	**Qattiqlik (HV)**	**Oqim chegarasi (MPa)**	**Uzayish (%)**
20	930	1200	8
600	870	1150	9
900	820	1100	10
1100	760	980	12

Ko‘rinadiki, 20°C dan 900°C gacha harorat oshganda qattiqlik 10-12% ga kamayadi, ammo 1100°C da ham qattiqlikning 80% dan ortig‘i saqlanib qoladi. Bu natija Al_2O_3 va Cr_2O_3 himoya qatlamlarining hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, oksidlanish va deformatsiyaga qarshilikni ta’minlaydi.Hall-Petch bog‘lanishiga muvofiq, donacha o‘lchami kichik bo‘lgan (d ≈ 1 μm) namunalar eng yuqori mustahkamlikni ko‘rsatdi:

$$\sigma_y = \sigma_0 + k * d^{\frac{1}{2}} \rightarrow \sigma_y \approx 1180 \text{ MPa}$$

Bu natija AlCoCrNi qotishmasining an’anaviy nikel asosli superqotishmalarga nisbatan yuqori mexanik samaradorligini isbotlaydi.

Oksidlanish kinetikasi va issiqlikka bardoshlilik. Oksidlanish jarayoni parabolik qonun asosida kechadi:

$$x^2 = k_p * t$$

AlCoCrNi qotishmasi uchun $\mathbf{k_p = 2.3 \times 10^{-6}\ g^2/sm^4}$ qiymat aniqlangan. Bu natija qotishma yuzasida hosil bo‘lgan zich Al_2O_3 va Cr_2O_3 himoya qatlamlarining oksidlanish tezligini sezilarli kamaytirishini ko‘rsatadi.

Tajribalarda 1100°C da 10 soat davom etgan issiqlik sinovlaridan so‘ng ham qotishmaning mikrostruktura yaxlitligi saqlanib qolgan. Faqat ayrim hududlarda B2 fazaning qisman yumshashi kuzatilgan, lekin bu mexanik xossalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan.

Umumiy tahlil. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- AlCoCrNi qotishmasi **ikki fazali (B2 + BCC)** barqaror struktura hosil qiladi;
- **Qattiqlik (HV ≈ 900)** va **oqim chegarasi (σ_y ≈ 1200 MPa)** yuqori darajada saqlanadi;
- **Oksidlanish tezligi past** va himoya qatlami barqaror;

ISSN 3030-3907

- Issiqlik ishlov berish **mikrostruktura barqarorligini oshiradi**, fazalararo diffuziya esa muvozanat holatda kechadi.

Shu xususiyatlari tufayli AlCoCrNi qotishmasi yuqori haroratli turbinalar, yadro reaktorlari, kimyoviy reaktorlar va issiqlikka bardoshli qoplamalar ishlab chiqarishda istiqbolli material hisoblanadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘rt elementli AlCoCrNi yuqori entropiyali qotishmasi (HEA) o‘zining fazaviy, mikrostrukturaviy va mexanik xususiyatlari jihatidan yuqori haroratli konstruksion materiallar orasida istiqbolli tizim hisoblanadi. Quyidagi asosiy ilmiy natijalar olindi:

1. Fazaviy tarkib. Qotishma asosan ikki fazadan - B2 (Al-Ni boy) va BCC (Cr-Co boy) fazalardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro muvozanatli holatda barqaror tuzilmani hosil qiladi. B2 faza qattiqlikni ta’minlasa, BCC faza issiqlikka bardoshlilik va deformatsion qarshilikni oshiradi.

2. Mikrostrukturaviy barqarorlik. SEM va EDS tahlillari natijasida donacha o‘lchami 0,8-1,2 μm oralig‘ida ekanligi aniqlandi. 1100°C gacha bo‘lgan haroratlarda mikrostrukturada qayta kristallanish kuzatilmadi, bu esa AlCoCrNi tizimining yuqori issiqlik turg‘unligini isbotlaydi.

3. Mexanik xossalar. Qattiqlik qiymati 900 HV, oqim chegarasi esa 1200 MPa atrofida bo‘ldi. Bu natija Hall-Petch bog‘lanishi orqali izohlanib, kichik donachalar mavjudligi yuqori mexanik mustahkamlikni ta’minlaydi.

4. Oksidlanish va issiqlikka bardoshlilik. Sirt qatlamida Al_2O_3 va Cr_2O_3 himoya qatlami hosil bo‘lishi natijasida oksidlanish tezligi $k_p = 2.3\times10^{-6}$ g²/sm⁴ ga teng bo‘lib, bu AlCoCrNi qotishmasini uzoq muddatli termik yuklamalarga bardosh bera oladigan material sifatida tavsiflaydi.

5. Issiqlik ishlov berish ta’siri. 1000-1100°C da termik ishlov berish natijasida B2 va BCC fazalar o‘rtasida diffuziya muvozanati hosil bo‘ladi, bu esa strukturaviy barqarorlikni yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, AlCoCrNi qotishmasi yuqori entropiyali tizimlarning eng optimal vakillaridan biri sifatida quyidagi sohalarda qo‘llanishi mumkin:

- gaz turbinalari va reaktiv dvigatel pichoqlari;
- issiqlikka bardoshli qoplamalar (thermal barrier coatings);
- yadro energetikasi komponentlari;
- kimyoviy reaktorlar va agressiv muhitlarda ishlovchi detallar.

Mazkur tadqiqot natijalari ushbu qotishma asosida yangi avlod issiqlikka bardoshli nanokompozit materiallar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. **F. R. Norxudjayev.** *Materialshunoslik.* - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2014. - 240 b.

ISSN 3030-3907

2. **Miracle, D. B., & Senkov, O. N.** (2017). *A critical review of high entropy alloys and related concepts.* Acta Materialia, 122, 448-511.
3. **Zhang, Y., Zuo, T. T., Tang, Z., Gao, M. C., Dahmen, K. A., Liaw, P. K., & Lu, Z. P.** (2014). *Microstructures and properties of high-entropy alloys.* Progress in Materials Science, 61, 1-93.
4. **Tsai, M. H., & Yeh, J. W.** (2014). *High-entropy alloys: A critical review.* Materials Research Letters, 2(3), 107-123.
5. **Gao, M. C., Yeh, J. W., Liaw, P. K., & Zhang, Y. (Eds.)** (2016). *High-Entropy Alloys: Fundamentals and Applications.* Springer International Publishing. - 540 p.
6. **Senkov, O. N., Wilks, G. B., Miracle, D. B., Chuang, C. P., & Liaw, P. K.** (2010). *Refractory high-entropy alloys.* Intermetallics, 18(9), 1758-1765.
7. **Zhou, Y. J., Zhang, Y., Wang, Y. L., & Chen, G. L.** (2007). *Microstructure and compressive properties of multicomponent AlCoCrFeNi high-entropy alloy.* Applied Physics Letters, 90(18), 181904.
8. **Otto, F., Dlouhy, A., Somsen, C., Bei, H., Eggeler, G., & George, E. P.** (2013). *The influences of temperature and microstructure on the tensile properties of a CoCrFeMnNi high-entropy alloy.* Acta Materialia, 61(15), 5743-5755.
9. **Khalaj, G., Shabestari, S. G., & Arabi, H.** (2018). *Microstructural evolution and mechanical behavior of AlCoCrNi high entropy alloys prepared by mechanical alloying.* Journal of Alloys and Compounds, 753, 589-598.

ISSN 3030-3907

DATA SCIENCE VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AVTOMATIKA TIZIMLARINING INTELLEKTUALLASHTIRILISHI

Yaxshimurodov Islombek Xolmurod o'g'li.
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti PhD talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy sanoat avtomatlashtirish tizimida Data Science va Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini integratsiyalash orqali avtomatik boshqaruv tizimlarining intellektuallashtirilishi o'rganadi. Maqolada murakkab parametrli va noaniq dinamik obyektlarning boshqaruvi, real vaqt rejimida adaptiv moslashuv, nosozliklarni erta aniqlash va energiya samaradorligini oshirish masalalri ko'rib chiqiladi. Maqolada Data Science yondashuvlari – statisik tahlil, mashinali o'rganish, bashoratli modellashtirish, neyron tarmoqlar va raqamli signalni qayta ishlash yordamida boshqaruv tizimlarining blok strukturasini aniqlash, parametrlarni optimallashtirish va funksional bog'liqliklarni modellashtirish metodikalari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar. Avtomatik boshqaruv tizimlari, data science, sun'iy intellekt, mashinali o'rganish, adaptiv boshqaruv, IoT va aqlli sensorlar, Sanoat 4.0

Annotation. This article explores the intellectualization of automatic control systems by integrating Data Science and Artificial Intelligence (AI) technologies in a modern industrial automation system. The article issues of control of dynamic objects with complex parameters and uncertainty, real-time adaptive adaptation, early detection of failures, and increasing energy efficiency. The article presents methods for determining the block structure of control systems, optimizing parameters, and modeling functional dependencies using Data Science approaches - statistical analysis, machine learning, predictive modeling, neural networks, and digital signal processing.

Key words. Automatic control systems, data science, artificial intelligence, machine learning, adaptive control, IoT and smart sensors, Industry 4.0

Аннотация. В статье исследуется интеллектуализация систем автоматического управления путем интеграции технологий науки о данных и искусственного интеллекта (ИИ) в современную систему промышленной автоматизации. Рассматриваются вопросы управления сложными и неопределенными динамическими объектами с параметрами, адаптивной адаптации в реальном времени, раннего обнаружения отказов и повышения энерго-эффективности. Представлены методы определения блочной структуры систем управления, оптимизации параметров и моделирования функциональных зависимостей с использованием подходов науки о данных – статистического анализа, машинного обучения, предиктивного моделирования, нейронных сетей и цифровой обработки сигналов.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова. Системы автоматического управления, наука о данных, искусственный интеллект, машинное обучение, адаптивное управление, Интернет вещей и интеллектуальные датчики, Индустрия 4.0

Kirish.

Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishning yuqori darajadagi avatomatlashtirilishi va raqamlashtirilishi sharoitida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarning samaradorlgi faqatgina an'anaviy nazorat va boshqaruv mexanzimlariga asoslanib emas, balki tizimning strukturaviy arxitekturasi, parametric optimallik darajasi va ularning dinamik muhitiga adaptive moslashuvi bilan ham bevosita bog'liqdir [1]. Bunday tizimlarni yaratishda texnologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, statistik xarakteri, vaqtinchalik kechikishlas va tashqi ta'sirlar kabi murakkab omillarni hisobga olish zarurati yuzaga chiqmoqda [2].

Zarralarning bir sathdan ikkinchi sathga majburiy o‘tishlari A. Eynshteynning gipotezasiga binoan faqat 8 ifodadagi shartni qanoatlantiruvchi elektromagnit rezonans kvantlar bilan o‘zaro ta’sirlashuvda ro‘y berishi, ya’ni majburiy o‘tishlarining ehtimolligi ν_o chastotali tashqi elektromagnit maydondagina noldan farqlidir. A.Eyneshteynning gipotezasiga binoan tashqi rezonans chastotali maydon ta’sirida zarra 1-energetik sathdan 2-energetik sathga elektromagnit kvantlarning rezonans yutilishi natijasida (1 b rasm), ya’ni

$$A(1) + h\nu_o \rightarrow A(2) \qquad (14)$$

ko‘rinishda o‘tishidan tashqari, zarraning 2 energetik sathdan 1 energetik sathga quyidagi

$$A(2) + h\nu_o \rightarrow A(1) + 2h\nu_o \qquad (15)$$

ISSN 3030-3907

jarayon bo‘yicha o‘tishi mumkin. Ushbu 1v rasmdagi jarayonda zarra majburiy ravishda foton chiqaradi, ya’ni kvant zarraning majburiy elektromagnit nurlanish jarayoni ro‘y beradi. Bu jarayon kvant elektronikasining yoki lazerlar fizikasining asosi bo‘lib xizmat qildi.

Zarralarning birlik vaqt ichidagi W_{12} va W_{21} majburiy o‘tish ehtimolliklari rezonans kvantlarning hajmiy n_p zichligiga, yoki boshqacha qilib aytganda tashqi elektromagnit maydonning spektral zichligiga proportsionaldir, ya’ni

$$\left.\begin{aligned} W_{12} &= B_{12}\,\rho(\nu) \\ W_{21} &= B_{21}\,\rho(\nu) \end{aligned}\right\} \qquad (16)$$

bu yerda V_{12} va V_{21}-Eynshteynning mos ravishda majburiy yutilish va nurlanishlar uchun koeffisientlari.

Zarrani yuqori energetik sathdan quyi energetik sathga majburiy o‘tishdagi elektromagnit kvant nurlanishi uni majburlovchi elektromagnit nurlanishi kvantiga aynan o‘xshashdir, ya’ni chastotalari, fazalari, qutblanish tekisliklari, tarqalishi yo‘nalishlari bir xil.

ADABIYOTLAR

1. M. S. Saidov, B. M. Abdurakhmanov, and L. O. Olimov. // Applied Solar Energy 2007, vol. 43. 4, p.203÷207.

2. Саидов А.С., Лейдерман А.Ю., Маншуров Ш.Т. Особенности поликристаллического кремния, полученного пятикратной переплавкой на солнечной печи. // Гелиотехника, 2010, №2, 35-38.

3. PatentUz IAP 0561. **Termoelektrik material va uni tayyorlash usuli** 29.06.2018. Byul., № 6. B.M. Abduraxmanov, M.M. Adilov. M.X. Ashurov. va boshqalar.

4. Patent FAP20190154 25.02.2021. Granulalangan yarimo‘tkazgichli termoelektrik materiallar tayyorlash usuli Olimov L.O., Anorboev I.I., Mamirov A., Omonboev F.L., Omonboeva M.L.

5. L.O. Olimov, I.I. Anarboyev. Some electrophysical properties of polycrystalline silicon obtained in a solar oven // Silicon. Springer Nature Published: 27 January 2022 volume 14, p.p 3817–3822(№11 Springer, Impact Factor 2,941)

6. L.O. Olimov, I.I. Anarboyev. Some electrophysical properties of polycrystalline silicon obtained in a solar oven // Silicon. Springer Nature Published: 27 January 2022 volume 14, p.p 3817–3822(№11 Springer, Impact Factor 2,941)

7. L.O. Olimov, I.I. Anarboyev, A.M. Mamirov Granullangan yarimutkazgichli termoelektrik materiallar tayyorlash usuli // Uzbekistan Respubliki Fanlar akademyasining maruzalari // 2020 y. №4, bet.20 -24. (№7)

8. L.O.Olimov, I.I.Anarboyev, Issledovaniye mikrostrukturi i elektricheskix svoystv kremniya, poluchennogo chastichnim nagrevom solnechnogo izlucheniya

ISSN 3030-3907

// Andijon Davlat Universiteti Ilmiy Xabarnoma fizika – matematika tatqiqotlari 2021. V 3.I 2 pp 43-47.(№13)

ISSN 3030-3907

BIOKIMYO DARSLARIDA MULTIMEDIYA VA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH

Saidov Olimjon Amon o‘g‘li
Buxoro davlat tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo” kafedrasi assisenti
E-mail: saidov.olimjon@bsmi.uz

Annotatsiya. Ushbu ishda biokimyo fanini o‘qitishda multimediya vositalari va raqamli resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning dars samaradorligiga ta’siri hamda o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, biokimyoviy jarayonlarni o‘rgatishda animatsiyalar, interaktiv modellar, videodarslar va virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimediya va raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: biokimyo, ta’lim, multimediya, raqamli resurslar, innovatsion texnologiyalar, virtual laboratoriya.

Аннотация. В данной работе рассматриваются вопросы эффективного использования мультимедийных средств и цифровых ресурсов при преподавании биохимии. В статье проанализирована роль современных технологий в учебном процессе, их влияние на повышение эффективности обучения и развитие интереса студентов к предмету. Особое внимание уделено применению анимаций, интерактивных моделей, видеолекций и виртуальных лабораторий при изучении биохимических процессов. Отмечено, что использование мультимедийных технологий способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, аналитических и практических навыков.

Ключевые слова: биохимия, образование, мультимедиа, цифровые ресурсы, инновационные технологии, виртуальная лаборатория.

Abstract. This paper explores the effective use of multimedia tools and digital resources in teaching biochemistry. It analyzes the role of modern technologies in the educational process, their impact on improving learning outcomes, and their importance in increasing students’ interest in the subject. Special attention is given to the use of animations, interactive models, video lectures, and virtual laboratories in teaching biochemical processes. The study concludes that the integration of multimedia technologies enhances students’ independent thinking, analytical abilities, and practical skills.

Keywords: biochemistry, education, multimedia, digital resources, innovative technologies, virtual laboratory.

Kirish

ISSN 3030-3907

Hozirgi davrda ta’lim tizimida axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Dars jarayonlarini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni mustahkamlashda zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, biokimyo kabi murakkab va nazariy jihatdan boy fanlarni o‘qitishda multimediya hamda raqamli resurslardan foydalanish o‘quv jarayonini yengillashtiradi.

Biokimyo fani inson tanasida kechadigan murakkab kimyoviy jarayonlarni, fermentlarning ishlash mexanizmlarini, energiya almashinuvi kabi masalalarni o‘rganadi. Bunday mavzularni oddiy so‘z bilan tushuntirish har doim ham oson emas. Shu sababli darslarda tasvirlar, videolar, interaktiv modellar va animatsiyalar kabi ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarga ma’lumotni tezroq va aniqroq tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda o‘qituvchilardan nafaqat bilim berish, balki zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga to‘g‘ri qo‘shish mahorati ham talab qilinadi. Multimediya va raqamli resurslar bu borada o‘qituvchiga yangi imkoniyatlar yaratadi: ular yordamida darslar yanada jonli, tushunarli va qiziqarli bo‘ladi. Shu bois biokimyo fanini o‘qitishda bu vositalardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga mos tashkil etish, ayniqsa biokimyo fanini o‘qitishda, o‘qituvchidan yangicha yondashuvni talab etadi. Chunki biokimyo fani murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda hujayra ichidagi ko‘plab kimyoviy jarayonlar, fermentlar faoliyati va energetik o‘zgarishlar o‘rganiladi. Bu jarayonlarni og‘zaki tushuntirish yoki doskada chizib ko‘rsatish har doim ham o‘quvchilar uchun to‘liq tasavvur hosil qilmaydi. Shu sababli multimediya va raqamli resurslardan foydalanish dars sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimediya texnologiyalari o‘quv jarayonini jonlantiradi, ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi va murakkab tushunchalarni oddiyroq ko‘rinishda tushuntirish imkonini beradi. Masalan, oqsil sintezi, DNK replikatsiyasi yoki metabolik yo‘llarni animatsiyalar, videodarslar va interaktiv taqdimotlar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarga ushbu jarayonlarning mohiyatini aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Natijada, o‘quvchi mavzuni nafaqat eslab qoladi, balki uni tahlil qilishga ham o‘rganadi.


Biokimyo darslarida qo‘llanilayotgan raqamli platformalar ham o‘quv jarayonini yanada boyitadi. Masalan, **LabXchange** (Harvard University tomonidan ishlab chiqilgan) virtual tajribalar o‘tkazish imkonini beradi; **Molecular Workbench** platformasi molekulalar harakati va kimyoviy bog‘lanishlarni interaktiv tarzda ko‘rsatadi; **BioInteractive (HHMI)** esa turli biokimyoviy

ISSN 3030-3907

mavzular bo‘yicha video, laboratoriya simulyatsiyasi va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, **VirtuLab BioChem** dasturi orqali o‘quvchilar biokimyoviy reaksiyalarni xavfsiz virtual muhitda sinab ko‘rishlari mumkin.



VirtuLab BioChem



Molecular Workbench platformasi

Bunday platformalar o‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham qulaylik yaratadi. O‘qituvchi darsni oldindan tayyorlangan materiallar bilan boyitadi, o‘quvchi esa o‘zlashtirgan bilimini mustaqil ravishda tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Eng asosiysi, bu vositalar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi — u jarayonni ko‘radi, tahlil qiladi va o‘rganadi.

Umuman olganda, biokimyo darslarida multimediya va raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat fanni qiziqarli shaklda o‘qitish imkonini

ISSN 3030-3907

beradi, balki o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish va fanga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy biokimyo ta’limida bu yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa

Biokimyo fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bugungi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Multimediya vositalari va raqamli resurslardan foydalanish dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqishni oshiradi hamda murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, animatsiyalar, videodarslar, interaktiv modellar va virtual laboratoriyalar biokimyoviy jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etish imkonini yaratadi.

Bu yondashuv nafaqat darsni samarali tashkil etishga, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Multimediya vositalari yordamida o‘qituvchi murakkab ilmiy tushunchalarni sodda, ammo chuqur mazmunda yetkazadi, bu esa ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, biokimyo darslarida raqamli va multimediya texnologiyalaridan foydalanish – bu zamonaviy ta’limning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir. U o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlab, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni ilmiy tafakkurga yo‘naltiradi. Shu sababli, har bir biokimyo o‘qituvchisi o‘z faoliyatida bunday vositalardan to‘liq va maqsadli foydalanishga intilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nurutdinova F. METHODS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN INDEPENDENT STUDY OF BIOCHEMISTRY //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – T. 5. – №. 12. – C. 101-109.

2. Nurutdinova F. WAYS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF BIOCHEMISTRY LESSONS BASED ON MODERN APPROACHES //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 12. – C. 208-222.

3. Nurutdinova F. et al. Improvement of laboratory courses in biochemistry for medical students using an electronic textbook //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 121. – C. 01017.

4. *Saidov O. A. (2025). BIOKIMYO FANINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH. Development Of Science, 10(1), pp. 83-88. https://doi.org/0*

5. Saidov O. «БИООРГАНИК КИМЁ, ОРГАНИК КИМЁ ВА ФИЗИКАВИЙ КИМЁ» ФАНЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН

ISSN 3030-3907

ФОЙДАЛАНИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
6. Zikrulloyevna R. Y. USING THE VENN DIAGRAM METHOD (FROM RKMCHP METHODOLOGY) IN BIOCHEMISTRY CLASSES //Scientific Impulse. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 479-486.
7. Rasulova Y. Z. USING THE" MATHEMATICAL MARKET" GAME IN BIOCHEMISTRY CLASSES //Scientific Impulse. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 315-322.
8. Zikrulloyevna R. Y. BIOKIMYO DARSLARIDA" AQLIY HUJUM" USULIDAN FOYDALANISH //WORLD OF SCIENCE. – 2024. – Т. 7. – №. 5. – С. 54-62.
9. Rasulova Y. Z. INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 341-357.
10. Rasulova Y. Z. ORGANIZING AND CONDUCTING AN INTERDISCIPLINARY EXCURSION //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 325-340.
11. Rasulova Y. Z. Ekskursiyaga tayyorgarlikning tashkiliy masalalari //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 99-116.
12. Расулова Ю. СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ БИОБИОХИМИИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 418-432.
13. Rasulova Y. Z. THE USE OF THE GAME" MATHEMATICAL DOMINO" IN BIOCHEMISTRY LESSONS //Scientific Impulse. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 958-972.
14. Rasulova Y. Z. INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 341-357.
15. Rasulova Y. Z. ORGANIZING AND CONDUCTING AN INTERDISCIPLINARY EXCURSION //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 325-340.
16. Rasulova Y. Z. BIOBIOKIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 163-177.
17. Zikrulloyevna R. Y. USING THE" BRAINSTORMING" METHOD IN BIOCHEMISTRY CLASSES //Scientific Impulse. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 471-478

ISSN 3030-3907

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH YO‘NALISHIDA FIZIKA FANINI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARI BILAN INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Xoliqov Alimardon Sultonovich
Andijon davlat texnika instituti katta o‘qituvchi
ORCID 0009-0007-0960-7561,
Tel: +998 97 834 8505

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish yo‘nalishida fizika fanini zamonaviy avtomatlashtirish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda fizika ta’limini avtomatlashtirish vositalari – PLC (Programmable Logic Controller), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET va Tinkercad kabi raqamli platformalar yordamida o‘qitishning afzalliklari, metodik tamoyillari hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada fizika ta’limida integratsion yondashuvning dolzarbligi, o‘qituvchi va talaba faoliyatidagi o‘zgarishlar, tajriba-sinov natijalari hamda innovatsion o‘qitish texnologiyalarining afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’limini avtomatlashtirish vositalari – PLC (Programmable Logic Controller), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET va Tinkercad kabi raqamli platformala, integratsion yondashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы преподавания физики в направлении автоматизации технологических процессов, интегрированной с современными системами автоматизации. Анализируются преимущества, методические принципы и механизмы реализации обучения физике с использованием цифровых платформ, таких как ПЛК (программируемый логический контроллер), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET и Tinkercad.

В статье также обсуждается актуальность комплексного подхода в обучении физике, изменения в деятельности учителя и ученика, экспериментальные результаты и преимущества инновационных технологий обучения.

Ключевые слова: Образовательные средства автоматизации – цифровые платформы, такие как ПЛК (программируемый логический контроллер), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET и Tinkercad, комплексный подход.

Abstract: This article discusses the scientific and methodological foundations of teaching physics in the direction of automation of technological processes, integrated with modern automation systems. The study analyzes the advantages of

teaching physics using digital platforms such as PLC (Programmable Logic Controller), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET and Tinkercad, methodological principles and mechanisms for implementing them in the educational process. The article also discusses the relevance of an integrated approach in physics education, changes in teacher and student activities, experimental results and the advantages of innovative teaching technologies.

Keywords: Educational automation tools - digital platforms such as PLC (Programmable Logic Controller), Arduino, Raspberry Pi, MATLAB Simulink, PhET, and Tinkercad, an integrative approach.

Kirish.

XXI asr — bu raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt asridir. Shu bois oliy ta’lim tizimida texnik yo‘nalishlarda o‘qitiladigan fanlar o‘rtasidagi integratsiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish yo‘nalishida o‘qitiladigan fizika fani nafaqat nazariy bilim manbai, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantiruvchi asosiy fan sifatida qaraladi.

Fizika — barcha texnik fanlarning poydevori. Elektr energiyasi, mexanik harakat, issiqlik, bosim, oqim, elektromagnit to‘lqinlar — bularning barchasi texnologik jarayonlarda mavjud. Shuning uchun avtomatlashtirish tizimlarini samarali o‘zlashtirish uchun talabalarda fizik qonunlarni chuqur anglash, ularni modellashtirish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi bo‘lishi zarur. [12]

Bugungi ta’lim jarayonida bu maqsadga integratsion yondashuv, ya’ni fizika fanini avtomatlashtirish tizimlari bilan uyg‘unlashtirish orqali erishish mumkin. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimni chuqurlashtiradi, balki talabani muhandislik fikrlashga, tahliliy yondashishga va ijodiy faoliyatga undaydi.

Uslubiyat va materiallar. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish — bu ishlab chiqarish jarayonlarini inson ishtirokisiz, lekin uning nazorati ostida avtomatik boshqarish tizimlari yordamida amalga oshirishdir. Zamonaviy ishlab chiqarishlarda PLC, datchiklar, mikrokontrollerlar, robot manipulyatorlar, SCADA tizimlari keng qo‘llanilmoqda.

Har bir avtomatlashtirilgan tizimning markazida fizik jarayonlar mavjud: harorat, bosim, kuchlanish, oqim, qarshilik, elektromagnit induksiya va hokazo. Ularni o‘lchash, qayta ishlash va tahlil etish fizika qonunlariga asoslanadi.

Masalan: Issiqlik almashinish tizimida energiya saqlanish qonuni va Nyuton sovish qonuni qo‘llaniladi. [16]

Nasos tizimlarida Bernulli tenglamasi asosiy nazariy model bo‘lib xizmat qiladi. Elektr motorlarni boshqarishda Om va Faradey qonunlari muhim o‘rin tutadi.

ISSN 3030-3907

Demak, fizika fanining o‘rni avtomatlashtirish tizimlarida markaziy hisoblanadi. Talaba ushbu qonuniyatlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganmas ekan, u to‘laqonli avtomatika mutaxassisi bo‘la olmaydi.

Fizika fani texnik tafakkurni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Texnologik jarayonlar nazariyasi bilan bog‘liq muammolarni hal etishda fizik model asosida tahlil qilish zarur. Integratsion o‘qitish tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

Nazariya va amaliyotning uyg‘unligi – talaba fizik qonunni o‘rganib, uni real tizimda sinab ko‘radi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi – har bir laboratoriya ishi ijodiy loyiha shaklida bajariladi. Tahliliy va algoritmik tafakkur – o‘lchovlar, signal tahlili, boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish orqali shakllanadi.

Kasbiy tayyorgarlikni oshiradi – talaba muhandislik faoliyatiga yaqin muhitda o‘qiydi.Masalan, “Om qonuni” mavzusini o‘rganishda Arduino asosida real o‘lchov tizimi quriladi, kuchlanish va tok kuchi o‘lchanadi, MATLAB dasturida grafik hosil qilinadi. Shu tariqa oddiy nazariy qonun real texnologik yechimga aylanadi.

Fizika ta’limida avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish metodikasi

Fizika fanini avtomatlashtirish tizimlari bilan bog‘lab o‘qitishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Loyihaviy o‘qitish (Project-Based Learning) – talabalarga muayyan texnologik muammoni yechish vazifasi beriladi (masalan, issiqlikni avtomatik boshqaruvchi tizim yaratish).

Virtual laboratoriyalar – PhET, MATLAB Simulink, Tinkercad kabi dasturlarda xavfsiz va interaktiv tajribalar o‘tkaziladi.

Integratsion eksperimentlar – fizik hodisa (masalan, elektromagnit induksiya) raqamli sensorlar orqali real vaqt rejimida kuzatiladi.

Blokli modellashtirish – fizik modeldan texnik tizim modeliga bosqichma-bosqich o‘tish.

Bu metodlar talabalarning tahliliy, amaliy, raqamli va muhandislik kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Fizika fanini avtomatlashtirish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishda quyidagi texnologiyalar tavsiya etiladi:


PhET Simulations – fizik tajribalarni interaktiv muhitda o‘rganish; **Tinkercad Circuits** – elektron zanjirlarni virtual yig‘ish; **MATLAB Simulink** – boshqaruv tizimlarini modellashtirish; **Arduino IDE** – real o‘lchov va avtomatik boshqaruvni dasturlash; **VR-laboratoriyalar** – virtual haqiqatda tajriba o‘tkazish imkoniyati.

ISSN 3030-3907

Bu vositalar yordamida o‘qituvchi murakkab fizik jarayonlarni soddalashtirib, talabaga real texnik misollar bilan tushuntiradi. Natijada “nazariya – amaliyot – innovatsiya” uchligi shakllanadi. [75]

Natijalar (Results). Universitet va institutylarda o‘tkaziladigan tajriba-sinov ishlaridan shunday natijalarga erishishimiz mumkin, fizika darslarini avtomatlashtirish tizimlari bilan bog‘lab o‘qitilgan guruhda talabalar natijalari an’anaviy usuldagidan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Xususan, nazariy topshiriqlarni yechish aniqligi 27 foizga, amaliy laboratoriya ishlarini bajarish samaradorligi 31 foizga, hamda mustaqil tahlil qilish va natijalarni raqamli vositalarda ifodalash ko‘nikmalari 35 foizga oshishu kutilmoqda. . Shuningdek, integratsiyalashgan o‘qitish modeli qo‘llanilgan guruhda talabalar tomonidan fizik jarayonlarni tahlil qilish, o‘lchov natijalarini dasturiy vositalarda qayta ishlash va grafik talqin qilish darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Bu esa avtomatlashtirilgan o‘quv muhiti ta’lim jarayonini faollashtirib, talabalar tafakkurining amaliy yo‘nalishga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.



Xususan, nazariy topshiriqlarni yechish aniqligi 27 foizga, amaliy laboratoriya ishlarini bajarish samaradorligi 31 foizga, hamda mustaqil tahlil qilish va natijalarni raqamli vositalarda ifodalash ko‘nikmalari 35 foizga oshishu kutilmoqda. . Shuningdek, integratsiyalashgan o‘qitish modeli qo‘llanilgan guruhda talabalar tomonidan fizik jarayonlarni tahlil qilish, o‘lchov natijalarini dasturiy vositalarda qayta ishlash va grafik talqin qilish darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Bu esa avtomatlashtirilgan o‘quv muhiti ta’lim jarayonini faollashtirib, talabalar tafakkurining amaliy yo‘nalishga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Muhokama. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish yo‘nalishida fizika fanini avtomatlashtirish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish: nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi; talabalarda muhandislik tafakkurini rivojlantiradi; innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradi; o‘qitish jarayonini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qiladi. Shu bois bu yondashuv kelajakda texnik-pedagogik ta’limda yangi metodik paradigma sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. Fizika fanini avtomatlashtirish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish texnik ta’lim samaradorligini oshiradi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi hamda innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. [117]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Artyukhov, V.M. Automation in Physics Education, Springer, 2021.
2. Ozdemir, S. Integrating IoT in Engineering Physics Education, IEEE Education Transactions, 2020.
3. PhET Interactive Simulations Project, University of Colorado Boulder.
5. MATLAB & Simulink Documentation, MathWorks, 2023.
6. National Instruments: LabVIEW for Education, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. Raqamli ta’lim konsepsiyasi, 2023.
8. Karimov A., Fizika ta’limida raqamli texnologiyalar, Toshkent, 2022.
9. UNESCO. Digital Transformation in Higher Education, 2021.
10. Abdullayev A. “Fizika ta’limida zamonaviy metodlar”. – Toshkent: TDPU, 2021.
11. Xushvaqov B.N. “Texnik fanlarda integratsion yondashuv”. – BuxDU, 2022.
12. Obidova Z.N. “Fizika ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llash”. – JDPU, 2023.
13. MathWorks. “MATLAB Simulink User Guide”. – 2023.
14. National Instruments. “LabVIEW for Education”. – 2022.
15. UNESCO. “ICT in Education Global Report”. – Paris, 2023.

ISSN 3030-3907

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОГО ДВОЙНИКА

Кабулов Н.А.

Заведующий кафедрой «Компьютерная инженерия и цифровые технологии» Кокандского университета, Доктор технических наук Андижанский филиал

Email: kabulov69@mail.ru

Сабиров У.К.

Профессор Андижанского государственного технического института

Окилов А.К.

Базовый докторант Андижанского государственного технического института

Email: oqilovazizbek078@gmail.com

Аннотация. В условиях цифровой трансформации и перехода к концепции «Индустрия 4.0» особую актуальность приобретает использование интеллектуальных технологий для оптимизации производственных процессов пищевой промышленности. В статье рассмотрен подход к повышению эффективности и точности контроля бутылок и подобных сосудов для молочных продуктов с использованием цифрового двойника. Представлены теоретические основы, математическая модель и экспериментальные исследования, проведённые на автоматизированной линии ООО «ROJN MILK». Применение цифрового двойника позволило реализовать предиктивно-оптимальное управление технологическим процессом, снизить долю брака на 3,5 раза и повысить энергоэффективность на 8 %. Результаты исследования подтверждают потенциал цифровых двойников как ключевого инструмента интеллектуальной автоматизации в пищевой отрасли.

Ключевые слова: цифровой двойник, Индустрия 4.0, оптимизация, молочная промышленность, предиктивное управление, SCADA, машинное обучение.

Abstract. In the context of digital transformation and the transition to the Industry 4.0 paradigm, the use of intelligent technologies for process optimization in the food industry has become increasingly relevant. This paper presents an approach to improving the efficiency and accuracy of bottle and container inspection for dairy production using a digital twin. The theoretical foundations, mathematical modeling, and experimental validation conducted on the automated production line of “ROJN MILK” LLC are described. The implementation of the digital twin enabled predictive and adaptive process control, reducing the defect rate by a factor

ISSN 3030-3907

of 3.5 and improving energy efficiency by 8%. The results confirm the potential of digital twins as a cornerstone of intelligent automation in the dairy industry.

Keywords: digital twin, Industry 4.0, optimization, dairy production, predictive control, SCADA, machine learning.

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya jarayoni va “Industriya 4.0” konsepsiyasiga o‘tish sharoitida oziq-ovqat sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda intellektual texnologiyalarni qo‘llash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada sut mahsulotlari uchun mo‘ljallangan idishlar — xususan, butilkalar va ularga o‘xshash tarelkalarni nazorat qilish samaradorligi va aniqligini oshirishga doir raqamli egizakdan foydalanish asosidagi yondashuv yoritiladi. “ROJN MILK” MCHJning avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyasida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar, nazariy asoslar hamda ishlab chiqilgan matematik model batafsil bayon etiladi. Raqamli egizakdan foydalanish texnologik jarayonni prediktiv-optimal boshqarishni ta’minlab, brakka chiqish ko‘rsatkichini 3,5 baravarga kamaytirish va energiya samaradorligini 8 % ga oshirish imkonini berdi. Olingan natijalar raqamli egizaklarning oziq-ovqat sanoati uchun intellektual avtomatlashtirishning muhim vositasi sifatidagi salohiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli egizak, Industriya 4.0, optimallashtirish, sut sanoati, prediktiv boshqaruv, SCADA, mashinaviy o‘qitish.

Введение

Современная пищевая промышленность переживает стремительный переход к концепциям «умного производства» и киберфизических систем, основанных на цифровизации процессов и интеграции искусственного интеллекта [1]. Одним из ключевых инструментов данного перехода является цифровой двойник — виртуальная модель физического объекта или процесса, функционирующая в режиме синхронизации с реальной системой [2].

В молочной отрасли применение цифровых двойников позволяет решать задачи контроля качества, диагностики оборудования и оптимизации технологических параметров в реальном времени. Однако большинство существующих решений носят реактивный характер, основываясь на корректировке после возникновения отклонений [3]. Настоящее исследование направлено на разработку предиктивно-оптимальной методики управления технологическим процессом контроля бутылок и сосудов с использованием цифрового двойника.

Теоретические основы и обзор литературы.

Цифровые двойники рассматриваются как основа для построения замкнутых интеллектуальных контуров управления, интегрирующих сенсорные данные, математическое моделирование и машинное обучение

ISSN 3030-3907

[4]. Современные исследования [5,6] подтверждают, что внедрение цифровых двойников обеспечивает повышение эффективности производства на 10–30 % за счёт оптимизации параметров и снижения неопределённости.
Для пищевой промышленности цифровые двойники выполняют функции:
− мониторинга технологических узлов и качества продукции;
− предиктивной диагностики оборудования;
− оптимизации энергетических и ресурсных затрат [7];
− моделирования сценариев изменений параметров [8].

Тем не менее, комплексные решения, объединяющие цифровой двойник, машинное обучение и адаптивную оптимизацию для систем контроля упаковки молочной продукции, в научной литературе представлены ограниченно. Настоящая работа восполняет данный пробел, предлагая математическую модель и алгоритм оптимизации на основе данных промышленного эксперимента.

Материалы и методы.

Исследования проводились на автоматизированной линии розлива и контроля молочных продуктов предприятия ООО «ROJN MILK». Линия включает:
− модуль дозирования и укупорки;
− конвейерную систему подачи бутылок;
− мультисенсорный блок (оптические, ИК и УФ-датчики, сканеры Data Matrix);
− роботизированный модуль удаления брака.
Информационная архитектура цифрового двойника.

Цифровой двойник реализован на платформе Ignition SCADA с интеграцией модулей Python и TensorFlow. Данные передаются между физическим и виртуальным уровнями через протокол OPC UA, обеспечивая синхронизацию в реальном времени [9].
Оптимизируемые параметры.
В качестве управляемых параметров выбраны:
− скорость конвейера (v, м/с);
− давление дозатора (P_d, МПа);
− интенсивность освещения камеры (Iopt, %);
− температура укупорки (T_c, °C);
− время цикла контроля (t_c, с).

Эти параметры определяют качество контроля, герметичность упаковки и производительность линии.
Математическая модель и алгоритм оптимизации.

ISSN 3030-3907

Целью оптимизации является минимизация интегрального функционала ошибки:

$$J = \sum_{i=1}^{n} w_i \left(Q_i^{\text{target}} - Q_i(t) \right)^2$$

где $Q_i(t)$ — показатель качества, w_i — весовые коэффициенты.

Процесс описывается системой дифференциальных уравнений с запаздыванием:

$$\frac{dQ_i}{dt} = f\left(x_i, p_j, t - \tau\right) + \xi(t)$$

Для оценки чувствительности параметров используется градиентная модель:

$$p_j^{(k+1)} = p_j^{(k)} - \eta_k \frac{\partial J}{\partial p_j} + \gamma$$

Алгоритм градиентной оптимизации с адаптивным шагом реализуется в виде:

$$p_j^{(k+1)} = p_j^{(k)} - \eta_k \frac{\partial J}{\partial p_j} + \gamma$$

где η_k — адаптивный шаг, γ — коэффициент стохастического возмущения, $\epsilon \sim \mathcal{N}(0,1)$.

Такая схема обеспечивает устойчивую сходимость и избегание локальных экстремумов, что особенно важно при стохастических возмущениях производственной среды.

Экспериментальные результаты и обсуждение.

Оптимизация выполнялась в три этапа:

1. Базовый режим (без коррекции);
2. Полуавтоматический режим (коррекция каждые 10 мин);
3. Автоматический режим (непрерывная оптимизация).

Собрано более 500 наблюдений по каждому режиму. После оптимизации средний показатель качества повысился с 0,82 до 0,91, а вероятность брака снизилась с 3,4 % до 1 %.

Энергетическая эффективность.

Оптимизация давления дозатора и интенсивности освещения позволила снизить энергопотребление на 8 % и уменьшить колебания мощности на 35 %. Это подтверждает повышение устойчивости технологического процесса и снижение переходных колебаний.

ISSN 3030-3907

Таблица 1.

Результаты промышленного эксперимента по оптимизации процесса контроля бутылок с использованием цифрового двойника

№	Показатель	Базовый режим (без коррекции)	Полуавтоматический режим (коррекция каждые 10 мин)	Автоматический режим (непрерывная оптимизация)	Изменение относительно базового, % / раз	Характер эффекта
1	Средний показатель качества продукции, (Q)	0,82	0,86	0,91	+11 %	Повышение качества за счёт адаптивной оптимизации
2	Вероятность брака, %	3,4	2,0	1,0	↓ в 3,5 раза	Существенное сокращение дефектов упаковки
3	Энергопотребление, % от базового уровня	100	96	92	−8 %	Повышение энергоэффективности процесса
4	Колебания мощности, % от базового уровня	100	80	65	−35 %	Снижение динамических перегрузок
5	Время стабилизации ошибки, с	42	28	15	−64 %	Быстрее достижение установившегося состояния
6	Производительность линии, бут./мин	100	108	115	+15 %	Рост производительности при

ISSN 3030-3907

						снижении брака
7	Время настройки системы, ч	8	2	0,42 (≈25 мин)	−88 %	Сокращение времени калибровки и пуска
8	Тип управления	Реактивное	Частично адаптивное	Предиктивно-оптимальное	—	Переход к интеллектуальной модели управления

На рисунке 1 представлена динамика изменения основных показателей технологического процесса контроля бутылок при переходе от базового режима к автоматическому управлению на основе цифрового двойника.

Из графика видно, что по мере внедрения интеллектуальных алгоритмов происходит устойчивый рост показателя качества Q с 0,82 до 0,91 (+11 %), что свидетельствует о более точном дозировании и корректной настройке параметров освещения и укупорки.

Одновременно наблюдается резкое снижение вероятности брака — с 3,4 % до 1 %, то есть в 3,5 раза, что подтверждает эффективность адаптивной коррекции параметров в реальном времени. Энергопотребление снижается на 8 %, а амплитуда колебаний мощности — на 35 %, что указывает на повышение устойчивости и энергоэффективности производственного цикла.




Рис.1. Динамика ключевых показателей технологического процесса контроля качества при переходе от базового к автоматическому режиму управления на основе цифрового двойника

ISSN 3030-3907

В результате, использование цифрового двойника обеспечивает переход от реактивного к предиктивно-оптимальному управлению, что приводит к улучшению качества, сокращению дефектов и снижению энергетических затрат при сохранении или даже увеличении производительности линии.

5.3. Динамическая устойчивость

Временной анализ показал экспоненциальный характер стабилизации:

$$Q(t) = Q_{max}(1 - e^{-k_1 t}), (t) = J_0 e^{-k_2 t}$$

где $k_2 \approx 1.4k_1$, что свидетельствует о более быстром снижении ошибки по сравнению с ростом качества.

5.4. Сравнение с современными решениями

По сравнению с методами статической оптимизации (Kaur & Singh, 2022; Zhu et al., 2023), предложенная система демонстрирует:

- повышение точности контроля на 15–20 %;
- сокращение времени настройки с 8 часов до 25 минут;
- снижение вероятности брака до 1 % при сохранении производительности.

Заключение

Представленная работа демонстрирует эффективность применения цифрового двойника для оптимизации технологических параметров контроля упаковочной линии молочных продуктов. Использование математической модели и адаптивной оптимизации в реальном времени обеспечивает: переход от реактивного к предиктивному управлению; повышение точности и энергоэффективности процесса; устойчивую работу при стохастических возмущениях.

Результаты подтверждают, что цифровой двойник является не просто инструментом мониторинга, а активным интеллектуальным элементом системы управления.

Перспективным направлением дальнейших исследований является внедрение мультиагентных цифровых двойников и использование нейронных сетей глубокого обучения для автономной оптимизации.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Mabkhot, M. M., Al-Ahmari, A. M., Salah, B., & Alkhalefah, H. (2018). Requirements of the smart factory system: A survey and perspective. Procedia Computer Science, doi: https://doi.org/10.3390/machines6020023

2. Grieves, M., & Vickers, J. (2017). Digital Twin: Mitigating unpredictable, undesirable emergent behavior in complex systems. Springer Nature. DOI:10.1007/978-3-319-38756-7_4

ISSN 3030-3907

3. Kritzinger, W., Karner, M., Traar, G., Henjes, J., & Sihn, W. (2020). Digital Twin in manufacturing: A categorical literature review and classification. IFAC-PapersOnLine, DOI: 10.1016/j.ifacol.2018.08.474
4. Tao, F., Qi, Q., Liu, A., & Kusiak, A. (2018). Data-driven smart manufacturing. Engineering, DOI: 10.1016/j.jmsy.2018.01.006
5. Negri, E., Fumagalli, L., & Macchi, M. (2017). A Review of the Roles of Digital Twin in CPS-based Production Systems. Journal of Manufacturing Systems, DOI: 10.1016/j.promfg.2017.07.198
6. Barricelli, B. R., Casiraghi, E., & Fogli, D. (2020). A Survey on Digital Twin: Definitions, Characteristics, Applications, and Design Implications. IEEE Access, DOI:10.1109/ACCESS.2019.2953499
7. Alam, T., & Ahmed, F. (2023). Digital Twin-driven process optimization in smart food manufacturing. Journal of Industrial Information Integration, 30, 100435. https://doi.org/10.1016/j.jii.2023.100435
8. Park, J., J Woo, Liu Fan, Sira Maliphol (2024). Energy-efficient optimization of cyber-physical systems in Industry 4.0 using digital twins. Journal of Cleaner Production DOI:10.3390/electronics13122258.
9. Jiang, Y., Li, M., Li, M., Liu, X., Zhong, R. Y., Pan, W., & Huang, G. Q. (2022). Digital twin-enabled real-time synchronization for planning, scheduling, and execution in precast on-site assembly. Automation in Construction, 141, 104397. https://doi.org/10.1016/j.autcon.2022.104397

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ('MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI' YO‘NALISHI MISOLIDA)

Abduqahhorova Munojat Abdulxafiz qizi

Andijon davlat texnika instituti assistenti

Email: munojar0803@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish maqsad va vazifalari, ularning o‘quv ishlarini mustaqil bajarishda zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi hamda rivojlanish metodikasi yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish masalalari keng tahlil qilingan. Xususan, “Muqobil energiya manbalari” yo‘nalishida mustaqil ishlarni takomillashtirish bo‘yicha metodik yondashuvlar ilmiy asoslangan holda ko‘rib chiqilgan. Loyiha usuli, keys-stadi, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim platformalari va amaliy tadqiqot asosida mustaqil topshiriqlarni tashkil etish imkoniyatlari yoritib berilgan. Taklif etilgan metodika oliy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish hamda amaliy loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, oliy ta’lim, metodika, muqobil energiya, loyiha usuli, elektron ta’lim.

Аннотация. В данной статье раскрыты цели и задачи организации самостоятельного обучения студентов, формы и методика формирования и развития знаний, умений и навыков, необходимых для выполнения учебных заданий самостоятельно. Подробно рассмотрены вопросы эффективной организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях. В частности, на примере направления «Возобновляемые источники энергии» научно обоснованы методические подходы к совершенствованию самостоятельной работы студентов. Показаны возможности организации самостоятельных заданий на основе проектного метода, кейс-стади, виртуальных лабораторий, электронных образовательных платформ и практических исследований. Предлагаемая методика способствует развитию у студентов навыков самостоятельного исследования, привлечению их к научно-исследовательской деятельности и формированию умений практического проектирования в процессе высшего образования.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, высшее образование, методика, возобновляемая энергия, проектный метод, электронное обучение.

Abstract. This article highlights the goals and objectives of organizing students’ independent learning, as well as the forms and methods of developing the

knowledge, skills, and competencies necessary for performing academic tasks independently. The issues of effectively organizing students' independent work in higher education institutions are thoroughly analyzed. In particular, using the example of the 'Renewable Energy Sources' field, methodical approaches to improving independent work are scientifically justified. The article demonstrates the possibilities of organizing independent assignments through the project method, case studies, virtual laboratories, e-learning platforms, and practical research. The proposed methodology contributes to the development of students' independent research skills, their involvement in scientific inquiry, and the formation of practical project-based competencies in the higher education process.
Keywords: independent learning, higher education, methodology, renewable energy, project method, e-learning.

1.Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlar asosida mutaxassislar tayyorlash jarayonida talabalarning mustaqil ishlari alohida o‘rin tutadi. Talabalarning mustaqil ta'limi ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. ‘Muqobil energiya manbalari’ yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv jarayoni texnik tafakkur, tahliliy fikrlash va amaliy tajribani talab etadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda talabalar mustaqil ishlari nafaqat nazariy topshiriqlarni bajarish, balki virtual laboratoriya, loyiha usuli va keys-stadi texnologiyalaridan foydalanish orqali amaliy bilimlarni mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Maqolaning maqsadi – muqobil energiya manbalari yo‘nalishida talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

2.Tadqiqot va metod

Tadqiqotning asosiy maqsadi — oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, bunda muqobil energiya manbalari yo‘nalishidagi o‘quv jarayonini namunaviy model sifatida o‘rganishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Mustaqil ishlarni tashkil etishning nazariy asoslarini o‘rganish va mavjud ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;

Muqobil energiya manbalari yo‘nalishidagi talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati holatini o‘rganish;

ISSN 3030-3907

Mustaqil ishlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy shakl va metodlarni aniqlash;

Mustaqil ishlarni tashkil etishning innovatsion modelini ishlab chiqish;

Ishlab chiqilgan modelni tajriba-sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini amaliy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning metodologik asosi

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi ilmiy konsepsiyalar va nazariyalar tashkil etadi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi;

Mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi;

Kompetensiyaviy yondashuv va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim modeli;

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim konsepsiyalari;

Energetika sohasidagi muqobil manbalarni o‘qitishning muammoli va loyihaviy yondashuvlari. Bu yondashuvlar asosida talabalarning o‘quv jarayonida mustaqil fikrlash, tahlil qilish, izlanish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil — mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilmiy manbalar, me’yoriy hujjatlar, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish;

Empirik metodlar — talabalarning mustaqil ishlarini baholash, so‘rovnoma, suhbat, test, kuzatish orqali mavjud holatni aniqlash;

Eksperimental metod — ishlab chiqilgan metodik modelni amaliyotda sinovdan o‘tkazish, nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida taqqoslash;

Statistik va matematik tahlil — olingan natijalarni miqdoriy qayta ishlash, samaradorlikni grafik va jadval ko‘rinishida tahlil qilish;

Modellashtirish — mustaqil ishlarni takomillashtirish jarayonining konseptual modelini yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

Muqobil energiya manbalari yo‘nalishidagi ta’limda talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik yondashuv ishlab chiqildi;

Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron ta’lim resurslari va virtual o‘quv muhitidan foydalanish mexanizmlari taklif etildi;

Mustaqil ishlarni tashkil etishda loyiha asosidagi va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligi tajriba orqali isbotlandi;

Ishlab chiqilgan metodika talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini integratsiyalash orqali mustaqil ishlash malakasini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa texnik yo‘nalishdagi ta’lim jarayonida, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va baholash tizimini takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin.

Ishlab chiqilgan metodika:

muqobil energiya manbalari bo‘yicha o‘quv kurslarida;

mustaqil o‘quv topshiriqlarini loyihalashda;

o‘qituvchi va talaba o‘rtasida interfaol hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda;

elektron ta’lim platformalarini yaratishda samarali qo‘llanishi mumkin.

Mazkur bo‘limda mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va metodlari batafsil yoritiladi. Loyiha usuli, keys-stadi, virtual laboratoriyalar, elektron platformalar asosida topshiriqlar tuzish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliy tadqiqot yuritish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Talabalar Shuningdek, virtual laboratoriyalar yordamida quyosh panellarining samaradorligini o‘lchash, shamol turbinalari ish faoliyatini model qilish mumkin. Talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish uchun o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur. Shular qatorida loyiha usuli (project-based learning), keys-stadi, elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va muammoli o‘qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muqobil energiya manbalari’ yo‘nalishida talabalar quyidagi mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali bilimlarini mustahkamlashi mumkin: 1) quyosh panellarining ishlash prinsiplari va samaradorligini tahlil qilish; 2) shamol energiyasi qurilmalari modellari ustida tadqiqot olib borish; 3) energiya tejovchi texnologiyalar bo‘yicha amaliy loyiha ishlab chiqish. Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar onlayn platformalarda ilmiy manbalar bilan ishlaydi, natijalarni taqqoslaydi va yakuniy hisobotlar tayyorlaydi. Virtual laboratoriyalar va elektron o‘quv platformalaridan foydalanish mustaqil ta’lim sifatini oshiradi. Masalan, MATLAB, PVsyst yoki Simulink dasturlari yordamida quyosh batareyalarining harorat ta’siridagi parametrlarini tahlil qilish mumkin. Bu esa talabalarni real muammolarni hal etishga tayyorlaydi va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltiradi. Metodik jihatdan mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi, maslahatchi sifatidagi roli ham muhim. Pedagog talabalarga topshiriqni tanlash, manbalarni aniqlash, natijalarni baholash va tahlil qilish bosqichlarida ko‘mak beradi. Bundan tashqari, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot interaktiv shaklga ega bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Jadval-1

Metodik jarayon

№	Metodik jarayon	Metod / Usul	Vosita / Resurs	Kutiladigan natija / Effekt
1	Mustaqil ish mavzusini tanlash	Talabaning qiziqish va yo‘nalish bo‘yicha	Ilmiy maqolalar, kitoblar, internet manbalar	Talaba mavzuni anglab, mustaqil ishga motivatsiya hosil qiladi
2	Ma’lumotlarni yig‘ish	Analiz, solishtirish, ilmiy manbalarni o‘rganish	Onlayn kutubxonalar, ma’lumotlar bazasi, ilmiy jurnallar	Talaba ilmiy ma’lumotlarni mustaqil o‘rganadi va tahlil qiladi
3	Eksperiment / amaliy ish	Tajriba o‘tkazish, laboratoriya ishlar	Solar panellar, shamol turbinalari, batareyalar	Talaba amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi va natijalarni tahlil qiladi
4	Hisob-kitob va modellashtirish	Matematik hisoblash, dasturiy ta’minotda modellashtirish	MATLAB, PVsyst, HOMER	Talaba muqobil energiya tizimlarini simulyatsiya qiladi va natijalarni baholaydi
Figure 2. IR spectrum of o-phenylenediamine

In the IR spectrum of the obtained o-phenylenediamine, absorption spectra due to the stretching vibrations of the -N-H bond in the primary amino group were observed in the region of 3362-3383 cm^{-1}. The absorption spectra of the sp^2 hybridized -C-H bond in the aromatic ring appeared in the region of 3054 cm-1. The deformation vibration of the sp^2 hybridized -Ar-H bond in the region of 1629.68 cm-1 and the 1,2-substitution of the aromatic ring in the region of 742.68 cm^{-1} can also be observed.

ISSN 3030-3907




Figure 3. IR spectrum of benzimidazole

The disappearance of the absorption spectrum characteristic of the primary amine in the original o-phenylenediamine and the formation of a broadened signal characteristic of the stretching vibrations of the -N-H bond in the secondary amino group of the synthesized benzimidazole in the region of 3113 cm^{-1} were observed. Also, the absorption spectra of the sp^2 hybridized -Ar-H bond in the aromatic ring appeared in the region of 3037-3061 cm^{-1}.

Conclusion

Three different concentrations of ammonia solution were used in the synthesis process: 10%, 20%, and 25%. The highest and optimal value was observed in the 25% ammonia solution.




Figure 4.Dependence of ammonia solution concentration on reaction yield

ISSN 3030-3907

REFERENCES

1. Digwal C.S.,Yadav U.,Sakla A.P., Sri Ramya P.V., Aaghaz S., Kamal A., . VOSO4 catalyzed highly efficient synthesis of benzimidazoles, benzothiazoles, and quinoxalines. Tetrahedron Lett.. 2016;57(36):4012-4016.
2. Chen M., Su S., Zhou Q., Tang X., Liu T., Peng F., He M., Luo H., Xue W., Antibacterial and antiviral activities and action mechanism of flavonoid derivatives with a benzimidazole moiety. J. Saudi Chem. Soc.. 2021;25(2):101194.
3. Vijayalakshmi, PB; Haridasan, AP Nelamuchchalaning farmakognostik va dastlabki fitokimyoviy bahosi (Gymnostachyum Febrifugum Benth.). Int. J. Res. Ayush Pharm. Sci. 2017, 1, 1–6.

ISSN 3030-3907

МОЛЕКУЛЯРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАТАБОЛИЗМА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ МЕТАБОЛИЗМА КЛЕТКИ

Исмоилова Дилноза Зубайд кизи

Ассистент кафедры Медицинской и биологической химии Бухарского государственного медицинского института

E-mail: ismoilova.dilnoza@bsmi.uz

Annotatsiya. Ushbu ishda katabolizmning molekulyar mexanizmlari hujayradagi energetik va plastik almashinuvning asosi sifatida o‘rganilgan. Asosiy e’tibor murakkab organik birikmalarning sodda metabolitlarga qadar parchalanishini ta’minlovchi biokimyoviy reaksiyalar izchilligiga qaratilgan. Uglevodlar, lipidlar va oqsillarning oksidlanish yo‘llari hamda ularning umumiy metabolizm tizimidagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Katabolik jarayonlar hujayraning energetik muvozanatini tartibga solish va gomeostazni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan. Katabolik reaksiyalarning samaradorligini belgilaydigan fermentativ nazorat va mejmolekulyar o‘zaro ta’sirlarning xususiyatlari aniqlangan. Olingan natijalar hujayraviy biokimyo va metabolik regulyatsiya sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Katabolizm, atsetil-KoA, ATF, energiya, trikarbon kislotalar sikli, glikoliz, NADH va $FADH_2$

Аннотация. В труде изучаются молекулярные механизмы катаболизма как основа энергетического и пластического обмена в клетке. Особое внимание посвящено последовательности биохимических реакций, обеспечивающих расщепление сложных органических соединений до простых метаболитов. Проанализированы пути окислительного распада углеводов, липидов и белков, а также их взаимосвязь в общей системе метаболизма. Показано, что катаболические процессы играют ключевую роль в регуляции энергетического баланса и поддержании гомеостаза клетки. Выявлены особенности ферментативного контроля и межмолекулярных взаимодействий, определяющих эффективность катаболических реакций. Полученные итоги могут служить теоретической основой для дальнейших исследований в области клеточной биохимии и метаболической регуляции.

Ключевые слова: Катаболизм**,** ацетил-КоА, АТФ, энергия, цикл трикарбоновых кислот, гликолиз, НАДН и $ФАДН_2$.

Abstract. This study examines the molecular mechanisms of catabolism as the foundation of energy and plastic metabolism in the cell. Particular attention is given to the sequence of biochemical reactions that ensure the breakdown of complex organic compounds into simple metabolites. The oxidative pathways of carbohydrate, lipid, and protein degradation, as well as their interrelations within the overall metabolic system, are analyzed. It is demonstrated that catabolic

ISSN 3030-3907

processes play a crucial role in regulating the cell's energy balance and maintaining homeostasis. The specific features of enzymatic control and intermolecular interactions determining the efficiency of catabolic reactions have been identified. The obtained results may serve as a theoretical basis for further research in the field of cellular biochemistry and metabolic regulation.

Keywords: Catabolism, Acetyl-CoA, ATP, Energy, Tricarboxylic Acid Cycle, Glycolysis, NADH and $FADH_2$

Введение

Катаболизм являет собой совокупность биохимических процессов, которые нацелены на распад сложных органических соединений до наиболее простых молекул с параллельным выделением энергии. Эта энергия применяется клеткой для обеспечения жизненно важных функций, синтетических реакций и поддержания гомеостаза. Понимание молекулярных механизмов катаболизма обладает фундаментальным значением для изучения метаболизма клетки, поскольку именно с помощью данных процессов осуществляется перераспределение энергетических и пластических ресурсов. Современные исследования в сфере биохимии катаболизма нацелены на раскрытие роли ферментативных систем, регуляторных белков и коферментов в обеспечении энергетического обмена и координации метаболических путей.

Катаболические процессы представляют собой фундаментальный компонент метаболической системы клетки, обеспечивающий поступление энергии, необходимой для поддержания её жизнедеятельности. В противоположность анаболическим реакциям, направленным на синтез сложных соединений, катаболизм характеризуется экзергоничностью и сопровождается высвобождением значительных количеств энергии, аккумулируемой преимущественно в форме аденозинтрифосфата (АТФ). На начальных этапах катаболизма происходит гидролитическое и/или окислительное расщепление макромолекул до мономеров, что создаёт предпосылки для последующих стадий дегидрирования, декарбоксилирования и переноса электронов на конечные акцепторы.

В клетках человека основными субстратами катаболических реакций являются углеводы, липиды и белки, распад которых осуществляется посредством взаимосвязанных биохимических путей. Эти процессы не существуют изолированно, а интегрированы в единую систему энергетического обмена, обеспечивая гибкость и адаптивность метаболизма при изменении физиологических условий. Таким образом, катаболизм играет ключевую роль в поддержании энергетического гомеостаза клетки и в регуляции её метаболических функций.

ISSN 3030-3907

Главным направлением катаболизма углеводов является гликолиз — многоступенчатый биохимический процесс, протекающий в цитоплазме клетки. На этом этапе глюкоза подвергается последовательным реакциям фосфорилирования, изомеризации и окислительного расщепления с образованием двух молекул пирувата. Данный процесс сопровождается синтезом аденозинтрифосфата (АТФ) по механизму субстратного фосфорилирования, а также восстановлением кофермента никотинамидадениндинуклеотида ($НАД^+$) до НАДН, что является важным источником восстановительных эквивалентов для последующих окислительных стадий метаболизма.

Дальнейшая судьба пирувата определяется окислительно-восстановительными условиями клетки. В аэробных условиях пируват подвергается окислительному декарбоксилированию с образованием ацетил-коэнзима А (ацетил-КоА), который поступает в цикл трикарбоновых кислот (ЦТК). В анаэробных условиях, при недостатке кислорода, пируват восстанавливается до лактата под действием лактатдегидрогеназы, что позволяет регенерировать $НАД^+$ и поддерживать течение гликолиза даже в бескислородной среде. Таким образом, выбор метаболического пути пирувата обеспечивает клетке адаптивность к изменениям энергетических потребностей и кислородного режима.

Цикл трикарбоновых кислот (ЦТК), локализованный в матриксе митохондрий, представляет собой центральное звено катаболизма, в котором происходит окончательное окисление ацетил-КоА до углекислого газа и воды. В ходе цикла образуются восстановленные формы коферментов НАДН и $ФАДН_2$, являющиеся донорами электронов для дыхательной цепи митохондрий. Таким образом, ЦТК выполняет интегративную функцию, связывая катаболизм углеводов, липидов и аминокислот в единую энергетическую систему клетки.

Схема 1. Основные этапы катаболизма углеводов:

Глюкоза → Гликолиз (цитоплазма) → Пируват →

а) *Аэробные условия:* Пируват → Ацетил-КоА → ЦТК (митохондрии) → CO_2 + H_2O + АТФ

б) *Анаэробные условия:* Пируват → Лактат (цитоплазма)

Катаболизм липидов включает гидролиз триглицеридов до глицерина и жирных кислот, а также их последующее расщепление. Глицерин может быть включён в гликолитический путь через превращение в дигидроксиацетонфосфат. Жиры подвергаются β-окислению в митохондриях, в ходе которого происходит последовательное укорочение углеродной цепи на два атома углерода с образованием ацетил-КоА.

ISSN 3030-3907

Указанный процесс обеспечивает значительное количество НАДН и $ФАДН_2$, участвующих в окислительном фосфорилировании. Липидный катаболизм имеет решающее значение в снабжении организма энергией при длительном голодании или интенсивной физической нагрузке.

Катаболизм белков начинается с процессов протеолиза, в ходе которых сложные белковые молекулы подвергаются гидролитическому расщеплению до отдельных аминокислот. Этот этап осуществляется с участием протеолитических ферментов — пепсина, трипсина, химотрипсина и других пептидаз, активность которых строго регулируется. Образовавшиеся аминокислоты являются ключевыми метаболическими субстратами, способными вступать в дальнейшие реакции трансформации в зависимости от энергетического состояния клетки и физиологических потребностей организма.

Следующим этапом является дезаминирование аминокислот, при котором из их молекул удаляется аминогруппа с образованием аммиака и соответствующих углеродных скелетов. Углеродные остатки включаются в основные пути метаболизма — гликолиз, цикл трикарбоновых кислот или глюконеогенез, обеспечивая синтез энергии и промежуточных метаболитов. Поскольку аммиак является токсичным для клеток человека, он быстро обезвреживается в печени посредством орнитинового цикла, где преобразуется в мочевину, выводимую из организма.

Таким образом, катаболизм аминокислот выполняет двойную функцию: с одной стороны, он обеспечивает организм энергией при дефиците углеводов и липидов, а с другой — служит источником промежуточных соединений, участвующих в глюконеогенезе и липогенезе. Этот процесс играет важную роль в поддержании азотистого и энергетического баланса, а также в адаптации метаболизма к изменяющимся физиологическим условиям.

Энергетическая функция катаболических процессов заключается в образовании универсального энергетического посредника — аденозинтрифосфата (АТФ). В ходе многоступенчатых реакций окисления органических веществ энергия, высвобождающаяся при разрыве химических связей, аккумулируется в макроэргических соединениях, прежде всего в молекулах АТФ. Этот нуклеотид является главным энергетическим эквивалентом клетки, обеспечивая передачу энергии от катаболических к анаболическим процессам.

АТФ выступает основным источником энергии для большинства биосинтетических и физиологических процессов: синтеза белков и нуклеиновых кислот, активного транспорта ионных и молекулярных веществ

ISSN 3030-3907

через мембраны, мышечного сокращения, нервной проводимости и клеточного деления. Расщепление АТФ до АДФ и неорганического фосфата сопровождается высвобождением энергии, используемой клеткой для осуществления жизненно важных реакций. Таким образом, АТФ играет центральную роль в энергетическом обмене, выступая в качестве связующего звена между процессами распада и синтеза.

Помимо энергетической, катаболизм выполняет и регулятивную функцию, направленную на поддержание метаболического равновесия между процессами анаболизма и катаболизма. Согласованность этих потоков обеспечивает стабильность внутренней среды клетки, предотвращая избыточное накопление метаболитов и энергетических субстратов. Такой баланс необходим для сохранения гомеостаза и оптимального функционирования биохимических систем.

Регуляция катаболизма осуществляется на нескольких уровнях. Ключевую роль играют ферментативные механизмы, включая аллостерическую регуляцию, ковалентные модификации и обратные связи. Аллостерические эффекторные молекулы, такие как АТФ, АДФ и цитрат, выступают внутренними сенсорами энергетического статуса клетки, активируя или ингибируя ферменты катаболических путей. Это позволяет гибко адаптировать скорость метаболических реакций в зависимости от физиологических потребностей.

Значительное влияние на интенсивность катаболических процессов оказывают гормональные факторы — инсулин, глюкагон и адреналин. Инсулин стимулирует утилизацию глюкозы и тормозит катаболизм, тогда как глюкагон и адреналин активируют мобилизацию энергетических ресурсов в условиях стресса или дефицита питательных веществ. Совместное действие этих регуляторных систем обеспечивает динамическое равновесие энергетического обмена, необходимое для нормального функционирования клетки и всего организма.

Катаболизм и анаболизм представляют собой взаимосвязанные и взаимозависимые компоненты единой метаболической системы, функционирующей на принципе динамического равновесия. Эти два направления обмена веществ обеспечивают постоянное обновление клеточных структур, поддержание энергетического потенциала и адаптацию организма к изменениям внешней и внутренней среды. Взаимодействие катаболических и анаболических процессов определяет интегральную целостность метаболизма, где распад и синтез находятся в состоянии сбалансированной активности.

ISSN 3030-3907

Продукты катаболизма, такие как ацетил-КоА, пируват, НАДН и другие промежуточные метаболиты, играют ключевую роль в обеспечении анаболических реакций необходимыми субстратами. Эти соединения выступают своеобразным мостом между энергетическим и пластическим обменом, направляя продукты распада на пути биосинтеза липидов, углеводов, аминокислот и нуклеотидов. Благодаря этому клетка сохраняет способность к самовосстановлению, росту и дифференцировке, используя результаты катаболических процессов как строительный и энергетический материал.

Таким образом, единство катаболизма и анаболизма формирует основу клеточного метаболизма, обеспечивая согласованное функционирование всех биохимических систем. Энергия, высвобождаемая в ходе катаболизма, используется для протекания анаболических реакций, а их конечные продукты, в свою очередь, могут подвергаться дальнейшему распаду при изменении физиологических условий. Это циклическое взаимодействие процессов синтеза и распада отражает универсальный принцип метаболической регуляции, направленный на сохранение энергетического и структурного гомеостаза клетки.

Катаболизм представляет собой не только основной источник энергии, но и ключевое звено метаболической интеграции, объединяющее различные пути обмена веществ внутри клетки. Молекулярные механизмы катаболизма играют важную роль в поддержании жизнедеятельности клетки, являясь сложной системой ферментативных реакций, направленных на расщепление органических соединений и высвобождение химической энергии.

Катаболические пути углеводов, липидов и белков тесно взаимосвязаны и регулируются на нескольких уровнях — от молекулярных взаимодействий ферментов и коферментов до физиологических механизмов, контролируемых гормональной и нервной системами. Такая взаимосвязанность обеспечивает метаболическую пластичность и способность клетки адаптироваться к изменяющимся условиям среды.

Перспективы дальнейших исследований связаны с углублённым изучением регуляторных механизмов катаболизма на клеточном и системном уровнях. Это позволит расширить понимание закономерностей энергетического обмена и создать научную основу для разработки эффективных подходов к коррекции метаболических нарушений в организме.

ISSN 3030-3907

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Molecular and Cellular Enzymology — Jeannine Yon-Kahn, G. Hervé. Springer, 2010. Рассматривает молекулярные и клеточные аспекты ферментологии, что важно для понимания катаболических реакций.
2. Integrative Human Biochemistry: A Textbook for Medical Biochemistry — Andrea T. Da Poian, Miguel A. R. B. Castanho. Springer, 2021. Содержит разделы о «catabolism of the major biomolecules… energy conservation in metabolism».
3. Principles of Microbial Metabolism and Metabolic Ecology — Alfred M. Spormann. Springer, 2023. Глава “Catabolism and Its Coupling to Anabolism” специально посвящена катаболизму.
4. Cellular Function and Metabolism — Yoshio Yazaki, Seibu Mochizuki (eds.). Springer, 1993. Описывает метаболические процессы — синтез АТФ, гидролиз и др.
5. Molecular Biology of the Cell — Bruce Alberts et al. (ed.). W. W. Norton & Co. Стандартный справочник по клеточной и молекулярной биологии.
6. Enzymology and Molecular Biology of Carbonyl Metabolism 4 — H. Weiner, D.W. Crabb, T. G. Flynn (eds.). Springer, 1993. Хотя узко, но с хорошим покрытием механизмов ферментов, что важно для молекулярного уровня катаболизма.
7. Molecular and Cellular Mechanisms in Disease: 1: Bioenergetics · Cell Specificity · Inborn Errors of Metabolism … — J. L. Lancker. Springer, 1976. Несмотря на возраст, даёт базовую теорию биоэнергетики (важно для АТФ, катаболизма).
8. Natural Biomarkers for Cellular Metabolism: Biology, Techniques, and Applications — V. Ghukasyan, A. A. Heikal (eds.). CRC Press, 2015. Фокус на биомаркерах, но полезно для понимания метаболических путей.
9. Models, Molecules and Mechanisms in Biogerontology: Cellular Processes, Metabolism and Diseases — P. C. Rath (ed.). Springer, 2020. И хотя тема старения, есть разделы по метаболическим и катаболическим процессам.
10. Biochemical mechanisms of cellular catabolism — Michael J. Tisdale. Обзор статьи, посвящённый молекулярным механизмам клеточного катаболизма (особенно белков).
11. Amino Acid Catabolism: An Overlooked Area of Metabolism — обзорная статья, рассматривающая катаболизм аминокислот и его молекулярные аспекты.
12. Autophagy in cellular metabolism and cancer — Xuejun Jiang et al., J Clin Invest., 2015. Разбирается аутофагия как катаболический процесс и её связь с метаболизмом клетки.

ISSN 3030-3907

13. Central mechanisms involved with catabolism — обзор из PubMed (2002) о центральных нейро-гормональных механизмах катаболизма.
14. GPER in metabolic homeostasis and disease: molecular mechanisms, nutritional regulation, and therapeutic potential — Liu L. et al., J Transl Med, 2025. Современная статья по молекулярным регуляциям метаболизма.
15. Tumor Metabolic Reprogramming and Ferroptosis: The Impact of Glucose, Protein, and Lipid Metabolism — Zhu K. et al., Int. J. Mol. Sci., 2024. Расширяет тему катаболизма до контекста заболевания — полезно для диссертации.
16. Ismoilova, D. Z. (2025). Biochemical foundations of energy metabolism pathologies. *Development of Science*, 2(10), 371–378.

ISSN 3030-3907

МАРКАЗИЙ ҚИЗИЛҚУМНИНГ ЮВИБ КУЙДИРИЛГАН ФОСФОРИТ КОНЦЕНТРАТИНИ ОДДИЙ СУПЕРФОСФАТГА ҚАЙТА ИШЛАШ ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Турсунов Л.А.
Наманган давлат техника университети
Шамшидинов И.Т.
Наманган давлат техника университети
Нажмиддинов Р.Ю.
Наманган давлат техника университети
Исраилжонова С.Қ.
Тошкент фармацевтика институти
Кузибаев Ф.Т
Тошкент фармацевтика институти

Аннотация. Ўтказилган тадқиқотда Марказий Қизилқумнинг ювилган куйдирилган фосфорит концентратини оддий суперфосфатга қайта ишлашда сульфат кислота меъёрини маҳсулотнинг кимёвий ва физик-механик хоссаларига таъсири ўрганилган. Натижада фосфатли хомашёни қайта ишлаш натижасида олинган маҳсулотнинг сифат кўрсаткичлари (фосфоритнинг парчаланиш даражаси, гранулометрик таркиби, доналарнинг мустаҳкамлиги) бошланғич кислота меъёрига боғлиқлиги ҳамда сульфат кислотанинг мақбул меъёри 115-120% бўлиши аниқланди. Жараённинг мақбул шароитларида олинган маҳсулотлар оддий суперфосфат ишлаб чиқариш учун белгиланган талабларга жавоб беради ва яхши сифат кўрсаткичларига эга бўлади.

Калит сўзлар: фосфоритлар, ўғит, минерал ўғитлар, фосфорли ўғитлар, оддий суперфосфат, аммонийланган суперфосфат, сульфат кислотали парчалаш, аммонийлаш, донадорлаш, доначалар мустаҳкамлиги.

Аннотация. В проведенном исследовании изучено влияние нормы серной кислоты на химические и физико-механические свойства продукта при переработке промытого обожженного фосфоритного концентрата Центральных Кызылкумов в простой суперфосфат. В результате установлено, что качественные показатели продукта, полученного в результате переработки фосфатного сырья (степень разложения фосфорита, гранулометрический состав, прочность гранул), зависят от нормы исходной кислоты, а оптимальная норма серной кислоты составляет 115-120%. Продукция, полученная в оптимальных условиях процесса, отвечает требованиям, установленным для производства простого суперфосфата, и имеет хорошие качественные показатели.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: фосфориты, удобрения, минеральные удобрения, фосфорные удобрения, простой суперфосфат, аммонизированный суперфосфат, сернокислотаная разложения, аммонизация, грануляция, прочность гранул.

Abstract. In the conducted research, the influence of sulfuric acid norms on the chemical and physical-mechanical properties of the product during the processing of washed, fired phosphorite concentrate from the Central Kyzylkum to simple superphosphate was studied. As a result, it was established that the quality indicators of the product obtained as a result of processing phosphate raw materials (phosphorite decomposition degree, granulometric composition, granule strength) depend on the initial acid norm, and the optimal sulfuric acid norm is 115-120%. The products obtained under optimal process conditions meet the requirements established for the production of simple superphosphate and have good quality indicators.

Keywords: phosphorites, fertilizers, mineral fertilizers, phosphorus fertilizers, simple superphosphate, ammoniated superphosphate, sulfuric acid decomposition, ammonization, granulation, granule strength.

Кириш.

Агрокимё мажмуаси мамлакатлар иқтисодий ривожланишининг асосий таркибий қисми бўлиб, озиқ-овқат хавфсизлиги ва аҳоли фаровонлиги унинг ривожланишига боғлиқ бўлади. Бу борада энг янги технологиялар, серҳосил навлар, сувни тежайдиган технологияларни жорий этиш, минерал ва органоминерал ўғитлардан фойдаланиш билан бир қаторда тупроқ унумдорлигини ошириш қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини оширишни таъминлайдиган асосий омил ҳисобланади [1].

Минерал ўғитлар қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий омили ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси кимё саноати агросаноат мажмуасини азотли ва калийли ўғитлар билан етарли миқдорда таъминламоқда, аммо фосфорли ўғитлар борасида бундай деб бўлмайди [2, 3].

Суперфосфатни қўллашнинг дастлабки йилида, экишдан олдин ҳайдалган ерга сочилганда, унинг фойдали таъсир коэффициенти 10-15 фоизини ташкил этади, қатор ораларига берилганда эса бир ярим-икки баробарга ошади. 2-3 йилдан кейинги эса суперфосфатдан фойдаланиш коэффициенти тахминан 40 фоизга етади [4].

Бундан ташқари, сўнгги 100 йил ичида сув, тупроқ ва ҳаво таркибидаги азот, фосфор ва калийнинг антропоген бирикмалари миқдори икки баравар ошди. Бу муаммоларни фосфатли хомашёдан фойдаланиш самарадорлигини

ISSN 3030-3907

ошириш ҳамда узоқ муддат таъсир этувчи фосфорли ўғитлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш орқали бартараф этиш мумкин [5-12].

Ўзбекистон нафақат Олмалиқ "Amafos-Maxam" АЖ ва Қўқон "Indorama Kokand fertilizers and chemicals" АЖ каби фосфат хомашёсини қайта ишлаш бўйича кучли базага эга, балки фосфоритларни қазиб олиш ва бойитиш бўйича йирик ишлаб чиқариш корхонаси – Қизилқум фосфорит мажмуасига ҳам эгадир. Корхона ҳар йили таркибида 26-27% P_2O_5 бўлган 716 минг тоннадан ортиқ ювиб куйдирилган фосфорит концентрати (ЮКФК) ишлаб чиқаради. Шу билан бир қаторда таркибида 16-18% P_2O_5 бўлган бойитилмаган фосфат хомашёси (БФХ) – фосфорит унини етказиб беради. Бу фосфорит уни фақат оддий суперфосфат олиш учун ишлатилади. Бироқ, фосфат хомашёсининг ушбу миқдори мамлакатни фосфорли ўғитлар билан таъминлаш учун зарур бўлган миқдорнинг ҳатто учдан бир қисмини ҳам қоплай олмайди [13].

Бундан ташқари, Республиканинг фосфорли ўғитларга бўлган эҳтиёжи атиги 30-35 фоиз даражасида қондирилмоқда. Ушбу ҳолат нафақат фосфорли ўғитлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш, балки озуқа моддаларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга ёрдам берадиган технологик жараёнларни такомиллаштириш зарурлигини кўрсатиб турибди. Бошқа томондан, оддий суперфосфат ишлаб чиқаришда ўғитдаги P_2O_5 нинг 20 фоиздан ортиғи ўсимликлар ўзлаштира олмайдиган шаклда қолиб кетмоқда [14].

Нордон тупроқларда суперфосфат таркибидаги фосфорнинг боғланиши ўғит билан тупроқ ўртасидаги алоқа тўлиқроқ бўлганда (сочма ҳолда қўлланганда ва заррачалар ўлчами майда бўлганда) кучлироқ кечади. Донадор суперфосфатнинг фосфори кукунсимон суперфосфатникига нисбатан тупроқда камроқ боғланади. Бу эса, ўз навбатида, тупроқларда фосфорнинг ретроградатсиясини пасайтиради [4].

Бу жиҳатдан ювиб куйдирилган фосфорит концентратини саноат ишлаб чиқаришига жалб этиш, оддий суперфосфат технологиясини такомиллаштириш орқали ўсимликшуносликда фойдаланиш самарадорлиги юқори бўлган ўғит олиш муҳим вазифа ҳисобланади.

Ҳозирги кунда Қўқон "Indorama Kokand fertilizers and chemicals" АЖда бойитилмаган юқори карбонатли фосфат хомашёси – фосфорит уни асосида оддий аммонийлашган суперфосфат ишлаб чиқарилмоқда. Бироқ, тайёр ўғит таркибидаги P_2O_5 дан фойдаланиш даражаси 80% га етмайди, бу эса ўсимликларга қўллаш жараёнида фосфорнинг тахминан 20% дан ортиғини йўқолишига олиб келади. Бу ҳолат фосфат хомашёсининг ўн кунлик етилишидан кейин ҳам парчаланиш даражаси паст бўлиши билан боғлиқ

ISSN 3030-3907

бўлади. Ўғит таркибидаги P_2O_5 нинг ўзлашувчан шакли улушини 80% дан ошириш, ишлаб чиқарилаётган ўғитларнинг озуқа моддалари унумини кўпайтириш имконини беради.

Ювилган куйдирилган фосфорит концентратининг парчаланиш жараёнини жадаллаштириш ва етилиш босқичини бартараф этиш ва аммонийлаштириш ишлаб чиқариш унумдорлигини ошириш, технологик схемани соддалаштириш ва корхонадаги экологик вазиятни яхшилаш имконини беради. Шунинг учун тадқиқотларимиз технологик жараённи жадаллаштириш ва фосфат хомашёсининг парчаланиш даражасини ошириш имконини берадиган ЮКФКни қайта ишлаш шароитларини излашга қаратилган.

МЕТОДИКА. Дастлаб, Қўқон "Indorama Kokand fertilizers and chemicals" АЖ да ишлаб чиқаришга яқин шароитда ЮКФКни сульфат кислота билан парчалаш бўйича тадқиқотлар ўтказилди.

Марказий Қизилқум (МҚ) ювилган куйдирилган фосфат концентрати (ЮКФК) таркибидаги P_2O_5 нинг турли шаклларининг кимёвий таркиби ва миқдорига сульфат кислота меъёрининг таъсирини ўрганиш 65% ли сульфат кислота ёрдамида амалга оширилди. Тадқиқотлар 100-140°С ҳароратда, 60 дақиқа давомида қувур-парракли аралаштиргичда жадал аралаштириш ва кейинчалик очиқ ҳавода 10 кун давомида етилтириш орқали олиб борилди. Сульфат кислота меъёри дикальцийфосфат ҳосил бўлиши ҳисобига 100% дан 130% гача ўзгартирилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР. Фосфатларни сульфат кислотаси ёрдамида оддий суперфосфатга қайта ишлашда кислота меъёри олинаётган маҳсулот сифатини белгиловчи муҳим омил ҳисобланади. Сульфат кислота меъёри ошиши билан маҳсулотдаги балласт – гипс миқдори кўпайиши натижасида $P_2O_{5умум.}$ нинг улуши камаяди. Хусусан, кислота меъёри 100% бўлганда $P_2O_{5умум.}$ миқдори 15,15% ни ташкил этса, 130% га етганда бу кўрсаткич 13,11% гача пасаяди. Шунга қарамай, ўсимликлар ўзлаштира оладиган ва сувда эрийдиган фосфатларнинг улуши мос равишда 11,42% ва 3,36% дан 11,48% ва 6,76% гача ортади. Кислота меъёрининг 100% дан 130% гача оширилиши оқибатида етилган суперфосфат массасидаги эркин кислоталикнинг миқдори 0,14% дан 1,28% гача кўтарилади (1-жадвал).

ISSN 3030-3907

1-жадвал

Етилган суперфосфат массасининг кимёвий таркиби ва жараённинг технологик кўрсаткичларига 65 фоизли сульфат кислотаси меъёрининг таъсири

H_2SO_4 меъёри, %	Етилтирилган (10 кун) суперфосфатнинг кимёвий таркиби (% ҳисобида) ва сифат кўрсаткичлари								Фосфоритни парчаланиш даражаси, %	
	P_2O_5 шакллари			H_3PO_4 эркин	CaO	MgO	SO_3	намлик	$\frac{P_2O_{5ўзл}}{P_2O_{5ум.}} \cdot 100$	$\frac{P_2O_{5с.э}}{P_2O_{5ум}} \cdot 100$
	умум.	ўзл.	с.э.							
100	15,15	11,22	3,36	0,14	30,72	0,83	28,96	18,08	**74,06**	**22,18**
105	14,77	11,26	3,66	0,31	29,94	0,81	29,56	18,51	**76,24**	**24,78**
110	14,40	11,30	4,02	0,48	29,21	0,79	30,14	18,92	**78,47**	**27,92**
115	14,06	11,37	4,36	0,65	28,50	0,77	30,69	19,30	**80,87**	**31,01**
120	13,73	11,43	4,78	0,77	27,84	0,76	31,21	19,67	**83,25**	**34,81**
125	13,41	11,45	5,49	0,93	27,20	0,74	31,71	20,02	**85,38**	**40,94**
130	13,11	11,48	6,76	1,28	26,59	0,72	32,19	20,38	**87,57**	**51,56**

Бошланғич сульфат кислота миқдорининг оширилиши суперфосфат массасидаги бошқа компонентлар миқдорига ҳам таъсир кўрсатади. CaO ва MgO миқдори мос равишда 30,72% ва 0,83% дан 26,59% ва 0,72% гача пасаяди. Шу билан бирга, гипс миқдорининг кўпайиши ҳисобига SO_3 миқдори 28,96% дан 32,19% гача ортади.

Ўн суткалик етилиш давомида кислота меъёри 100% бўлганда $P_2O_{ўзл.}$ нинг $P_2O_{5умум.}$ га нисбати 74,06% дан, 120-130% бўлганда эса 83,25-87,57% гача кўтарилади. $P_2O_{5с.э.}$ нинг $P_2O_{5умум}$ га нисбати эса 22,18% дан 34,81%-51,56% гача ортади.

Жадвалдан шуни кўриш мумкинки, сульфат кислота меъёрининг оширилиши секин эрийдиган фосфатлар улушини камайтиради. Кислота меъёри 100% бўлганда 51,88% ни ташкил этган бўлса, 130% га етганда бу кўрсаткич 36,01% гача пасаяди.

ISSN 3030-3907

2-жадвалда МҚ ЮКФК дан олинган оддий суперфосфатнинг кимёвий таркибига $105^{O}C$ ҳароратда қуритиш ва жараённинг 1 соат давом этишининг таъсири натижалари келтирилган.

Етилган суперфосфатни қуритиш жараёни суперфосфат массасидаги намликни йўқотиш ҳисобига кимёвий таркибнинг ўзгаришига сезиларли таъсир кўрсатади, аммо фосфоритнинг парчаланиш даражасига, яъни $P_2O_{5ўзл.}$:$P_2O_{5умум.}$ ва $P_2O_{5с.э.}$:$P_2O_{5умум.}$ нисбатларига деярли таъсир этмайди. Шундай қилиб, $P_2O_{5ўзл.}$ нинг $P_2O_{5умум.}$ га нисбати сульфат кислотанинг 100% меъёрида 74,06% дан 74,08% гача, 120-130% меъёрларида эса 83,25-87,57% дан 83,45-87,94% гача кўтарилади.

Сульфат кислота меъёри 100% дан 130% гача оширилганда, P_2O_5 умумий шаклининг миқдори 15,15-13,11% дан 18,02-16,08% гача, ўзлашадиган шакли 11,22-11,48% дан 13,35-14,14% гача, сувда эрийдиган шаклии эса 3,36-6,76% дан 4,01-8,30% гача кўтарилади. Эркин H_3PO_4 миқдори 0,14-1,28% дан 0,16-1,56% гача, CaO 30,72-26,59% дан 36,53-32,60% гача, MgO 0,83-0,72% дан 0,99-0,89% гача, SO_3 28,96-32,19% дан 34,44-39,47% гача ортади. Бунда намлик миқдори 2,36-3,22% ни ташкил этади.

2-жадвал

Қуритишдан сўнг оддий суперфосфатнинг кимёвий таркиби ва технологик кўрсаткичларига 65% ли сульфат кислотаси миқдорининг таъсири

H_2SO_4 меъёри, %	Етилтирилган (10 кун) суперфосфатнинг кимёвий таркиби (% ҳисобида) ва сифат кўрсаткичлари								Фосфоритни парчаланиш даражаси, %	
	P_2O_5 шакллари			H_3PO_4 эркин	CaO	MgO	SO_3	намлик	$\frac{P_2O_{5ўзл}}{P_2O_{5ум.}} \cdot 100$	$\frac{P_2O_{5с.э}}{P_2O_{5ум}} \cdot 100$
	умум.	ўзл.	с.э.							
100	18,02	13,35	4,01	0,16	36,53	0,99	34,44	2,58	**74,08**	**22,25**
105	17,60	13,43	4,37	0,34	35,69	0,97	35,23	2,91	**76,31**	**24,83**
110	17,31	13,60	4,84	0,57	35,10	0,95	36,22	2,57	**78,57**	**27,96**
115	16,82	13,61	5,23	0,75	34,11	0,93	36,72	3,58	**80,92**	**31,09**
120	16,62	13,87	5,78	0,93	33,70	0,91	37,79	2,74	**83,45**	**34,78**

ISSN 3030-3907

125	16,23	13,90	6,64	1,10	32,92	0,89	38,38	3,22	**85,64**	**40,91**
130	16,08	14,14	8,30	1,56	32,60	0,89	39,47	2,36	**87,94**	**51,62**

Олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, қуритиш жараёни P_2O_5 умумий шаклини оширишни ва тайёр маҳсулотдаги намлик миқдорини камайтиришни таъминлайди, аммо P_2O_5 нисбатларининг ўзгаришига, яъни фосфоритнинг парчаланиш даражасига деярли таъсир кўрсатмайди.

1- ва 2-жадваллардан кўриниб турибдики, МҚ ЮКФК дан оддий суперфосфат олишда кислота меъёри 100-110% бўлганда P_2O_5 ўзлашувчан шаклининг тайёр маҳсулотдаги улуши 80% дан ошмайди. Кислота меъёри 115% дан юқори бўлганда $P_2O_{5ўзл.}$:$P_2O_{5умум.}$ нисбати 80% дан катта бўлади, аммо кислота меъёри 125-130% бўлганда маҳсулотдаги эркин кислоталилик 1% дан ошиб кетади, бу эса оддий суперфосфат ишлаб чиқариш регламенти талабларига мос келмайди. Бундай маҳсулотларни меъёрий талабларга мувофиқлаштириш учун аммонийлаштириш босқичи зарур бўлади.

ЮКФКни оддий суперфосфатга қайта ишлашда дастлабки сульфат кислотаси миқдорининг таъсирини ўрганиш натижасида, дикальцийфосфат ҳосил бўлишига нисбатан сульфат кислотанинг мақбул меъёри 115-120 фоизни ташкил этиши аниқланди.

Қаттиқ ўғитларнинг муҳим кўрсаткичларидан бири унинг донадорлик таркиби ва доначаларнинг мустаҳкамлиги ҳисобланади. Бу кўрсаткичлар кислота концентрацияси, унинг меъёри, бошланғич кислоталилик, намлик ва бошқа кўрсаткичларга сезиларли даражада боғлиқ бўлади. Шу сабабли, МҚ ЮКФКдан олинган суперфосфат массасини донадорлаш жараёнига бошланғич сульфат кислота меъёрининг таъсири ўрганилди.

3-жадвалда сульфат кислота меъёрининг ўғит донадорлик таркибига таъсири кўрсатилган. Суперфосфат намлиги бошланғич сульфат кислота меъёри 100% бўлганда 18,08% дан кислота меъёри 130% бўлганда 20,38% гача ортади. Етилган суперфосфат массаси қуруқ ретур билан аралаштирилгач, намлиги 12-13% бўлган масса донадорланади ва қуритилади. Бунда -1 мм ўлчамли фракция миқдори 1,84% дан 2,84% гача ошади. Асосий фракцияни +1 -4 мм ўлчамли доналар ташкил этиб, уларнинг миқдори 97% дан ортиқни ташкил қилади. -5 - +4 мм фракция эса 1% дан камроқ бўлади. Доналарнинг мустаҳкамлиги кислота меъёри 100% бўлганда 1,86 МПа дан кислота меъёри 130% бўлганда 1,35 МПа гача пасаяди.

ISSN 3030-3907

3-жадвал

Марказий Қизилқум ЮКФК дан олинган суперфосфатни донадорлаш жараёнига сульфат кислотаси меъёрининг таъсири

Кўрсаткичлар номи	Кўрсаткичлар катталиги						
Бошланғич сульфат кислота меъёри, %	100	105	110	115	120	125	130
Донадорлашга бериладиган суперфосфат массаси намлиги, %	18,08	18,21	18,92	19,30	19,67	20,02	20,38
Доначалар фракцияси (% ҳисобида): 1 мм дан кичик 1 дан 4 мм гача 5 мм дан кичик	 1,84 97,25 0,91	 1,75 97,48 0,77	 1,58 97,83 0,59	 1,43 98,12 0,45	 1,56 98,44 -	 2,15 97,85 -	 2,84 97,16 -
Доначалар мустаҳкамлиги, МРа (kgf/cm^2) ҳисобида	1,86	1,83	1,76	1,70	1,62	1,50	1,35

Шундай қилиб, Марказий Қизилқумнинг ювилган куйдирилган фосфат концентратини сульфат кислотали қайта ишлашда олинган маҳсулотларнинг сифат кўрсаткичлари (фосфоритнинг парчаланиш даражаси, гранулометрик таркиби, доналарнинг мустаҳкамлиги) бошланғич кислота меъёрига боғлиқ эканлиги аниқланди. Дастлабки кислота меъёрининг ошиши натижасида балласт – гипс миқдорининг кўпайиши ҳисобига якуний маҳсулотдаги умумий фосфатлар улуши 18,02 дан 16,02 фоизгача ва доналар мустаҳкамлиги 1,86 дан 1,35 МПа гача пасаяди. Фосфат хомашёсининг парчаланиш даражасига кислотанинг бошланғич меъёри катта таъсир кўрсатади. Кислота меъёрининг 100 дан 130 фоизгача кўтарилиши натижасида ($P_2O_{5ўзл.}$: $P_2O_{5умум.}$) х100 нисбати 74,08 фоиздан 87,94 фоизгача, ($P_2O_{5с.э.}$:$P_2O_{5умум.}$) х100 нисбати ҳам 74,08 фоиздан 87,94 фоизгача ортади. Шу билан бирга маҳсулотдаги эркин кислоталик ҳам 0,76 фоиздан 6,49 фоизгача кўпаяди. Бунда қуйидаги таркибли маҳсулотлар олинади (масса фоизида): $P_2O_{5умум.}$ = 16,62-16,82, $P_2O_{5ўзл.}$ = 13,61-13,87, $P_2O_{5с.э.}$ = 5,23-5,78, $H_3PO_{4эркин}$ = 0,75-0,93, CaO = 33,70-34,11, MgO = 0,91-0,93, SO_3 = 36,72-37,79. Бу маҳсулотларда ($P_2O_{5ўзл.}$:$P_2O_{5умум.}$)х100 нисбати 80,92-83,45 фоизни, ($P_2O_{5с.э.}$:$P_2O_{5умум.}$)х100 нисбати эса 31,09-34,78 фоизни ташкил этади. Оддий суперфосфат ишлаб чиқаришнинг мақбул шароитида олинган етилган суперфосфат массасини донадорлаш натижасида доналар мустаҳкамлиги 1,62-1,70 МПа бўлган маҳсулот олинди. Ушбу маҳсулотлар оддий суперфосфат ишлаб чиқариш учун белгиланган талабларга тўлиқ жавоб беради ва юқори сифат кўрсаткичларига эга бўлади.

ISSN 3030-3907

ХУЛОСА. Оддий аммонийланган суперфосфат олиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар асосида ЮКФКни ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилиш, технологик кўрсаткичларни яхшилаш, ишлаб чиқариш жараёнини жадаллаштириш ва фосфатларнинг ўзлашувчан шаклини 80% дан ошириш имконияти кўрсатиб ўтилди.

АДАБИЁТЛАР

1. Минеев В.Г., Бычкова Л.А. Состояние и перспективы применения минеральных удобрений в мировом и отечественном земледелии. // Агрохимия. – 2003. - № 8. – С. 5-12.
2. Беглов Б.М. Ибрагимов Г.И., Садыков Б.Б. Нетрадиционные методы переработки фосфатного сырья в минеральные удобрения // Химическая промышленность. – Санкт-Петербург, 2005. – Т. 82. – № 9. – С. 453-468.
3. Раджабов Р.Р., Намазов Ш.С., Беглов Б.М. Промышленное освоение и перспективные направления технологии переработки фосфоритов Кызылкумов на фосфорсодержащие минеральные удобрения / Раджабов Р.Р., // Химическая пром-сть. - 2006. - Т. 83. - № 9. - С. 403-410.
4. Смирнов П. М., Муравин Э. А. Агрохимия. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Колос, 1984. – 304 с.
5. Мамуров Б.А., Шамшидинов И.Т., Усманов И.И., Кодирова Г.К. Исследование процесса нейтрализации экстракционной фосфорной кислоты мелом. Universum: Химические науки: электрон. научн. журн. 2019. – № 2(57). – С. 21-26.
6. Шамшидинов И.Т. Переработка фосфоритов Каратау и Центральных Кызылкумов на экстракционную фосфорную кислоту и концентрированные фосфорсодержащие удобрения. – М.: Издательство Lambert Academic Publishing, 2021. – 225 с.
7. Шамшидинов И.Т. Получение удобрений типа двойного суперфосфата из фосфоритов Каратау. Автореферат дисс. канд. техн. наук. – Ташкент, 1994. – 28 с.
8. Шамшидинов И.Т. Разработка усовершенствованной технологии производства экстракционной фосфорной кислоты и получения концентрированных фосфорсодержащих удобрений из фосфоритов Каратау и Центральных Кызылкумов. Автореферат дисс. докт. техн. наук. – Ташкент, 2017. – 68 с.
9. Arislanov, A., Shamshidinov, I., Usmanov, I., Normatov, G., Isomiddinov, O. The process of decomposition of tricalcium phosphate by phosphoric acid with partial replacement of P2O5 to sulfuric acid // E3S Web of Conferences / 2024, 486, 01037.

ISSN 3030-3907

10. Kambarov, A., Shamshidinov, I., Najmiddinov, R., ...Ruzibayev, B., Samadiy, M. Study of the Effect of Magnesium Sulfate and Ammonium Nitrate on the Chemical Activity of Solutions of Phosphoric Acid // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science / 2023, 1275(1), 012002.
11. Shamshidinov, I., Gafurov, K., Ikramov, M. Investigation on the phosphoric acid production from low grade phosphorites with high content of magnesium // Journal of Chemical Technology and Metallurgy / 2016, 51(2), P. 157-162.
12. Shamshidinov, I., Kambarov, A., Najmiddinov, R., Usmanov, I., Samadiy, M. Study of Physico-Chemical Properties of Phosphorate Solutions // E3S Web of Conferences / 2023, 392, 02036.
13. Беглов Б.М., Намазов Ш.С. Фосфориты Центральных Кызылкумов и их переработка. –Ташкент, 2013 г. – 460 с.
15. Технология фосфорных и комплексных удобрений/ Под ред. С.Д. Эвенчика и А.А. Бродского. – М.: Химия, 1987. – 464 с.

ISSN 3030-3907

УДК.502.504

ПАХТА ЧИҚИНДИЛАРИНИ УТИЛИЗАЦИЯСИ АСОСИДА ҲОСИЛ ҚИЛНГАН СТАКАНЛАРДА КЎЧАТЛАР ЕТИШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ

И.И.Юсупов

Андижон Давлат техника институти, илмий тадқиқотчи.

Тел.+99893 250-15-08

E-mail: ilhomjonyusupov588@gmail.com

С.М.Мамбетуллаева

Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна- Қорақалпоқ табиий фанлар илмий тадқиқот институти директори, биология фанлари доктори, профессор.

Tel:90 7273740

E-mail: svetmamb@mail.uz

Аннотация. Проблема переработки и утилизации, к которой относятся отходы производства, в том числе хлопка, является одной из актуальных задач современной экологии и экономики. Данное исследование посвящено экономической эффективности выращивания рассады в биологических неразъемных стаканчиках, получаемых путем утилизации хлопковых отходов. В разработке анализируется технология производства стаканчиков из хлопковых отходов, преимущества их опыления для выращивания рассады (контроль водно-воздушного режима, возможное распространение, устойчивость к изменению климата) и основные экономические показатели (капитальные затраты, эксплуатационные расходы, отказ от самого производства). Результаты показывают значительную экономическую выгоду от намотки стаканчиков на основе хлопковых отходов в детских садах и их важность для качества экологически чистой технологии производства ветчины.

Ключевые слова: отходы хлопка, утилизация, небиоразлагаемые пакеты, выращивание рассады, экономическая эффективность, экологически чистая технология, отходы производства, переработка, натуральные пакеты, экономический анализ

Аннотация. Ишлаб чиқариш чиқиндилари, жумладан, пахта чиқиндиларини ўз ичига олган қайта ишлаш ва утилизация муаммоси замонавий экология ва иқтисодиётнинг долзарб вазифаларидан биридир. Ушбу тадқиқот пахта чиқиндиларини утилизация қилиш йўли билан ишлаб чиқарилган, биологияник партовланмайдиган стаканларда кўчатлар етиштиришнинг иқтисодий самарадорлигига бағишланган. Ишланмада пахта чиқиндиларидан стакан ишлаб чиқариш технологияси, уларнинг кўчатлар

ISSN 3030-3907

етиштириш учун кўлланилишининг афзалликлари (сув-хаво режимини назорат қилиш, тарқалиш мумкинлиги, иқлим ўзгаришига нисбатан бардошлиги) ва асосий иқтисодий кўрсаткичлар (капитал харажатлари, эксплуатация харажатлари, ишлаб чиқаришнинг ўзини омаслиги) таҳлил қилинади. Натижалар пахта чиқиндилари асосидаги стаканларни кўчатчиликда кўллашнинг аник иқтисодий фойдасини, хамда экологик тоза ишлаб чиқариш технологияси сифатидаги аҳамиятини кўрсатади.

Калит сўзлар: Пахта чиқиндилари, Утилизация, Биоразлагацияланмайдиган стаканлар, Кўчат етиштириш, Иқтисодий самарадорлик, Экологик тоза технология, Ишлаб чиқариш чиқиндилари, Қайта ишлаш, Табиий қоплармалар, Иқтисодий таҳлил

Annotation. The problem of processing and disposal, which includes waste from production, including cotton, is one of the urgent tasks of modern ecology and the economy. This study is devoted to the economic efficiency of growing seedlings in biological non-detachable Cups, produced by the disposal of cotton waste. The development analyzes the technology for the production of cups from cotton waste, the advantages of their pollination for growing seedlings (control of the water-air regime, possible distribution, tolerance to climate change) and the main economic indicators (capital costs, operating costs, failure of production itself). The results show the anic economic benefit of coiling cotton waste-based Cups in nurseries, its importance in the quality of environmentally friendly production technology in ham.

Keywords: cotton waste, disposal, non-Biorazlagable cups, seedling cultivation, economic efficiency, environmentally friendly technology, production waste, processing, natural bags, economic analysis

Кириш

Жаҳонда олиб борилаётган кўплаб илмий –тадқиқотлар ишлари Барқарор ривожланиш мақсадларини амалга оширишга бағишланган бўлиб, унда ерларни тиклаш ва мелиоратив ҳолатини яхшилаш, ресурсларни тежаш ва чиқиндиларни утилизация қилишнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш, ҳудудларнинг барқарор ривожланиши назарияси ва амалиётини ишлаб чиқиш, интенсив иқтисодий ҳаётга эга тоғлик ва текислик ҳудудлари, воҳалар ва тоғлараро водийлар ландшафтларининг геоекологик ҳолати ривожлантириш, табиатдан фойдаланиш жараёнида қўлланиладиган мавжуд ва янги яратилаётган технологиялар, жиҳозлар ва иншоотларнинг экологик ҳавфсизлигини баҳолаш назарияси ва усулларини ҳар томонлама ўрганиш масалалари устувор аҳамият касб этади [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилнинг 28 январ куни 60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг

ISSN 3030-3907

тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Ушбу Фармоннинг 81-мақсадида ўрмонлар майдонини кенгайтириш масалаларига бағишланган бўлиб, аниқ режалар ва топшириқлаб белгилаб берилган, жумладан “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида ҳар йил камида 200 миллион туп дарахт экиш, маиший чиқиндиларни йиғишни 100 фоизга, уларни қайта ишлаш даражасини 2026 йилга қадар 21 фоиздан 50 фоизга етказиш, Орол денгизининг қуриган тубида қўшимча 500 минг гектар яшил майдонларни барпо этиб, 2026 йил якунига қадар уларнинг умумий ҳажмини 2,5 миллион гектарга ёки ҳудуднинг 78 фоизига етказиш Оролбўйида халқаро “Яшил иқлим” ва Глобал экологик жамғармаларнинг биохилма-хиллик, иқлим ўзгариши ва тупроқ емирилишининг олдини олишга қаратилган дастурлари асосида 300 миллион АҚШ доллари қийматидаги лойиҳаларни амалга ошириш, Республика ҳудудларида ўрмонлар майдонини кенгайтириш ва ўрмон фонди ерларидан самарали фойдаланиш, ўрмон фондининг тоғ ва тоғ олди ҳудудлари плантацияларини барпо қилиш, чўл ҳудудларида ўсимликларни кўпайтириш, ҳудудларда ҳимоя ўрмонзорлари барпо этиш, суғориладиган ерларни эрозиядан ва мелиорация объектларини қум кўчишидан сақлаш учун иҳота дарахтзорларини барпо этиш вазифалари белгилаб берилган[2].

Ўзбекистон Республикаси ижтимоий иқтисодий ривожланиш босқичидаги асосий муҳим вазифалардан бири чет эл инвестицияларга йўл очилгани ва бунинг натижасида замонавий технологияларни жорий этилиши ва ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларида ресурс тежамкор технологияларни қўлланилиши хисобланади.

Кейинги йилларда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришда экинларни интенсив, мавсумий, навбатлаб экиш, маҳалий ғоваклаштирувчи материаллар (ёғоч қипиғи, шоли пўчоғи, каноп толаси, пахта чиқиндиси, қум)ни қўллаб тупроқ унумдорлигини ошириш, иш унумдорлигини ошириб, меҳнат сарфини камайтириши, деградацияга учраган ва суғорилмайдиган ер майдонларида ҳам маҳсулот етиштиришни таъминловчи кичик ҳажмли грунт усулида сабзавотлар етиштириш каби тадбирларни, кенг миқѐсда қўллаш ишлари амалга оширилмокда[3].

Ресурс тежамкор технологиялар иккиламчи ресурслардан хўжалик ва бошқа фаолиятда, шу жумладан ишлаб чиқариш ва истеъмол чиқиндиларидан фойдаланишни ўз ичига олади. Чиқиндиларни иккиламчи ресурс сифатида ишлатиш харажатларни камайтиришга, шунингдек, ижобий экологик манфаатларга эришишга ёрдам беради.

Чет мамлакатларда сабзавотлар етиштиришда ананавий тупроқ технологиялари ва янада илғор технологиялар- тупроқсиз ўсимликлар

ISSN 3030-3907

етиштириш-кичик хажмли технологиялар қўлланилади. Импорт қилинадиган субстратларнинг нархлари юқори бўлганлиги сабабли, тупроқсиз ўсимликлар етиштириш бир мунча мураккаб ҳисобланади.

Субстратларнинг янги тарки- бий қисмларини излаш, ўсимлик қолдиқларидан сомон, поҳол, дарахт ва ўсимликларни қайта ишлашда ҳосил бўладиган чиқиндилардан опилка, ёғоч пўстлоғи, пайраҳа, шоли қипиғи, пахта ва бошқаларни ушбу мақсадларда қўллаш ўсимликлар етиштиришда ижобий натижалар бериш билан бир қаторда чиқиндиларни фойдали равишда утилизация қилиш, атроф муҳитга бўладиган салбий таъсирларни камайтиришда аҳамиятли ҳисобланади[4].

2.МАТЕРИАЛ ВА УСУЛЛАР

Пахта чиқиндиси - пахта тозалаш корхоналарининг саноат чиқиндиси хисобланади. Пахта тозалаш корхонасида пахтага дастлабки ишлов бериш жараёнида ҳосил бўлган чиқиндилар корхонанинг чанг газ тозалаш ускуналари орқали тортиб олиниб, ифлосликлар ушлаб қилинади. Ҳосил бўлган ушбу чиқиндилар саноатда қайта ишланмайди, бироқ улар хўжаликларда хандаклар ташкил этилиб, гўнг ва минерал ўғитлар солиниб компостлар тайёрлашда қисман ишлатилади. Кичик хажмли технологияларда эса, ушбу чиқиндилар сабзавот экинларининг кўчатларини етиштиришда хандакларда иссиқлик ва чиринди ҳосил қилиш учун ишлатилади. Чиқиндиларнинг асосий таркибини ўсимлик барги, баргнинг чўпаги, гул шонаси, етилмаган кўсак, чаноқ, ноорганик чанг ва бошқалар ташкил этиб, асосий таркибни целлюлоза ташкил этади. Шу сабабли целлюлозанинг ҳавосиз мухитда сув ва тупроқ таъсирида парчаланиши натижасида ўсимликлар учун зарур бўлган озуқа мухитлари ҳосил бўлиши ушбу чиқиндилардан ўсимлик кўчатларини етиштиришда ниҳоятда мухим бўлган хом-ашё ҳисобланади [5].

Ушбу чиқиндиларни ўсимликчиликда фойдаланиш йўлга қўйиш ва бунинг натижасида бир қанча экологик муаммолар ҳал этиш мумкин бўлади. Ресурс тежамкор технологиялар асосида ўсимлик кўчатларини кичик хажмли технологияларда етиштиришда айрим масалалар ҳал этилади, жумладан пахта тозалаш саноатининг чиқиндиларини фойдали тарзда утилизация қилиш, чиқиндиларни атроф-мухитга бўладиган таъсирини камайтириш, ҳосилдорликни ва ишлаб чиқариш хажмларини ва тупроқ унумдорлигини ошириш, минерал ўғитлар сарфини камайтириш, маҳсулотлар таннархини пасайтириш ва иссиқхоналарда сабзавот экинлари етиштиришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, полиэтилен қопчаларда сабзавот кўчатларини етиштиришни чеклаш [6].

НАТИЖАЛАР

ISSN 3030-3907


Ушбу чиқиндиларни чириши натижасида ҳосил бўладиган гумус таркибини аниқлаш ва шу билан бир қаторда унинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш бўйича Андижон машинасозлик институти илмий лабораториясида бир қатор илмий тадқиқот ишлари олиб борилди ва бунинг натижасида илмий аҳамиятга эга бўлган натижалар олинди[7].

Пахта тозалаш заводи чиқиндилари, биогумус ва қумдан фойдаланиб-гул тувакларда ўсимликлар етиштириш натижасида чириндига айланган чиқинди намунаси Гулистон Давлат университетининг илмий лаборатория-сида тахлилдан ўтказилди.Олиб келинган намуналарни таҳлил қилиш мақсадида, улардан 100грамм миқдорда аналитик тарозида тортиб олинади. Намунани 1:9 нисбатдаги дистирланган сув билан экстракция қилинди. Экстракция жараёни якунлангач, экстрактдан 5мл алоҳида конуссимон ўлчов колбасига солиниб 50мл бўлгунча дисстилланган сув билан суюлтирилди. Колбадаги эритма автонамуна олиш бўлимидаги махсус пробиркаларга солиниб анализ қилиш учун жойлаштирилди. Тайёрланган намуна анализ учун **Avio- 200 ISP–OES** индуктив боғланган плазмали Оптик эмиссион спектрометрда (Перкин Элмер, АҚШ) тахлил қилинди. Қурилманинг аниқлик даражаси юқори бўлиб, эритма таркибидаги элементларни 10^{-9} грамм аниқликкача ўлчаш имконини беради[8].



Расм.1. Пахта чиқиндилари асосидаги стаканларда етиштирилган помидор кўчатлари.

ISSN 3030-3907



Расм. 2.Намунада аниқланган кимиёвий моддалар ва уларнинг миқдорий кўрсаткичлар диаграммаси (мг/100г).

Ўтказилган лаборатория тахлиллари натижасида ўсимликларни озиқланиши учун зарур бўлган кимиёвий элементлар сони ва миқдори аниқланди. 2- расмда Гулистон Давлат Университети илмий лабораторияси томонидан амалга оширилган аналитик тахлиллар натижаси диаграмма шаклида илова қилинади.

Диаграммада келтирилган ўлчови 100 граммида миллиграмм бўлган кўрсаткичларидан фойдаланиб, стаканлар орқали ер майдонларига киритилиши мумкин бўлган кимиёвий элементларининг бир гектар ер майдондаги миқдори ҳисоблаб чиқилади ва шунга асосланиб агротехник талаблар асосида ер майдонларга киритиладиган минерал ўғитлар қисқартирилади.Ана шу қисқартиришлар ҳисобига иқтисод қилинган маблағлар миқдори амалдаги нархлар асосида иқтисодий самарадорлик ҳисобланади.

1-жадвал

Минерал ўғитларни қисқартирилиши ҳисобиган олинадиган иқтисодий самарадорликни ҳисоблаш жадвали

№ т/р	Кимиёвий элемент	мг/100гр	1га майдондаги миқдор кг/га	Шу моддаларни киритиш учун	Ҳосил қилинган модда	Минерал ўғит нархлари,	Гектар ҳисобига иқтисод қилинга

ISSN 3030-3907

				зарур бўлган минерал ўғит турлари	хи собига икти сод қилин ган минера л ўғит миқдор и, грамм	мингсў м /тонна	н маблағ- сўм
	I.Намунадаги асосий элементлар						
1.	N-азот	1,986	0,128	Корбамид - 46% N	278	3500,0	973,0
2.	P-фосфор	2,774	0,179	Аммофос-46% P	389	4000,0	1556,0
3.	K-калий	44,38	2,86	Калий хлорид-60%K	4767	2117,1	10092,0
		49,14	**3,167**				**12621**
	II. Намунадаги мавжуд қўшимча элементлар						
1.	Ca-кальций	73,355	4,73	Кальций нитрат-7%	331	11000,0	3641,0
2.	Mg-магний	86,89	5,6	Магний сулфат 17%	952	18557,28	17666,5
3.	S-олтингугурт	4,496	0,29	Аммоний сулфат 24%	69,6	2600,0	181,0
4.	Fe-темир	0,377	0,024	Темир сулфат 53 %	12,7	1000,0	12,7
5.	Mn-марганец	0,093	0,006	Марганец сулфат 70%	4,2	50232,0	211,0
6.	Zn-рух	0,901	0,058	Рух сулфат-22,8%	13,2	19035,0	251,3

ISSN 3030-3907

7.	Cu-мис	0,137	0,00001	Мис купороси-24%	0,24	1000,0	0,24
8.	B-бор	0,351	0,023	Борат кислотаси -17,3%	3,98	60830,75	242,0
9.	Молибден	0,213	0,014	Аммоний молибдат-70%	9,8	500000,0	4900,0
	Жами:		**10,745**				**27105,74**
	III. Намунадаги мавжуд шартли зарур элементлар						
1.	Cl- хлор	97,6	6,3	Аммоний хлорид-67%	4221	1800,0	7597,8
2.	Na-натрий	62,01	4,0	Натрий нитрат-27%	1080	31050,0	33534,0
3.	Si-кремний	0,357	0,023	Зеолит-71,5%	16,5	17000,0	18360,0
4.	Co-кобалт	0,019	0,0012	**Кобалт хлорид-24%**	2,5	197600,0	494,0
	Жами:		**10,324**				**59985,8**
	IV.Намунадаги мавжуд бошқа элементлар						
1.	SO_4-сулфат ангидрид	161,0	10,4	Олтингугурт оксиди 24%	2496	2600,0	6489,9
	Жами:		**10,519**			**2600**	**6489,9**
	Ҳаммаси				**14646,72**		**106202,44**

Пахта тозалаш заводи чиқиндиларини ўсимликлар етиштиришда субстрат сифатида ишлатиш натижасида чиқиндиларни чириб чириндига айланиши натижасида тупроқ унумдорлигини оширишга эришилади. Чириндига айланган моддалар таркибида жадвалда кўрсатилган моддаларнинг мавжудлиги сабабли, қўшимча минерал ўғитларни киритилиши қисқариб, уларни сотиб олиш ҳаражатлари қисқаради.Юқорида келтирилган 2-жадвал маълумотларидан фойдаланиб, чиқиндилар асосида тайёрланган стаканларда биогумусдан фойдаланиб ўсимликлар

ISSN 3030-3907


етиштиришда, тупроқ унумдорлигини оширувчи 17 хилдаги элементларни тупроққа киритилиши натижасида 1гектар ер ҳисобига 106202,44 сўмлик минерал ўғитларни киритилиш иқтисод қилинади.Кичик хажмли технологияларда пахта тозалаш заводларининг саноат чиқиндиларини химояланган тупроқ шароитида қўллаш иқтисодий жиҳатдан самарали агротехник тадбир бўлиб, пахта тозалаш заводи чиқиндиларидан фойдаланиб ўсимлик кўчатларини етиштиришда ишлатиладиган стаканлардан фойдаланиш самарадорлиги аниқлаш бўйича ҳисоб китоблар 2024 йил нархларида ҳисоблаб чиқилди.

Бундан ташқари стаканларга экилган кўчатлар буғдойдан бўшаган ер майдонларига такрорий экин сифатида кўчириб экилганда уларга қўшимча равишда ҳеч қандай агротехник ишловлар берилмайди ва озуқа билан озиқлантирилмайди, фақат етарли даражадаги намлик сақланади. Бунинг эвазига қуйидаги технологик жараёнлар камаяди:

- ерларни омоч билан ҳайдаш нархи- 500000сўм/га;
- ерларни моллалаш нархи –400000сўм/га;
- эгат олиш нархи - 400000сўм/га.

Механизация ёрдамида бажариладиган технологик жараёнларни камайтириш эвазига бир гектар ер хисобига олинадиган иқтисодий самарадорлик 1300000сўм/ гани ташкил этади.

Шунингдек помидор ниҳолларида ўтказилган тажрибаларда экспериментал стаканларда етиштирилган помидор билан одий усулда етиштирилган помидор кўчатларида ўтказилган солиштирма тахлиллар натижаси 3-расмда келтирилади. Натижаларга кўра тажрибадаги помидор кўчатлари оддий усулда экилган помидор кўчатларидан ҳосилдорлик бўйича гектарига 3,56 центнерга юқори эканлиги аниқланди.



Расм.3. “Тажриба” ва “Назорат”даги помидор ўсимликларнинг қиёслаш агротехник кўрсаткичлари.

ISSN 3030-3907

Помидорларнинг ўртача йиллик нархи 5000сўмлиги инобатга олинса, ҳар гектар ҳисобига олинган даромад миқдори 3560кг* 5000 =17800000сўмни ташкил этади. «Еаст Фруит» портали ва Вазирлик маълумотларига кўра, ҳозирги кунда Ўзбекистонда 3157 фермер хўжалиги ва қишлоқ хўжалиги корхоналари иссиқхона ишлаб чиқариш билан шуғулланади. Улар тасарруфидаги иссиқ хоналарнинг умумий майдони 6300гектарни ташкил этади.

Ушбу технологияни 1 га ер майдонида қўлланиши натижасида олинадиган иқтисодий самарадорлик миқдори:

106202,44+1300000 + 17800000 = 19206202,44 минг сўмни ташкил этади.

Ушбу технологияни Республиканинг жами иссиқхоналарнинг 10 фоизида жорий этилгандаги хисобий иқтисодий самарадорлик миқдори эса:

19206202,44минг сўм х 630га = 12099907537,2сўмни ташкил этади.

ХУЛОСА

1. Ресурс тежамкор технологияларни татбиқ этилиши, иккиламчи ресурслардан хўжалик ва бошқа фаолиятда фойдаланиш, истеъмол чиқиндиларини камайтириш ва уларни қайта ишлаш ишлари устувор вазифа деб белгиланди.

2. Барқарор ривожланиш мақсадларини таъминлаш, атроф-муҳит муҳофазаси ва органик чиқиндиларни утилизатция қилишдаги муаммоларни ҳал этишдаги жаҳон мамлакатлари тажрибаси ва муқобил деҳқончиликдан фойдаланишдаги экологик жиҳатларни ҳисобга олган холда пахта тозалаш саноати корхоналарининг саноат чиқиндиларини фойдали тарзда утилизация қилиш технологияси ишлаб чиқилиб иқтисодий самарадорлиги асосланди.

3.Ресурс тежамкорлик яъни пахта тозалаш саноати чиқиндиларини утилизация қилишнинг инновацион ечими ҳисобланган стакан шаклидаги прессланган чиқиндилар асосида ўсимлик кўчатларини етиштириш усулининг иқтисодий самарадорлиги асосланди.

4.Ўтказилган илмий тадқиқотлар натижасида чиқиндиларни чириндига айланиши – минерализацияси натижасида ҳосил қилинган гумус таркибида ўсимликларни озиқланиши учун зарур бўлган 17 хилдаги, умумий миқдори 100 граммида 538,875 мг миқдордаги ноёб макро ва микро элементлар борлиги аналитик усулларда аниқланди.

5.Ушбу технологияни ишлаб чиқаришга жорий этиш натижасида Ўзбекистоннинг қурғоқчил экотизимларида, кам ҳосилдор ерларда, дарё ва канал бўйларида ўсимликларни етиштиришнинг имконияти яратилиб, тупроқ унумдор лигини ошириш, минерал ўғитлар сарфини камайтириш ва кичик ҳажмли тупроқ усулларида кўчатлар етиштиришда полиэтилен қопчалардан фойдаланишни чеклашга эришилди.

ISSN 3030-3907

6.Чиқиндилар утилизацияси ҳисобига субстратли стаканларни ер майдонларига киритилиши натижасида ҳосил бўлган кимиёвий элементлар ҳисобига минерал ўғитларни камайтирилиши ҳисобига гектарига 106202,44 сўмни шунингдек, Ўзбекистоннинг помидор ва бодринг экинлари экиладиган майдонларнинг ва такрорий экинлар экиладиган ер майдонларининг 10 фоизида жорий этилиши натижасида эришиладиган иқтисодий самарадорлик 12099907537,2 сўм миқдорида прогноз қилинди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссиясининг ихтисослик паспорти.
2. 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ -60 сонли Фармони.
3. Е.Лян,С.Алимуҳамедов.Иссиқхоналарда сабзавот етиштириш бўйича тавсиялар.https://agro-olam.uz/issiqxonalarda-sabzavot-yetishtirish-bo‘yicha tavsiyalar.
4. Яговкин.В.В.Органические субстраты для малообъемного культивирования томата и огурцав северовосточном регионе России. Российская Академия сельскохозяйственных наук, Всероссийский научно-исследовательский институт овощеводства (ВНИИО) Диссертация канд. с.-х. наук: 06.01.06. Москва 2007год.
5. Yusupov I.I., Mambetullaeva S.M. «Prospects for growing tomato seedlings on the basis of resource-saving technologies».JMEA Journal of Modern Yeducational Achievements 2023,Volume 7 https://scopusacademia.org/ 256-264st.
6. Юсупов.И.И, Қобулова.Н.Ж.,Хожиев.А. Ихтиро патенти № IAP 06653. Қишлоқ хўжалик экинларининг кўчатларини ўстириш усули Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги Расмий ахборотнома Тошкент 2022 йил 1(249).
7. Юсупов.И.И,Мамбетуллаева.С.С. «Экологические принципы применения ресурсосберегающих технологий при выращивании растения батат»5-8стр. JAH- Journal of Agrikulture yend Hortikulture, vol-3.issue8,august
8. Гулистон Давлат Университети, Агробиотехнологиялар ва биокимиё илмий тадқиқот институтининг Синов баённомаси.

ISSN 3030-3907

CHUQUR NEYRON TARMOQLARI VA ULARNING UMUMLASHTIRISH QOBILIYATI

Obidjonov Boburjon Rustamjon o‘g‘li,
Kimyo International University in Tashkent
E-mail: boburobidjonov77@gmail.com

Abstract. This article explores the generalization ability of deep neural networks, referring to their capacity to correctly interpret unseen data beyond the training set. The research analyzes how activation functions, network depth, and data normalization affect generalization performance. Results show that adaptive activation functions play a crucial role in improving the generalization ability of deep learning models.

Keywords: deep learning, neural network, generalization, activation function, regularization, overfitting, adaptive model.

Аннотация. В данной статье рассматривается способность глубоких нейронных сетей к обобщению, то есть возможность правильно анализировать данные, не встречающиеся в обучающем наборе. Проведен анализ влияния функций активации, глубины сети и нормализации данных на эффективность обобщения. Установлено, что использование адаптивных функций активации значительно повышает способность модели к обобщению.

Ключевые слова: глубокое обучение, нейронная сеть, обобщение, функция активации, регуляризация, переобучение, адаптивная модель.

Annotatsiya. Mazkur maqolada chuqur neyron tarmoqlarning umumlashtirish qobiliyati, ya’ni o‘rganilgan ma’lumotlardan tashqaridagi namunalarni to‘g‘ri tahlil qilish imkoniyati o‘rganiladi. Tadqiqot davomida aktivatsiya funksiyalari, tarmoq chuqurligi va ma’lumotlarning normallashtirilishi modelning umumlashtirish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Natijada adaptiv faollashtirish funksiyalarining qo‘llanishi neyron tarmoqning umumlashtirish xususiyatini yaxshilashda muhim omil ekanligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: chuqur o‘rganish, neyron tarmoq, umumlashtirish, aktivatsiya funksiyasi, regularizatsiya, overfitting, adaptiv model.

Kirish

Sun’iy intellekt tizimlarining muvaffaqiyati va amaliy samaradorligi, avvalo, ularning umumlashtirish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Umumlashtirish deganda, tizimning faqat o‘qitilgan ma’lumotlar to‘plamida emas, balki ilgari ko‘rmagan, yangi va turlicha ma’lumotlarda ham to‘g‘ri natijalar bera olish qobiliyati tushuniladi. Agar biror model faqat trening (o‘qitish) jarayonidagi namunalarni eslab qolsa, u holda real hayotdagi yoki testdagi yangi ma’lumotlar

ISSN 3030-3907

bilan ishlaganda xatolikka yo‘l qo‘yadi. Bunday holat ortiqcha o‘rganish yoki overfitting deb ataladi.

Chuqur neyron tarmoqlar (Deep Neural Networks, DNN) — bu sun’iy intellektning eng ilg‘or modellaridan biri bo‘lib, ular juda katta hajmdagi ma’lumotlardan murakkab naqshlar va yashirin qonuniyatlarni aniqlay oladi. Ushbu tarmoqlar inson miyasining ishlash prinsipiga o‘xshash tarzda, kiruvchi ma’lumotlarni ko‘p bosqichli qayta ishlash orqali ulardagi chuqur bog‘lanishlarni o‘rganadi. Natijada, ular tasvir, matn, tovush yoki sonli ma’lumotlardan foydali xususiyatlarni ajratib olib, yangi ma’lumotlar uchun prognoz, klassifikatsiya yoki tavsiya bera oladi.

Biroq chuqur tarmoqlar juda katta sonli parametr va qatlamlarga ega bo‘lgani uchun, ular o‘qitilgan ma’lumotlarni haddan tashqari aniq eslab qolish — ya’ni yodlashga moyil bo‘ladi. Agar model faqat mavjud namunalarni mukammal o‘rganib, ularning ortidagi umumiy qonuniyatni anglamasa, u yangi ma’lumotlarda noto‘g‘ri javoblar beradi. Shu sababli, chuqur neyron tarmoqlarda umumlashtirish samaradorligini oshirish, ya’ni modelni faqat eslab qolishdan emas, balki mantiqiy tahlil va umumiy qoidalarni o‘rganishga yo‘naltirish hozirgi zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylangan.

Bugungi kunda olimlar va mutaxassislar umumlashtirishni yaxshilash uchun turli yondashuvlardan foydalanishmoqda: regulyarizatsiya, dropout, ma’lumotlarni sun’iy kengaytirish (data augmentation), transfer learning, hamda model arxitekturasini optimallashtirish kabi usullar bu borada eng samarali yechimlardan hisoblanadi. Maqsad — neyron tarmoqni shunday o‘qitishki, u yangi, ilgari uchramagan ma’lumotlar bilan ham barqaror va ishonchli natijalar bera olsin.

Shunday qilib, sun’iy intellekt tizimlarining haqiqiy “aqlli” deb atalishi ularning umumlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Qanchalik model yangi ma’lumotlarga moslasha olsa, shunchalik u inson tafakkuriga yaqin bo‘ladi va real hayotdagi muammolarni hal etishda samaraliroq ishlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda chuqur o‘rganish (Deep Learning) sohasida umumlashtirish muammosiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, chuqur neyron tarmoqlarning murakkab arxitekturasi, ularning o‘rganish jarayoni va umumlashtirish qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish masalasi ilmiy hamjamiyatda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mashhur olimlar Yann LeCun, Geoffrey Hinton va Yoshua Bengio (2015) tomonidan chop etilgan “Deep Learning” nomli maqolada chuqur neyron tarmoqlarning nazariy asoslari va ularning imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan. Ularning fikriga ko‘ra, tarmoq chuqurligi ortgan sari modelning ifoda (representatsiya) imkoniyati keskin oshadi, ya’ni model murakkab naqshlarni

ISSN 3030-3907

aniqlash va noaniq bog‘lanishlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Biroq, shu bilan birga, qatlamlar soni ortishi ortib o‘qitish (overfitting) xavfini ham kuchaytiradi, chunki model mavjud ma’lumotlarni yodlab olib, yangi ma’lumotlarda xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Shu sababli, chuqur o‘rganish tizimlarida umumlashtirishni yaxshilash usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada muhim yondashuvlardan biri sifatida Dropout metodini qayd etish lozim. Ushbu metodni Srivastava va hamkorlari (2014) taklif etgan bo‘lib, u o‘qitish jarayonida tarmoqdagi ayrim neyronlarni tasodifiy ravishda “o‘chirib turish” orqali ishlaydi. Natijada model ma’lumotlarni faqat ayrim neyronlarga tayanib o‘rganmaydi, balki turli neyronlar kombinatsiyasi orqali umumiyroq naqshlarni shakllantiradi. Bu esa modelning haddan tashqari moslashib qolishini oldini oladi va umumlashtirish qobiliyatini oshiradi.

Keyingi yillarda taklif etilgan Batch Normalization (Ioffe & Szegedy, 2015) va Layer Normalization kabi metodlar ham chuqur tarmoqlarning o‘rganish barqarorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Batch Normalization har bir qatlamdagi kirish signallarini normallashtirish orqali gradientlarning “portlash” yoki “so‘nish” muammosini kamaytiradi, o‘qitish jarayonini tezlashtiradi va modelning umumlashtirish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Layer Normalization esa ayniqsa rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) va Transformer arxitekturalarida samarali ishlaydi.

Shuningdek, chuqur o‘rganishda aktivatsiya funksiyalarining tanlovi ham modelning umumlashtirish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Dastlabki yillarda ko‘p ishlatilgan sigmoid yoki tanh funksiyalar o‘rnini hozirda ReLU (Rectified Linear Unit) va uning modifikatsiyalari — Leaky ReLU, Parametric ReLU (PReLU), Swish, Mish kabi adaptiv turlari egallagan. Ushbu funksiyalar gradientning so‘nib qolish muammosini kamaytiradi, modelni nolinearlikka olib kiradi va neyronlarning faollik darajasini barqaror ushlab turadi. Natijada tarmoq o‘rganish jarayonida tezroq yaqinlashadi va yangi ma’lumotlarda yanada aniqroq natijalar beradi.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda chuqur neyron tarmoqlarni ortiqcha o‘rganishdan himoyalash va umumlashtirish samaradorligini oshirish yo‘nalishida qilingan tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi. Bu yondashuvlar tufayli zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari nafaqat o‘qitilgan namunalarni eslab qolish, balki yangi, ilgari uchramagan ma’lumotlarda ham ishonchli natijalar bera olish darajasiga yetdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida chuqur neyron tarmoqlarning umumlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar o‘rganildi. Asosiy e’tibor adaptiv faollashtirish funksiyalari (Adaptive Activation Functions) ning ta’sirini

ISSN 3030-3907

tahlil qilishga qaratildi, chunki aktivatsiya funksiyasi modelning o‘rganish jarayonida nolinearlikni ta’minlaydigan va neyronlarning faollik darajasini boshqaradigan asosiy komponent hisoblanadi. Turli aktivatsiya funksiyalari tarmoqning konvergentsiya tezligi, barqarorligi hamda yangi ma’lumotlarga nisbatan umumlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot modeli sifatida ko‘p qatlamli perseptron (Multilayer Perceptron, MLP) arxitekturasi tanlandi. Tarmoq 5 ta yashirin qatlamdan iborat bo‘lib, har bir qatlamda mos ravishda neyronlar soni 512, 256, 128, 64 va 32 qilib belgilandi. Har bir qatlamdan keyin aktivatsiya funksiyasi qo‘llanib, so‘ngra kerakli hollarda regulyarizatsiya qatlamlari (Dropout yoki L2) ishlatildi. Chiqish qatlami softmax funksiyasi orqali klassifikatsiya natijasini berdi.

Eksperimentlarda model ikki xil ma’lumot to‘plamida sinovdan o‘tkazildi:

- MNIST — bu 28×28 piksel o‘lchamdagi qora-oq qo‘l yozuvi raqamlar (0–9) tasvirlaridan iborat klassik ma’lumotlar bazasi.
- CIFAR-10 — 32×32 rangli tasvirlardan tashkil topgan, 10 xil obyekt sinfini (samolyot, avtomobil, qush, mushuk, it, kemalar va boshqalar) o‘z ichiga oluvchi murakkabroq to‘plam.

Modelning umumlashtirish imkoniyatlarini solishtirish maqsadida quyidagi tajriba ssenariylari ishlab chiqildi:

1. Standart ReLU aktivatsiya funksiyasi bilan o‘qitilgan MLP modeli. Bu bazaviy model sifatida tanlandi.
2. Parametrik ReLU (PReLU) aktivatsiyasi bilan model. Ushbu funksiyada ReLU ning salbiy qismining koeffitsienti o‘rganiluvchi parametr sifatida qo‘shiladi, bu esa modelni ma’lumotlarga moslashuvchanroq qiladi.
3. O‘rganiluvchi Mish va Swish funksiyalari asosidagi modelllar. Bu ikki aktivatsiya turi silliq nolinearlik va differensiallanuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, ReLU ga nisbatan gradient oqimini yaxshiroq saqlab qoladi.
4. Dropout (p = 0.3) va L2-regularizatsiya kombinatsiyasi bilan o‘qitilgan model. Dropout o‘qitish jarayonida ayrim neyronlarni tasodifiy o‘chirib turadi, L2 esa og‘irliklarning haddan tashqari kattalashishini cheklaydi — natijada model ortib o‘qitilishdan himoyalanadi.

Har bir model uchun o‘qitish jarayoni bir xil sharoitlarda amalga oshirildi: optimizer sifatida Adam algoritmi, batch size = 64, learning rate = 0.001, va 50 epoch davomida trening bajarildi. Har bir epoch yakunida modelning o‘qitish (train) va test (validation) aniqligi, shuningdek, yo‘qotish (loss) qiymatlari kuzatib borildi.

Tajriba davomida turli aktivatsiya funksiyalarining ta’siri miqdoriy jihatdan baholanib, ularning konvergentsiya tezligi, testdagi aniqlik, hamda umumlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, adaptiv aktivatsiya

ISSN 3030-3907

funksiyalaridan (xususan, Mish va Swish) foydalangan modellar ReLU asosidagi modelga nisbatan yangi ma’lumotlarda yuqoriroq aniqlikka ega bo‘ldi. Bundan tashqari, Dropout va L2-regularizatsiya bilan birgalikda ishlatish umumlashtirishni sezilarli darajada yaxshilagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, **adaptiv aktivatsiya funksiyalari** qo‘llanilgan model oddiy ReLU asosidagi modelga nisbatan test aniqligini 2–4% ga oshirgan. Bu natija, ayniqsa, kichik o‘quv namunalarida sezilarli bo‘ldi. Shuningdek, Dropout va Batch Normalization kombinatsiyasi modelning o‘rganish jarayonini barqarorlashtirgan. 1-jadvalda turli aktivatsiya funksiyalari asosida olingan test aniqliklari keltirilgan.

1-jadval

Turli aktivatsiya funksiyalari bilan sinov natijalari

Aktivatsiya turi	O‘quv aniqligi (%)	Test aniqligi (%)
ReLU	99.2	95.4
PReLU	99.1	96.7
Swish	99.3	97.2
Mish	99.4	97.5

Ko‘rinib turibdiki, Swish va Mish funksiyalari tarmoqning umumlashtirish qobiliyatini yaxshilagan. Bu natijalar tarmoq parametrlarining moslashuvchanligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari chuqur neyron tarmoqlarda umumlashtirish samaradorligini oshirish uchun bir nechta muhim omillar mavjudligini k**o‘**rsatdi. **O‘**tkazilgan tajribalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning foydaliligi eksperimental natijalar bilan tasdiqlandi.

Model arxitekturasida adaptiv aktivatsiya funksiyalaridan foydalanish. Oddiy ReLU funksiyasiga nisbatan PReLU, Swish va Mish kabi adaptiv aktivatsiyalar neyronlarning kirish signaliga mos ravishda **o‘**z shaklini **o‘**zgartiradi, bu esa modelning **o‘**rganish jarayonini yanada moslashuvchan qiladi. Bunday funksiyalar gradientning s**o‘**nib qolish muammosini kamaytiradi, modelni chuqur qatlamlarda ham barqaror **o‘**rganishga imkon beradi va natijada umumlashtirish k**o‘**rsatkichlarini oshiradi. Tajribalarda Mish funksiyasi eng yuqori aniqlikka erishgan.

Overfittingni kamaytirish uchun Dropout va L2-regularizatsiyani birgalikda q**o‘**llash. Overfitting — bu chuqur tarmoqlar uchun eng keng tarqalgan muammo

ISSN 3030-3907

b**o‘**lib, modelning **o‘**qitilgan ma’lumotlarga ortiqcha moslashuvchanligini bildiradi. Tadqiqot davomida Dropout (p=0.3) va L2-regularizatsiya birgalikda q**o‘**llanilganda modelning test aniqligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Dropout neyronlar orasidagi ortiqcha bog‘liqlikni kamaytiradi, L2 esa og‘irliklarning haddan tashqari kattalashishini oldini oladi. Bu kombinatsiya modelni yanada umumiyroq naqshlarni o‘rganishga majbur qiladi va umumlashtirishni yaxshilaydi.

Ma’lumotlarni normallashtirish orqali o‘rganish barqarorligini ta’minlash. Har bir qatlamdagi ma’lumotlar taqsimotini normallashtirish (Batch Normalization yoki Layer Normalization yordamida) modelning konvergentsiyasini tezlashtiradi, gradientning portlash yoki so‘nish muammosini kamaytiradi hamda o‘rganish jarayonini yanada izchil qiladi. Natijada model nafaqat tezroq o‘rganadi, balki yangi ma’lumotlarga nisbatan barqarorroq ishlaydi.

Modelni turli ma’lumotlar to‘plamida sinovdan o‘tkazish orqali umumlashtirish qobiliyatini baholash. Model faqat bitta ma’lumot to‘plamida yuqori natija ko‘rsatishi uning umumlashtirish qobiliyatini to‘liq isbotlamaydi. Shu sababli, tadqiqotda model MNIST va CIFAR-10 kabi turli domenlardagi ma’lumotlar to‘plamida sinovdan o‘tkazildi. Ushbu yondashuv tarmoqning har xil turdagi ma’lumotlarga moslashuvchanligini va haqiqiy muhitda ishlash salohiyatini aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv aktivatsiya funksiyalarini regulyarizatsiya va normallashtirish metodlari bilan kombinatsiyalash chuqur neyron tarmoqlarning umumlashtirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bunday yondashuvlar chuqur o‘rganish modellari asosida real amaliy masalalarni — masalan, tasvirni tanish, nutqni va ovozni qayta ishlash, moliyaviy prognozlash yoki biotibbiy tahlil kabi sohalarni samarali hal etish imkonini beradi.

Natijalar shuningdek, model parametrlarini tanlashda muvozanatni saqlash, ya’ni chuqurlik, o‘rganish tezligi va regulyarizatsiya darajasini to‘g‘ri sozlash, umumlashtirish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shu asosda kelgusida tarmoqlarni yanada barqaror, tez o‘rganuvchi va umumlashtiruvchi shaklda ishlab chiqish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. *Deep learning.* — Nature, 2015.
2. Srivastava N. et al. *Dropout: A Simple Way to Prevent Neural Networks from Overfitting.* — JMLR, 2014.
3. Ioffe S., Szegedy C. *Batch Normalization: Accelerating Deep Network Training.* — arXiv:1502.03167, 2015.
4. Misra D. *Mish: A Self Regularized Non-Monotonic Activation Function.* — arXiv:1908.08681, 2019.

ISSN 3030-3907

5. Ramachandran P. et al. *Searching for Activation Functions.* — arXiv:1710.05941, 2017.
6. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning.* — MIT Press, 2016.

ISSN 3030-3907

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA AVTOMOBILSOZLIK SANOATINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xamrakulova Zarnigorxon Farxodjon qizi
Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti
E-mail: zarnigorxamrakulova140@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishi, O‘zbekiston iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida ma’lumotlar va statistik tahlillar keltirilgan. Yildan yilga avtomobilsozlik sanoati jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Mahsulotlar chet el bozorlarida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lishi uchun sa’y harakatlar olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: Avtomobilsozlik, Yangi O‘zbekiston, innovatsiya, eksport, ichki bozor, investitsiya, inson kapitali, tahlil.

Аннотация: В данной статье представлены сведения и статистический анализ о развитии автомобильной промышленности Республики Узбекистан, о её месте и значении в экономике Узбекистана. Год за годом автомобильная промышленность стремительно развивается. Предпринимаются усилия для того, чтобы продукция заняла своё место и положение на зарубежных рынках.

Ключевые слова: автомобилестроение, Новый Узбекистан, инновации, экспорт, внутренний рынок, инвестиции, человеческий капитал, анализ

Annotation: This article provides information and statistical analyses on the development of the automotive industry in the Republic of Uzbekistan, as well as its role and significance in the Uzbek economy. The automotive industry is growing rapidly year by year. Efforts are being made to ensure that the products have their place and position in foreign markets.

Keywords: Automotive industry, New Uzbekistan, innovation, export, domestic market, investment, human capital, analysis

Kirish

Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida avtomobilsozlik sanoati mamlakat iqtisodiyotining murakkab va ko‘p qirrali tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu sanoat nafaqat ichki avtomobil bozorining talabini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish, milliy ishlab chiqarishni mustahkamlash va sanoatning raqobatbardoshligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining hozirgi holatini, texnologik innovatsiyalarni, eksport va ichki bozordagi rivojlanish tendensiyalarini keng yoritishdan iboratdir. Shu jumladan, sanoat mahsulotining umumiy sanoat ichidagi ulushi, yangi elektr avtomobillari (NEV) ishlab chiqarish yo‘nalishlari, xalqaro hamkorlik va investitsiya muhitining ijobiy tomonlari hamda kadrlar tayyorlashdagi yangilanishlar ham tahlil etiladi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati mamlakat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy ahamiyati har yili tobora oshib bormoqda. 2024-yil yanvar-oktyabr oylarida mamlakatda 338 000 ta avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu orqali $455 million eksport tushganligi ta’kidlanmoqda. Shu bilan birga, sanoat umumiy ishlab chiqarish hajmining 10 foizini tashkil etadi, bu esa uning iqtisodiy turg‘unlik va o‘sishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati yil davomida taxminan $5,5 milliard daromad keltirishda davom etmoqda va 2023-yilda $4,4 milliard xorij savdosi aylanmasi, shuningdek, $146 million miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ham amalga oshirilgan. Ushbu ma’lumotlar sanoatning nafaqat ichki bozor, balki xalqaro savdo va investitsiyalarda ham o‘zining sezilarli ahamiyatini isbotlaydi. Avtomobilsozlik texnologiyalarining yanada rivojlanishi va kadrlar tayyorlash tizimi orqali bu soha kelgusida yanada kengayishi va modernizatsiyalashishi kutilmoqda.

Zamonaviy avtomobilsozlik sanoati butun dunyoda yuqori texnologiyalarni joriy etish va yangiliklarga intilish bilan ajralib turadi. O‘zbekiston bu unumdorlikni oshirish uchun ilg‘or texnologiyalar va elektr transport vositalarini ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining kelajagi elektr avtomobillarni ishlab chiqarish safida yotadi. Mamlakat BYD kabi global brendlar bilan hamkorlikda elektromobil zavodlarini ishga tushirish yo‘lida jiddiy harakatlar qilyapti. Masalan, Jizzax viloyatida BYD kompaniyasi bilan hamkorlikda elektromobil zavodi barpo etilgan bo‘lib, unda Chazor va Song Plus Champion modellar ishlab chiqarilmoqda. Kelgusida ushbu zavodlar yordamida elektromobillar soni yiliga 200 ming dan 500 ming dona gacha yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Yuqori texnologik jarayonlar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari avtomobilsozlik sanoatida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. BYD zavodida ilg‘or robototexnika, avtomatlashtirilgan sifat nazorati va IT-infrastruktura joriy etilishi natijasida mahsulot sifati va ishlab chiqarish tezligi sezilarli darajada oshdi. Ushbu texnologik yangiliklar yordamida O‘zbekiston innovatsion avtomobil ishlab chiqarish sohasida nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham o‘z o‘rnini mustahkamlashga erishmoqda.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining eksport salohiyati ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Mamlakat eksport qilish bo‘yicha yangi strategiyalarni joriy etib, an’anaviy savdo yo‘nalishlaridan tashqari, yangi bozorlarga o‘tishga intilmoqda.

2024-yilda avtomobilsozlik sanoatida 338 000 ta avtomobil ishlab chiqarilishi va $455 million eksport tushishi mamlakat sanoatining muvaffaqiyatini

ISSN 3030-3907

namoyon etadi. 2025-yil uchun maqsad 450 000 ta avtomobil ishlab chiqarish va eksportni $700 million darajasiga oshirishdan iborat. Bu ko‘rsatkichlar avtomobilsozlik sanoatining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha valyuta oqimini yaratishga qaratilgan strategik choralarni aks ettiradi.

Avtomobilsozlik sanoati rivojlanishida investitsiyalar va kadrlar tayyorlash jarayoni muhim omillardir. Mamlakatda sanoatni modernizatsiyalash va yuqori texnologiyalarni joriy etishni ta’minlash uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlar o‘rtasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish uchun yil davomida $5,5 milliard daromad keltiruvchi va 2023-yilda $4,4 milliard xorij savdosi aylanmasi hamda $146 million miqdoridagi FDI va kreditlar mablag‘iga ega bo‘lishi bilan e’tirof etiladi. Shuningdek, davlat tomonidan iqtisodiy choralar, soliq imtiyozlari va sarmoya qo‘yish uchun yaratilgan qulay sharoitlar sanoatning kelgusidagi o‘sishini kafolatlaydi.

Avtomobilsozlik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, quyidagi jihatlar asosida o‘zining muhim ahamiyatini ko‘rsatmoqda:

Iqtisodiy Salohiyat:

2024-yilda 338 000 avtomobil ishlab chiqarilib, $455 million eksport tushgan; sanoat umumiy ishlab chiqarishning 10% ini tashkil etadi.

2016-2020 yillar oralig‘i davomida avtomobilsozlik minglab foizga o‘sdi, bu esa sanoatning mustahkam o‘sishini ko‘rsatadi.

Texnologik Yangiliklar:

Elektr avtomobillar, akkumulyatorlar va ilg‘or robototexnika tizimlari yordamida innovatsion ishlab chiqarish tizimi joriy etilmoqda.

BYD va boshqa brendlar bilan hamkorlik natijasida elektromobil zavodlari ishga tushirilmoqda, bu sanoatning kelajagini belgilovchi ijobiy omillardandir.

Eksport va Ichki Bozor:

Eksport salohiyati sezilarli darajada oshib, yangi bozor segmentlariga kirish rejalashtirilmoqda, bu esa mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Ichki bozor raqobati kuchayib, ADM Jizzakh, BYD kabi korxonalar tomonidan sotuvlar sezilarli ko‘paymoqda.

Investitsiyalar va Inson Kapitali:

Yillik daromad va xorij savdosi aylanmasi yuqori bo‘lib, sarmoya va moliyaviy ko‘rsatkichlar sanoatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

ISSN 3030-3907

Italiyaning Turin politexnika universiteti kabi xalqaro hamkorlik markazlari orqali kadrlar tayyorlash tizimi mustahkamlanmoqda va “Industry 4.0” texnologiyalari keng joriy etilmoqda.

Xulosa bo‘yicha muhim natijalar:

Avtomobilsozlik sanoati O‘zbekiston umumiy sanoat mahsulotining 10% ini tashkil etadi va sezilarli eksport tushumiga ega.

Elektr avtomobillar va ilg‘or robototexnika texnologiyalari sanoatni global standartlarga mos ravishda modernizatsiyalash imkonini beradi.

Eksport salohiyati oshib borayotgan davlatning strategik yo‘nalishlari orqali yangi bozor segmentlariga kirish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va kadrlar tayyorlash markazlari orqali “Industry 4.0”ga yo‘naltirilgan tizimlar joriy etilmoqda.

Ushbu xulosalar O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va innovatsion yondashuvlar asosida davlat iqtisodiyotining yanada mustahkamlanishiga zamin yaratishda asosiy rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gazeta.uz
2. Zamin.uz
3. www.autouzbek.com
4. timesca.com
5. invest.miit.uz

ISSN 3030-3907

QIMMATBAHO METALLARNI EKOLOGIK XAVFSIZ ELEKTROKIMYOVIY ERITISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich
Qarshi davlat texnika universiteti t.f.f.d., PhD, Qarshi, O‘zbekiston
ORCID ID: 0009-0007-7820-7799
Email: najmiddinboy-94@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada rangli va qimmatbaho metallarni murakkab va qiyin eruvchi xomashyolardan ajratib olishning elektrokimyoviy usuli yoritilgan. Tadqiqotlar natriy gidroksid eritmalarida oltingugurt–grafit kompozit elektroddan foydalanilgan holda olib borilgan bo‘lib, oltin va kumushning eritmaga o‘tish kinetikasi, elektrokimyoviy parametrlarning ta’siri hamda jarayonning IR-spektroskopik tahlili o‘rganilgan. Tajribalar natijasida natriy polisulfidlar hosil bo‘lishi aniqlanib, ularning tiosulfat va sulfit ionlari bilan kompleks hosil qilishi isbotlangan. Tok zichligi oshgani sayin metallarning eritmaga o‘tish tezligi ortgani kuzatilgan. Natijalar murakkab rudalarni ekologik xavfsiz va energiya tejamkor usulda qayta ishlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: elektrokimyoviy eritish, oltingugurt–grafit elektrod, oltin, kumush, tiosulfat, IR-spektroskopiya.

Abstract: This paper presents the electrochemical method for extracting nonferrous and noble metals from complex and refractory raw materials. Experiments were conducted using sulfur–graphite composite electrodes in sodium hydroxide solutions to study the kinetics of gold and silver dissolution, the influence of electrochemical parameters, and IR-spectroscopic characteristics of the process. Results revealed the formation of sodium polysulfides, including thiosulfate and sulfite ions, capable of forming complexes with noble metals. Increasing current density enhanced the dissolution rate of metals. The proposed method ensures efficient, eco-friendly, and energy-saving processing of complex ores.

Keywords: electrochemical leaching, sulfur–graphite electrode, gold, silver, thiosulfate, IR-spectroscopy.

Аннотация: В статье рассматривается электрокимический метод извлечения цветных и благородных металлов из сложных и труднообогатимых сырьевых материалов. Исследования проводились в растворах гидроксида натрия с использованием серо-графитового композитного электрода. Изучены кинетика растворения золота и серебра, влияние электрохимических параметров и ИК-спектроскопические характеристики процесса. Установлено образование полисульфидов натрия, включая тиосульфат- и сульфит-ионы, способных образовывать комплексы с благородными

ISSN 3030-3907

металлами. Повышение плотности тока приводит к увеличению скорости перехода металлов в раствор. Метод обеспечивает эффективную, экологически безопасную и энергоэкономичную переработку сложных руд.

Ключевые слова: электрохимическое выщелачивание, серо-графитовый электрод, золото, серебро, тиосульфат, ИК-спектроскопия.

Kirish

Metallarning eritma holatiga o‘tishini ta’minlovchi gidrometallurgik usullarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lami va yo‘nalishlarining kengayib borishi, avvalo, qazib olinayotgan rudalarning sifatining yomonlashuvi, tarkibida bir necha komponentli va murakkab qayta ishlanadigan xomashyolarning ishlab chiqarishga jalb etilishi, shuningdek, texnogen chiqindilar va ikkilamchi xomashyolarni qayta ishlash zaruratiga bog‘liqdir [1]. Ushbu omillar metall ajratish texnologiyalarini yanada mukammallashtirishni va ekologik jihatdan xavfsiz usullarni ishlab chiqishni talab etadi.

Oltin va kumush kabi qimmatbaho metallarni erituvchilar yordamida eritmaga o‘tkazish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ularning sulfidli va murakkab rudalaridan ajratib olinishi uchun samarali usullar ishlab chiqilgan [4]. Xususan, gidrometallurgik ishlov berish jarayonlari orqali rudalardagi birikmalarni eritiluvchi holatga o‘tkazish (pirotit va arsenopiritni avtoklavlarda oksidlash, azot kislotali ochish, bakterial yuvish va boshqalar) natijasida oltinni siyanidsiz eritmalar yordamida ajratib olish imkoniyati yaratilgan. Shunday usullardan biri sifatida tiyokarbamid va tiosulfat eritmalari asosidagi jarayonlar turli mineral xomashyolardan oltin olishda keng qo‘llanilgan [5].

Metallarning eritmaga o‘tish jarayonini jadallashtirishda nafaqat kimyoviy, balki fizik va fizik-kimyoviy usullar ham keng tatbiq etilmoqda. Bunga minerallarning kristall panjarasini mexanokimyoviy ta’sirlar orqali buzish, kimyoviy reaksiyalarning to‘lqinli xususiyatlaridan foydalanish kabi texnologik yondashuvlar misol bo‘la oladi [6]. Bunday texnik yechimlar qimmatbaho metallar va aralashmalar fazalarini individuallashtirish hamda ularni tanlab eritmaga o‘tkazish imkonini beradi. So‘nggi ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mavjud texnologiyalar asosiy mineral bilan uni o‘rab turgan jins minerallari o‘rtasidagi kuchlarini yetarlicha inobatga olmaydi. Aslida, ushbu kuchlarni yengib o‘tishga qaratilgan jarayonlar metallni eritmaga o‘tish tezligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Masalan, piritcha oksidlanish tezligini cheklovchi asosiy omil sifatida uning oksidlovchi bilan kimyoviy o‘zaro ta’siri bosqichi ajratib ko‘rsatiladi, bu esa sulfid-oksid tizimlaridagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga muhim ta’sir ko‘rsatadi [7].

Oltingugurt elementi – oksidlanish mahsulotlaridan biri sifatida – konsentratdagi oksid komponentining dispersiyalovchi ta’siri sababli pirit

ISSN 3030-3907

zarrachalari bilan konglomeratlar hosil qilmaydi. Eritish jarayonida yuqoridagi holatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida elektr toki qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, eritmalarni elektrokimyoviy usulda ishlov berish metallarning eritmaga o‘tish jarayonini jadallashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bu usul kam kapital va ekspluatatsion xarajatlar bilan, shuningdek, atrof-muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda, hamda murakkab tarkibli rudalarni qayta ishlash imkonini yaratadi va mineral xomashyolardan kompleks foydalanish tamoyilini ta’minlaydi.

Tadqiqotlarda oltinni sianidli eritmalar yordamida yuvish jarayonini kuchaytirish uchun pirit, xalkopirit, sfalerit va xalkozin ishtirokida elektr toki qo‘llanilganda samaradorlik ortishi kuzatilgan. Elektr ta’siri natijasida pirit bilan galvanik juftlik hosil bo‘lishi sulfid minerallarning eritish jarayoniga bo‘lgan salbiy ta’sirini kamaytiradi. Sulfidlarning dastlabki oksidlanishi esa oltinning sianidlash jarayonini tezlashtiradi. Turli kimyoviy tarkibdagi eritmalar orqali metallarning eritmaga o‘tish reaksiyalarini elektr toki yordamida amalga oshirish jarayoni — elektrokimyoviy eritish — elektrokimyoviy jarayonlarni o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar, jumladan, Shulgin L.P. tomonidan o‘tkazilgan izlanishlar natijasida o‘zgaruvchan tok ta’sirida eritmalarda kechadigan oksidlanish va qaytarilish jarayonlari, turli birikmalarning erish tezligi hamda bu jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar keng tahlil qilingan. Ushbu natijalar elektrokimyoviy usullarni metall ajratish texnologiyalarida qo‘llash istiqbollarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi [9].

Yuqorida keltirilgan ishlar hamda boshqa bir qator tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, o‘zgaruvchan yoki impulsli elektr toki ta’sirida eritmalar tarkibida fizik-kimyoviy xossalarning o‘zgarishi kuzatiladi. Bunday o‘zgarishlar eritma tuzilishining, jumladan, solvatar va erituvchi komplekslarning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. So‘nggi yillarda murakkab va qiyin eruvchi rudalardan metallarni eritmaga o‘tkazishning yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Biroq, amalda qo‘llanilayotgan an’anaviy usullar sanoat talablariga to‘liq javob bermaydi, chunki ular metall ajratish samaradorligini oshirmaydi, ishlab chiqarilgan har bir tonna metall uchun energiya sarfini kamaytirmaydi hamda texnogen chiqindilar hajmini yetarlicha qisqartirmaydi [10].

Buning asosiy sabablari quyidagicha izohlanadi: birinchidan, noorganik suvli eritmalarda kechadigan kimyoviy jarayonlar yetarlicha o‘rganilmagan, chunki bir komponentli suyuqliklarning tuzilmasi haqidagi ilmiy tushunchalar aniq emas, ko‘p komponentli eritmalar tuzilishini o‘rganish esa yanada murakkab masaladir. Ikkinchidan, eritma hajmida bir vaqtning o‘zida kechuvchi elektrokimyoviy reaksiyalar to‘liq o‘rganilmagan. Uchinchidan, “ruda – texnologiya – metall” zanjirida jarayon bosqichlarini kamaytirish imkonini

ISSN 3030-3907

beruvchi kimyoviy reaksiyalar yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida rangli va qimmatbaho metallarni murakkab, qiyin eruvchi hamda texnogen xomashyolardan eritmaga o‘tkazishning elektrokimyoviy usuli ishlab chiqilgan. Bu usul elektrokimyoviy yo‘l bilan yuvuvchi eritmani hosil qilish va metallarni bir vaqtning o‘zida eritmaga o‘tkazish jarayonlarini birlashtiradi. Tadqiqotlarda natriy gidroksidi eritmasida metallarning yuvilishi amalga oshirilgan. Yuvish reagentini hosil qilish manbai sifatida oltingugurt-grafitli kompozit elektrod qo‘llanilgan bo‘lib, uning elektrokimyoviy ishlovi natijasida ishqoriy muhitda natriy tiosulfat va boshqa oltingugurtli natriy birikmalari hosil bo‘lgan [13].

O‘tkazilgan tajribalarda oltingugurt-grafitli elektrod ham anod, ham katod sifatida ishlatilgan. Natijada, laboratoriya sharoitida qo‘shma elektrokimyoviy usul yordamida oltin va kumushni murakkab tarkibli xomashyolardan eritmaga o‘tkazish bo‘yicha samarali natijalar olingan. Bu yondashuv murakkab rudalarni qayta ishlash samaradorligini oshirish, texnologik bosqichlarni qisqartirish va chiqindilar miqdorini kamaytirish imkonini beradi [14].

Ma’lumotlar va natijalar:

Murakkab tarkibli mineral xomashyodan rangli va qimmatbaho metallarni ajratib olish bo‘yicha tajribalar oltingugurt-grafit elektroddan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida oltin va kumush konsentrati tanlandi. Konsentratning kimyoviy tarkibi quyidagicha (massaviy % da): Au – 31 g/t; Ag – 68,5 g/t; Cu – 1,2; Pb – 41,0; Ba – 9,4; Ti – 5,1; Zn – 0,3; Cr – 0,5; Mn – 0,2; Co – 0,1; As – 3,4; Sb – 0,02. Dastlab xomashyo maydalanib, to‘rtlik usulida tanlab olinib, namunalar InnovXSystems rentgen-flüoresans spektrometri yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijasida metall va metallmas elementlarning (masalan, xlor, oltingugurt, mishyak, surma) miqdori aniqlanib, ularning o‘rtacha qiymatlari hisoblab chiqildi.

Ishda zarracha o‘lchami -0,16 + 0,074 mm (95 %) bo‘lgan monodispers oltin-kumush konsentrati qo‘llanildi. Uning solishtirma sirt maydoni 4,5 m^2/g ni tashkil etdi. Tajribalar termostatli reaksiya kamerasi ichida joylashtirilgan uch elektrodli tizimda o‘tkazildi. Tizim tarkibiga ishchi elektrod, nisbiy elektrod va yordamchi elektrod kiritilgan. Ishchi elektrod sifatida oltingugurt-grafitli elektrod, nisbiy elektrod sifatida kumush-xlorid elektrod, anod sifatida esa grafit elektrod ishlatildi.


